

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

T. G'afforova, U. Yoziyeva

BOSHLANG'ICH TA'LIMNI O'QITISHDA INNOVATSION
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

KURSI BO'YICHA

MA'RUZALAR MATNI

Qarshi-2014

1-mavzu: Boshlang'ich ta'limni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar faning maqsad va vazifalari.

Reja:

- 1.«Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi»ni amalga oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar.
- 2.Innovatsion pedagogik texnologiyalar fanining maqsad va vazifalari.
- 3.Innovatsion pedagogik texnologiyalar fani boshqa pedagogik fanlar o'rtasidagi o'rni.
4. Innovatsion pedagogik texnologiyalar fanining metodologik asosi.

Tayanch tushunchalar

Innovatsion pedagogik texnologiya, metodologiya, metod, individual o'qitish, ta'lim-tarbiya.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotning demokratik- huquiy, fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan dadil bormoqda. Iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, xalq ta'limi sohalarida isloxotlar va yangilanish jarayonlari bosqichma-bosqich, izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik tufayli pedagogika fanining taraqqiyotida ham olamshumul o'zgarishlar yuz berdi. Mamlakatimizning ma'naviy salohiyatini oshirish, ta'lim tizimini tubdan islox qilish, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, Ta'lim to'g'risidagi Qonunni tayyorlash va amalga oshirish pedagogika fanining zimmasiga tushdi.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida hal qiluvchi muammolar: xalqimizning ming-ming yillik milliy qadriyatlarini, pedagogik merosini o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayonini milliyashtirish; jamiyat taraqqiyotida ma'naviyatning ustivorligini ta'minlash va ma'naviy tarbiya nazariyasini, amaliyotini takomillashtirish; yoshlar ongiga milliy mafkura, milliy g'oyani singdirish, vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun va metodikasini ishlab chiqish; jaxon andozalariga mos ta'lim tizimini yaratish, ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish: pedagogik kadrlarni hozirgi davr talabi asosida ta'lim-tarbiya ishiga tayyorlash, pedagogik texnologiya bilan qurollantirish kabilar pedagogika fanining dolzarb vazifasi bo'lib qoldi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganib, ularni o'quv muassasalarimizga olib kirish zarurligi ko'p marta takrorlanadi.

Keyingi 10 yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda "Pedagogik texnologiya", "Yangi pedagogik texnologiya", "Ilg'or pedagogik texnologiya", "Progressiv pedagogik texnologiya" kabi tushunchalar ko'p uchrab turgani bilan, ularning o'zbek tilidagi maromiga etgan ta'rifi hali tuzilmagan.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilar ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitga moslashgan ta'lim

texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar.

Birinchidan: ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotdan ortda qolib ketgan jamiyatimiz, taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlaridan foydalanish zarurligi:

Ikkinchidan: an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli "Axborotli o'qitish" sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi:

Uchinchidan: Fan-texnika taraqqiyotininig o'rta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi:

To'rtinchidan: kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi:

Beshinchidan: yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa yondoshuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishidir.

Pedagogik texnologiya fani yuqorida sanab o'tilgan 5 ta sababiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy mehanizmidir.

Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ta'lim jarayonining etarli samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qitishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

Pedagogik texnologiyaning vazifasi:

Pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish hamda pedagogik texnologiyalarni loyihalash bo'yicha bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish.

Pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish psixologiya, pedagogika, kasbiy ta'lim uslubiyoti va pedagogik mahorat fanlaridan olingan bilimlarga asoslanadi.

Pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi ommaviy ta'lim sharoitida oddiy «o'rtacha» pedagoglarga o'qitishning samaradorligiga erishishini ta'minlash hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning o'rganish sohasi predmeti o'qitish tizimi hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida, o'qitish – o'quv materialining to'la o'zlashtirilish prinsipiga tayanmog'i lozim, ya'ni fanning o'quv dasturiga asoslangan o'quv materialini, guruhning barcha talablari tomonidan to'la o'zlashtirilishi zarur.

«O'quv materialining to'la o'zlashtirilishi» tushunchasi nimani anglatadi? Har qaysi mavzu bo'yicha o'rnatilgan darajadagi bilim olishga erishilishi, o'quv materialini to'la o'zlashtirish prinsipini anglatadi. Chet elda o'tkazilgan ko'p sonli tadqiqotlarga ko'ra «talabalarining to'la o'zlashtirilishi» tushunchasi o'quv materialining guruhdagi har bir talaba tomonidan 80-90% ga o'zlashtirilishi tushuniladi, ya'ni har bir talaba o'quv fanini o'rtacha 85% ga o'zlashtirishi zarur.

Bunday natija faqat juda katta tajribali ajoyib professor-o'qituvchilarda esa o'quv materialining bunday o'zlashtirilishini faqat iqtidorli talabalar berishi mumkin.

Bu sharoitda, qanday qilib talabalarning to'la o'zlashtirishiga erishish mumkin? Bunga erishishning uch yo'li bor:

Birinchi yo'l: o'zlashtirish mezonini pasaytirish, hozirgi paytda shundan foydalanayapti, shuning uchun ham hozirgi paytda o'quv materialini, o'quv fanini 55% o'zlashtirgan talaba o'zlashtiradigan talaba deb hisoblanadi.

Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti kadrlarning saviyasi va tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar chegarasini belgilaydi. Agar bu minimal talablar 55% ga o'zlashtirilsa, har bir fan bo'yicha talaba o'zlashtirishining umumiy integral bahosi qancha bo'ladi degan savol tug'iladi. Tabiiyki bu yo'lning istiqboli yo'qdir.

Ikkinchi yo'l: professor-o'qituvchilar tarkibini faqatgina oliy darajali ajoyib professor va dosentlar asosida tuzish. Ularning har biri o'ziga xos o'qitish usullari va yo'llari tufayli tayyorgarlik darajasi butunlay har xil bo'lgan, talabalarni to'la o'zlashtirishni ta'minlaydilar. Haqiqatda, bir guruhda kirishdagi bali 80 dan 200 gacha bo'lgan talabalar o'qishi mumkin. Bu yo'l – haqiqatdan uzoq, ideallashtirilgan yo'ldir.

Talabalarning hammasi iqtidorli bo'lmaganidek, professor o'qituvchilar tarkibining hammasi ham iqtidorli, oliy darajali bo'la olmaydi.

Uchinchi yo'l: o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'lib, ular o'qish va o'rgatishning asosiy elementlarini o'rnatib, o'zida oliy darajadagi pedagog olimlarning o'qitishdagi uslub va yo'llarini mujassamlashtirgan bo'ladi.

Ishlab chiqarishda, malakasi uncha yuqori bo'lmagan oddiy ishchi tayyor texnologiya bo'yicha oliy sifatli mahsulot ishlab chiqarganidek, oddiy o'qituvchi, pedagogik texnologiyani qo'llab, ajoyib natijalarga erishadi. Pedagogik texnologiyaning qimmatini va ahamiyatini aynan shu bilan belgilanadi.

Ommaviy o'qitish sharoitida talabalarning to'la o'zlashtirishga erishishini ta'minlaydigan yagona to'g'ri yo'l – shu yo'ldir. Pedagogik texnologiya, ishlab chiqarish texnologik jarayoniga o'xshab ko'zlangan (rejalashtirilgan) natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va u an'anaviy ta'limdan nima bilan farq qiladi?

Hozirgi kunda pedagogik adabiyotlar, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «Progressiv pedagogik texnologiya», «Zamonaviy ta'lim texnologiyasi» iboralari keng qo'llanilmoqda. Ammo «Pedagogik texnologiya» tushunchasi hali ham bir qolipga tushirilmagan, ensiklopediyalarda izohlanganicha yo'q, mazmunining yagona talqini ham ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bu erda nima uchun bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning milliy nazariy asosini yaratish va amaliyotga tadbiiq etish zarurati tug'ildi, degan savol paydo bo'lishi mumkin. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli kadrlarni va yuqori

malakali olimlarni etishtirib kelgan pedagogika klublari mavjudki, ularning eskirib, talabga javob bermay qolgan va mafkuralashtirilgan joylarini o'zgartirib, milliy tus berib, foydalanaversa bo'lmaydimi? Degan mulohazalar ham yo'q emas. O'zbekistonning shu kundagi pedagogik jamoatchiligining aksariyati, aynan mana shu yo'ldan bormoqda. Bu yo'l ilojsizlikdan izlab topilgan bo'lib, qisqa muddat xizmat qilishi mumkin. Mustaqillikni qo'lga kiritgan va buyuk kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l uzoq xizmat qilolmaydi. Chunki, birinchidan, ma'lum sabablarga ko'ra jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, axolii ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi; ikkinchidan, an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rishi tufayli «axborotli o'qitish» sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi; uchinchidan, fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi; to'rtinchidan, kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va empirik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi; beshinchidan, yoshlarni mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishdadir.

Ta'lim texnologiyasi sanab o'tilgan beshta sababiy shartlarning barcha talablariga javob beradigan ta'limiy tadbirdir.

Bu zaruriyat shu vaqtgacha tahsil oluvchilar yopiq tafakkur paradigma (namuna, misol)lari asosida o'qitilganligi, ularda o'zgacha nuqtai nazarni tan olmaslik, faqat o'z fikrini to'g'ri deb bilish shakllanganligidandir. Bu hol har qanday taraqqiyotga g'ov bo'lib, shu paradigmada yurgan kishilarni inqiroz sari etaklaydi.

Jamiyatimiz jadallik bilan taraqqiy etib, iqtisodiy va siyosiy mavqei kundankunga ortib bormoqda. Ammo ijtimoiy sohada va ayniqsa, ta'lim-tarbiyada deysinish va umumiy taraqqiyotdan orqada qolish sezilmoqda. Bunday noxush vaziyatdan chiqib ketish yo'llaridan biri ta'lim-tarbiya jarayonini qabul qilingan davlat standartlari asosida texnologiyalashtirishdir.

Ta'lim jarayoniga mukamallik, aniqlik, yo'lga solinganlik, tartiblilik, ravonlik, vazminlik alomatlarini berish orqali samaradorligini oshiruvchi tadqiqot olib borilgan.

Didaktikaning asoschisi Yan Amos Komenskiy XVII asrdayoq ta'limning «Vaqt, fanlar va uslublarni mohirona taqsimlashni boshqa narsani talab qilmaydigan umumiy tartibdagi o'qitishning yagona mukammal uslubi topilsa, hamma narsa toshlari to'g'ri muvozanatlangan soatdek, faqat ana shunday mahorat yaratilgan asbobda erishish mumkin bo'lgan bexatolik bilan ilgarilaydi».

Zamonaviy pedagogikada ham, ta'limni shunday modellari, unga nisbatan shunday yondashuvlar ishlanmoqdaki, ular ta'limga, ishlab chiqarish – texnologik

jarayon, ma'lum sharoitlarda va belgilangan vaqt ichida ko'zlangan ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan xarakterni berish imkoniyatini yaratadi.

T.S. Nazarovaning qayd etishicha, pedagogik texnologiya 70-yilarning boshlarida AQShda yuzaga kelgan bo'lib, uning asoschisi taniqli olimlar B.Blum, D.Kratvol, N.Gronlund, J. Kerrol, J. Blok, L. Anderson va boshqalardir.

Pedagogik texnologiya oqimi deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarga tez tarqaldi, YuNYESKO kabi nufuzli tashkilot tomonidan tan olindi va qo'llab-quvvatlandi va hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli o'zlashtirilmoqda, qo'llanilmoqda. Ko'pgina mamlakatlar pedagogik texnologiyadan foydalanib, o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Masalan, Janubi Koreyada pedagogik texnologiya bo'yicha tajriba-sinov tarzida o'qitayotgan 50 ming boladan 75 foizida an'anaviy o'qitishda faqat eng yaxshi o'quvchilar erishadigan natijalar qo'lga kiritilgan. Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni, berilgan sharoitlarda va ajratilgan vaqt ichida vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi. Bunday yondashishning mohiyati, ta'lim jarayonini tizimlashtirishdan – uni aniq rasmiylashtirilgan va detallari bo'yicha aniq elementlarga bo'lib tashlash yordamida maksimal shakllantirishdan iborat.

Ta'lim texnologiyasining predmeti – ta'lim tizimini konseptual asoslariga dalil keltirishdan, maqsadlarni qo'yishdan, natijalarni shakllantirishdan, o'quv materialini tanlash va strukturalashtirishdan, ta'lim modelini tanlashdan, to ularni amalga oshirishgacha, ularning optimallik va samaradorlik darajasini baholashgacha loyihalashtirishdan tarkib topgan.

Bizda ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xarakterni kiritish 50-yillardan boshlangan. Ular an'anaviy o'qitish uchun texnik vositalar majmuasini yaratishda o'z ifodasini topgan. Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiyaga oddiygina «o'qitishning texnik vositalaridan yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar sifatida qaralmaydi: bu o'qitish samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish va qo'llash yo'li bilan qo'llanilayotgan usullarni baholash vositasida ta'lim jarayonining tamoyillarini aniqlash va optimallashtirish usullarini ishlab chiqish maqsadidagi tadqiqotlardir». (Mejdunarodny ejegodnik po texnologii obrazovaniya i obucheniya, 1978-79. – London: Nyu-York, 1978. s. 258 (ingliz tilida)).

V.P. Bepalko fikri bo'yicha, barcha ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiya yo'lga o'tkazish – o'quv amaliyotini, pedagogik jarayonni qurish va amalga oshirishda ixtiyoriylikdan, uning har bir elementini va bosqichini tartibli asoslashga, ob'ektiv tashxis qilinadigan yakuniy natijaga ietilishiga keskin ravishda burilishini ifodalaydi.

Ma'rifatli va rivodlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelinayotgan ta'lim texnologiyalarini o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'alaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonning milliy ta'lim texnologiyasini yaratish lozim.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturi: ta'lim-tarbiyani tubdan isloh qilish ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish; ta'lim berishning ilg'or

pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualari yaratish va o'quv- tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlashga bog'likligi ko'rsatiladi. Ma'lumki, Milliy dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Birinchi bosqich (1997-2001yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish va rivojlantirish uchun xuquqiy, ilmiy-uslubiy, moliyaviy moddiy shart- sharoitlar yaratish.

«...jumladan pedagog va ilmiy –pedagogik kadrlar tayyorlash xamda ularni malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish;

Ikkinchi bosqich: (2001-2005 yillar) milliy dasturini to'la ro'yobga chiqarish, mehnat bozorini rivojlantirish va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga olgan holda unga aniqlik kiritish, «Ta'lim muassasalarini moddiy texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli o'quv adabiyotlar va ilg'or pedagogik texnologiya bilan ta'minlanadi».

Uchinchi bosqich: (2005 va undan keyingi yillar) to'plangan tajribalar tahlil etiladi. Ular umumlashtirish asosida mamlakatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish» ko'zda tutiladi.

Ta'lim muassasalarini resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkam-lanadi, o'quv tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiya-lar bilan to'liq ta'minlanadi. Bunda biz pedagogik texnologiya Milliy dasturni amalga oshirishning muhim vositasi ekanini ko'rsatamiz.

Pedagogik texnologiya asrimizning 60-yillarida Amerika Qo'shma Shtatlarida, 70-80 yillarda boshka rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llanila boshlandi.

YUNESKONING 1996 yildagi xalqaro konferensiyasida Mamlakatning ma'naviy iqtisodiy salohiyatini oshirishda va ta'lim-tarbiyani intensivlashtir-ishda pedagogik texnologiya muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslanadi.

«Pedagogik texnologiya bilimlarni o'rganish yaxlit jarayonida ta'lim shakllarini optimallashtirish, texnikaviy, insoniy imkoniyatlar, ularning o'zaro hamkorligi amalga oshirish metodlar tizimidir», -degan xulosaga kelinadi.

Pedagogik texnologiya ommabopligi ilmiy asoslanganligi bilan individual mahoratdan farq qiladi. ***Yangi pedagogik texnologiya fanini o'qitish maqsadi*** – bo'lajak mutaxassisga asosan ta'lim –tarbiya jarayonining loyihalash samarali metod va vositalarni tanlashga o'rgatishdan iborat.

Kursning vazifasi- bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik texnologiya, texnika rivoj-langan mamlakatlar ilg'or pedagogik texnologiyasi, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning dasturini amalga oshirish tajribalari xaqida naziriy bilim berish:

- Pedagogik jarayonni loyihalash;
- Ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni, optimal metodlarini ko'nikma va malakasini shakllantirish;
- Pedagogik diagnostika qobiliyatini o'stirishdan iborat

Albatta, yangi pedagogik texnologiya ta'lim- tarbiya jarayonning mavjud qonun-lariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va umum-insoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

Pedagogika fani va amaliyotida «pedagogik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi», «o'qitish texnologiyasi» kabi atamalardan keng foydalanilmoqda. Shu bilan birga ularni tushunish paytida alohida fikrlar mavjud. Avvalambor, «texnik texnologiya» va «pedagogik texnologiya» tushunchalarining mohiyatini aniqlaylik.

«Texnologiya» - yunoncha ikki so'zdan – «texnos» (techne) – mahorat, san'at va «logos» (logos) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Bu ifoda zamonaviy texnologiya jarayonini to'liq tavsiflab berolmaydi.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy xodisa, deb ta'riflash mumkin.

Texnik texnologiya quyidagilarni bildiradi:

Xom-ashyo, materiallar, yarim fabrikatlar yoki mahsulotlarni olish, ularga ishlov berish yoki qayta ishlash yo'lari va usullarining yig'indisi (texnologiyaning jarayonli – bayonli aspekti);

Yuqorida ko'rsatilgan yo'llar va usullarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan. Texnologiyani fan sifatidagi vazifasi, moddiy resurslar va vaqtni eng kam sarflashni talab qiladigan samarali va tejamkor ishlab chiqarish jarayonlarini aniqlash hamda amalda qo'llash maqsadida qonuniyatlarni topish hisoblanadi (ilmiy aspekti);

Jarayonning o'zi – qazib olish, topish, ishlov berish, qayta ishlash, tashish, omborga joylash, saqlash hamda ishlab chiqarishni texnik nazorat qilish (texnologiyaning jarayonli – harakat aspekti).

Ishlab chiqarishda «texnologiya» so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi:

Texnologik jarayon – ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

Texnologik operatsiya – ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga etkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita – ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarning ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik reja – texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chadigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa deb ta'riflash mumkin. Ta'riflar nazariyasi bo'yicha bunday ijtimoiy hodisani pedagogik texnologiya desa bo'ladi (B. Ziyomammedov).

Pedagogik texnologiya ijtimoiy zaruriyat bo'lganligidan dastavval AQII da 70-yillarda falsafaning bixiviorizm oqimi zaminida yuzaga kelib, boshqa rivojlangan mamlakatlarga tez tarqalib ketdi.

YEr yuzi mamlakatlari ikki qarama-qarshi lagerga bo'linib, sovuq urush avjiga chiqqan davrda sosializm tarafdorlari bu ijtimoiy hodisani mafkura nuqtai nazaridan tan olmay, ko'p yillar davomida uni ko'r-ko'rona inkor qilib kelishdi.

XX asr 90-yillarning boshida sosializm nurab, unga a'zo bo'lgan davlatlar birin-ketin mustaqil bo'lganidan keyin, har jihatdan taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarga, shu jumladan O'zbekiston uchun ham, keng yo'l ochildi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rnata boshladilar. Natijada yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligimiz fikrini chulg'ab oldi.

Keyingi yillarda Rossiya bilan O'zbekistonda pedagogik texnologiyani o'rganish yo'lida ancha ishlar qilindi. Pedagogik texnologiyaning hududga mos variantini yaratishga qo'l urgan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH)ning peshqadam pedagog olimlariga tasannolar aytish bilan birgalikda, ular yo'l qo'yayotgan ba'zi kamchiliklarni aytib, ularni tuzatib o'tishni lozim ko'rdik. Chunki bu kamchiliklar pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushunishga halal bermoqda. Buning uchun MDHda shu yo'nalishda faoliyat ko'rsatayotgan pedagog olimlarning «pedagogik texnologiya» tushunchasiga bergan ta'riflarini hamda ular tuzib chiqqan pedagogik texnologiya loyihalarini tahlil qilib chiqamiz.

Pedagogik texnologiyaning o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P. Bepalkoning fikricha, «PT – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvafaqqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir».

Rossiya olimlaridan V.M. Monaxov: «PT – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir», - degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi.

«PT – o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», - deydi V.M. Monaxov.

M.V. Klarin fikricha, PT – o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatgichlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir.

I.Ya. Larnerning fikriga ko'ra, PT – o'quvchilar harakatlarida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli anglab olinadigan aniqlanadigan maqsadni ifodalaydi.

V.P.Bespalkoning o'zbekistonlik shogirtlaridan Nurali Sayidahmedov va Abdurahmon Ochilovlarning fikricha, PT – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L. Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «PT – ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy muhandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir».

Bu ta'riflarni uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan solishtirib ko'rish uchun yapon pedagog olimi T. Sakomoto bergan ta'rifni keltiramiz. «PT, - deydi Sakomoto, - bu tizimli fikr yuritish usulini pedagogikaga singdirish, boshqacha qilib aytganda, pedagogika jarayonni muayyan bir tizimga keltirishdir».

Aynan tizimli yondashuv pedagogik texnologiyalarni o'qitishga boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi.

Pedagogik adabiyotda pedagogik texnologiyaga berilgan boshqa ta'riflar (V. Gushaev, V. Slastenin, B. Lixachev, I. Volkov, M. Choshanov, Ch.Yudit va boshqalar) ham keltiriladi, ammo ularning birontasi YuNYESKO ta'rifi drajasiga ko'tarila olmagan.

Birlashgan millatlar tashkilotining nufuzli idoralaridan biri bo'lgan YuNYESKOning ta'rifi bo'yicha, «PT – bu bilim berish va uni egallashda texnika va inson resurslarini o'zaro uzviy bog'lik holda ko'rib, butun ta'lim jarayonini loyihalashda va amalda qo'llashda majmuli yondashuv usulidan foydalanishdir».

Keltirilgan ta'riflarni ilmiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, uzoq xorijda berilgan ta'riflar bilan MDH mamlakatlari olimlarining bergan ta'riflari bir-biriga yaqin kelsa-da, farqi ham anchaligini ko'ramiz. Jumladan, Sakomoto va YuNYESKO ta'riflarida tizimli yondashuv tamoyiliga alohida urg'u berilgan. MDH olimlarining PT ga bergan ta'riflarida majmu yondashuv eslatib o'tilgani bilan, o'quv jarayonining loyihasini tuzishganda uni mutloq unutib, tizimli yondashuv tamoyilining qonun va qoidalariga sira ham amal qilishmaganini ko'ramiz.

Haqiqatda esa, ob'ektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilini yaxshi bilgan kishiga Sakomoto aytganidek, «PT – o'quv jarayonini muayyan bir majmuga keltirishdir», degan tushuncha kifoya qiladi. Bu tushuncha orqali PT ning boshqa hamma xususiyatlarini, ya'ni maqsadga yo'naltirilganligini, bir necha o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topganligini va boshqalarni anglab olsa bo'ladi. Chunki bu xususiyatlarning hammasi, tizimlar nazariyasiga binoan, tizim deb nom olgan narsa va hodisalarning ajralmas sifatlaridir.

Undan tashqari, Rossiya va O'zbekiston olimlari «ta'rif» deb aytganlarining hammasi ham «ta'rif» maqomiga ega bo'lolmaydi. Ta'rif tuzishning o'z qonun-qoidalari, ya'ni ta'rif tuzish nazariyasi bor. Ta'rif ushbu nazariyadan kelib chiqib

tuzilsa, u haqiqiy hisoblanadi. Biz tahlil qilgan ta'riflar esa, Sayidahmedov va Ochilovlarnikidan tashqari, pedagogik texnologiyaning u yoki bu xususiyatlarini ochib beruvchi yo uning tasnifini ifoda etuvchi tushunchalar yoki ularning omuxtalaridir.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so'zsiz, o'quv jarayoniga tizim sifatida yondashishdir. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqda bo'lib, bir butunlikni, ya'ni pedagogik jarayon majmuini tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuini muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi.

“Innovatsion pedagogik texnologiyalar” fanining maqsad va vazifalari.

- litsey va kollejlarning bo'lajak o'qituvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariy asoslari bilimlari bilan qurollantirish;
- yangi pedagogik darajada pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishlari uchun zarur mahoratlarga ega bo'lishlari;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar, g'oyalar maktablar, yo'nalishlar, keng turlarida yo'l topa bilish mahorati;
- pedagogik faoliyatni ijodiy va metodik to'g'ri bajarishga tayyorlikni shakllantirish;
- mustaqil ishlash, mustaqil bilim olish, o'zini tarbiyalash va o'zini mutaxassislik darajasini doimiy oshirib borishga intilishni faollashtirish.

“Innovatsion pedagogik texnologiyalar” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

“Innovatsion pedagogik texnologiyalar” fanini o'rganish pedagogik nazariyasi va tarixi, pedagogik mahorat, psixologiya, demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, falsafa, mantiq, etika, ma'naviyat, O'zbekiston tarixi, maktab gigienasi va fiziologiyasi, ona tili bilan o'zaro bog'liqlikda quriladi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar fan sifatida bir qancha asoslarga ega. Bulardan eng ahamiyatlilari ijtimoiy, falsafiy, metodologik, gigienik, mafkuraviy, huquqiy-me'yoriy, iqtisodiy, tarixiy, nazariy, amaliy va boshqa asoslar hisoblanadi. Ular bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar ning **ijtimoiy asosi** har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsning jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning **falsafiy asosi** uning maqsadlari hamda tashkiliy shakl va usullarini falsafiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Falsafiy oqimlar va yo'nalishlarning har biri ta'lim-tarbiya masalalariga o'ziga xos yondoshadi. Shu sababli «Pedagogik texnologiya» fanining falsafiy yo'nalishi uning to'g'ri yoki noto'g'riligini, jamiyatning ma'lum maqsadlariga muvofiq yoki zidligini ko'rsatadi. Bu pedagogik texnologiyalarga baho berishda asosiy ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiya fanining **metodologik asosi** uni amalga oshirishda qanday metodlarga asoslanishini belgilaydi, insonlarning olamini hamda o'zlarini bilishlari turli tarixiy davrlarda turlicha asoslarga ega bo'lgan va ular o'ziga

xos metodlarni keltirib chiqargan. Hozir olam va uning hususiyatlari haqida xolis ma'lumotlar olish haqqoniy bilimlar hosil qilishning ilmiy metodikasi pedagogik texnologiyalarning metodologik asosi hisoblanadi. Metodologik asosning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi texnologiyalar uchun zaruriy shartdir. Pedagogik texnologiyaning **didaktik asosi** uning ta'lim-tarbiya qoida va tamoyillariga muvofiqligini belgilaydi. Didaktik talablar ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy didaktikaning ilmiy hulosalaridan ijodiy foydalanish talab qilinadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning **pedagogik asosi**. Zamonaviy pedagogika fanining ilmiy hulosalaridan kelib chiqadi. Bunda pedagogik texnologiyaning umumiy tarkibiy tuzilmasi, mazmuni, shakli, usullari, vositalari, pedagogik jarayonning tashkil qilinishi, olib borilishi, uning diagnostikasi, monitoringi, o'quv-mavzu rejalar va shu kabilarning ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyalar hozirgi pedagogika faning rivojlanishida katta o'rin egallab bormoqda.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning **psixologik asosi** psixologiya fanining ilmiy hulosalari va tavsiyalari bilan belgilanadi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik texnologiya psixologiya qonunlarini to'liq hisobga olishi talab etiladi.

Ta'limning har bir bosqichida tegishli yosh psixologiyasi hususiyatlariga moslashtirilgan pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi. Har bir bosqichda tegishli darajadagi bilim va tarbiya beriladi. Bu masalalarni o'rganish bilan pedagogik psixologiya fani shug'ullanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning **fiziologik asosi** o'quvchilarning turli yoshdagi fiziologik hususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Bunda o'g'il va qiz bolalar fiziologiyasidagi farqlar alohida hisobga olinishi lozim. Pedagogik texnologiya jarayonida fiziologik talablarni hisobga olish sog'lom avlodni voyaga etkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning **gigiyenik asosi** ta'lim-tarbiya jarayonida salomatlikni saqlash talablariga rioya qilishdan iborat. Bunda turli zararli va ortiqcha ta'sirlarni bartaraf qilish, o'quv sharoiti: yoritilganlik, harorat, havoning tozaligi, o'quvchining va o'qituvchining ish o'rni, jihozlar, o'quv nagruzkalarining me'yorlari, didaktik vositalarning qulayligi sifati va shu kabilar tibbiyot, fiziologiya, ekologiya talablariga, insonparvarlik va xalqparvarlik g'oyalariga muvofiq bo'lgan ilmiy asoslarda belgilab boriladi.

Bu talab va me'yorlarga rioya qilish pedagogik texnologiyaning amalga tadbiiq etish imkoniyatini yaratadi. Bu masalalarni o'rganish bilan maktab gigiyeni fani shug'ullanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning **mafkuraviy asosi** uning milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasini tamoyillarini o'zida mujassam etishi va ularni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishidan iborat. Bunda barkamol insonni shakllantirishda mafkuraviy tarbiyaning fidoiy, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan boshqalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli, ijtimoiy faol insonni voyaga etkazishdan iborat

asosiy vazifalarni amalga oshirib borishi har bir pedagogik texnologiya uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning **huquqiy-me'yoriy asosi** ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirishga doir qonuniy va me'yoriy hujjatlar bilan belgilanadi. Bular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim-tarbiya sohasiga tegishli Farmonlari, Vazirlar qaror va buyruqlari, ular asosida tayyorlanib o'rnatilgan tartibga tasdiqlangan nizomlar, ustavlar va boshqa me'yoriy hujjatlar hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiya jarayoni ishtirokchilari ushbu huquqiy-me'yoriy asoslarni tegishli darajada bilishlari va amalga oshirib borishlari lozim.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning **iqtisodiy asosi** ta'lim menejmenti xulosalari va marketing tadqiqotlari natijalariga muvofiq belgilanadi. Pedagogik texnologiya ijtimoiy sohadagi faoliyat bo'lgani sababli uning iqtisodiy samarasi o'ziga xos tartiblarda aniqlanadi va ta'minot masalalari hal qilib boriladi. Pedagogik texnologiya iqtisodiy asosini mustahkam bo'lishi uni amaliyotda davom ettirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning **tarixiy asosi** ta'lim-tarbiya masalalarini turli tarixiy davrlarda amalga oshirishning shakl va usullari, mazmuni hamda turli pedagogik nazariyalar haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'lib ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kelib chiqishi uchun zamin hisoblanadi. Hozirgi pedagogik texnologiyalar turli davrlarda boshlangan ishlar, olib borilgan tahlillar, chiqarilgan hulosalar, mutafakkirlar bildirgan fikr-mulohazalarning rivojlantirilishi asosida paydo bo'lib, takomillashib bormoqda. Pedagogik texnologiyaning tarixiy asosi uning o'ziga xos ildizlarini tashkil qilishini hisobga olgan holda ularni bilish va chuqur o'rganish kelgusi rivojlanish yo'llarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida aytilgan va boshqa asoslar umumlashtirilsa, har bir pedagogik texnologiyaning o'z **nazariy va amaliy asoslari** kelib chiqadi. Ular alohida maqsad, vazifalari, mazmuni, shakl, usul, vositalariga muvofiq belgilanadi.

Test topshiriqlari

1. "Texnologiya" so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

- A) "Hunar fani";
- B) "Hunar san'ati";
- V) "Ta'lim fani";
- G) Javoblarning barchasi to'g'ri.

2. Pedagogik texnologiyalar ustuvor metodlar bo'yicha qanday tasniflanadi?

- A) Tabaqalashtirilgan, dunyoviy;
- B) Tarbiyalovchi, demokratik;
- V) O'yin, o'z - o'zini rivojlangiruvchi ta'lim;
- G) Javoblarning barchasi to'g'ri.

3. Metodika bilan pedagogik texnologiya tushunchalarini izohi qaysi javobda ko'rsatilgan?

A) Metodika - bu o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasi;

B) Pedagogik texnologiya – pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihalash tashkiliy - pedagogik muolajalar majmuasi;

V) Pedagogik texnologiya metodikaning tarkibiy qismiga kiradi;

G) Faqat A va B javoblar to'g'ri.

4. Pedagogik texnologiyalarni qanoatlantiradigan mezonlar nimalardan iborat?

A) Izchillik;

B) Boshqaruvga asoslanganlik;

V) Samaradorlik;

G) Javoblarning barchasi to'g'ri.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va vazifalar:

1. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar" tushunchasining mohiyatini ochib bering.

2. Innovatsion pedagogik texnologiyalar kursining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar fanining boshqa pedagogik turkum fanlar o'rtasidagi bog'liqligini qanday izohlaysiz?

4. Innovatsion pedagogik texnologiyalar fanining metodologik asosi nimalardan iborat?

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T-Ma'naviyat-2008 y.

2. I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi" T-1999 y.

3. Azizxodjayeva N. "Pedagogik texnologiya va mahorat"., Toshkent., TDPU., 2006 y.

4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov "Pedagogik texnologiya" ma'ruza matn 2009 y.

5. J.G` Yo`ldoshev "Pedagogik texnologiya asoslari" T., O`qituvchi, 2004.

2. Innovatsion pedagogika: predmeti, ob`ekti, vazifalari, tadbiq qilinadigan sohalari.

Reja:

1. Innovatsion pedagogika: predmeti, ob`ekti, vazifalari, tadbiq qilinadigan sohalari.

2. Innovatsion pedagogikaning vujudga kelishi va rivojlanishi.

3. Innovatsion pedagogikaning umumiy g'oyasi va uning tushunchalari.

4. Innovatsiya madaniy, iqtisod, sanoat sohasida.

5. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning aspekti va sathi

Tayanch tushunchalar

Innovatsion pedagogik texnologiya, metodologiya, metod, individual o'qitish, ta'lim-tarbiya.

Fan, texnika va texnologiyaning jadal rivojlanishi sharoitida o'qitish tizimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

a) individual va mustaqil ishlash, ilmiy-texnik axborot bilan ishlash malakalarini rivojlantirish;

b) original va nostandart qarorlar, ishchanlik - qobiliyatlarini rivojlantirish;

v) o'qitishni individuallashtirish (o'qishga turli qobiliyatga ega bo'lgani uchun);

g) bilim harakatchanligi, tanqidiy fikrlashganda moslashuvchanlik va ijod, ishlab chiqarishning zudlik bilan o'zgaruvchan sharoitiga mos ephillikni shakllantirish.

Bayon etilgan, bir tomondan innovatsion pedagogik texnologiyaning sodir bo'lish zaruriyatini tasdiqlasa, ikkinchi tomondan u ilmiy texnik taraqqiyot jadallashuvining mahsuloti ekanligini namoyish etadi. Shu sababli, ilmiy texnik taraqqiyot tezlashuviga 2...3 va undan ortiq fanlar ulanishlarida paydo bo'ladigan yangi fanlarning ta'sirini alohida ta'kidlash zarur bo'ladi. Pedagogik texnologiya ham ikkita fan – «pedagogika» va «texnologiya»lar ulanishida paydo bo'lga yangi fanlardan biridir. Pedagogik texnologiya ilmiy texnika taraqqiyoti jadallashuvi talabalari darajasida kadrlar tayyorlashuvi talablari darajasida kadrlar tayyorlashni ta'minlash imkoniyatini yaratdi. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari tegishli davr talablari asosida ham paydo bo'ladilar.

“Pedagogik texnologiya bilimlarni o'rganish yaxlit jarayonida ta'lim shakllarini optimallashtirish, texnikaviy, insoniy imkoniyatlar, ularning o'zaro xamkorligi amalga oshirish metodlar tizimidir”, -degan xulosaga kelinadi.

Uzoq vaqt xukm surgan, kommunistik g'oyaviylikka asoslangan byurokratik pedagogika ta'lim-tarbiya jarayoniga ilmiy yondoshish yo'llarini berkitgan edi. Ayniqsa rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish man etilgan edi.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashh Milliy dasturi mustaqillik sharofati bo'lsa, uni amalga oshirishning asosiy ilmiy metodik omillaridan biri yangi pedagogik texnologiyadir. Innovatsion pedagogik texnologiyaning predmeti - ta'lim-tarbiya jarayonini optimal loyixalash, modellashtirish tizimi, mexanizmi. Ya'ni pedagogik qonuniyatlarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini samarali, ommabop mexanizmidir. Pedagogik texnologiya ommabopligi ilmiy asoslanganligi bilan individual mahoratdan farq qiladi. Yangi pedagogik texnologiya fanini o'qitish maqsadi: - bo'lajak mutaxassisliklarni mavjud

pedagogik qonuniyatlar va aniq shart-sharoitga asosan ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash samarali metod va vositalarni tanlanga o'rgatishdan iborat.

Kursning vazifasi: - bo'lajak o'qituvchilarga pedagogik texnologiya, texnika rivojlangan mamlakatlar ilg'or pedagogik texnologiyasi, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning Milliy dasturini amalga oshirish tajribalari haqida nazariy bilim berish:

-pedagogik jarayonni loyixalash;

-ta'lim-tarbiya maqsadi, mazmuni va optimal metodlarini ko'nikma va malakasini shakllantirish;

-pedagogik diagnostika qobiliyatini o'stirishdan iborat.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy ta'lim sharoitida ta'lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta'minlash va talabalar tomonidan o'qishning ko'zlangan natijalariga erishish kafolatidan iboratdir.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning bosh vazifasi – ommaviy ta'lim sharoitida «oddiy» pedagoglarga o'qitishning yetarli samarasiga erishishni ta'minlovchi, o'quv jarayonini yaratish hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning predmeti – o'quv jarayonining o'zi hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning obyekti – o'quv jarayonining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Albatta, yangi pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya printsiplariga ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiya fani bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy-metodik tayyorlashda alohida o'rin tutadi. Pedagogika nazariyasi va tarixidan mukammal bilim va malakaga ega bo'lgandan keyin pedagogik texnologiya yoki yangi pedagogik texnologiya fani o'rganiladi. Demak, pedagogik texnologiya, pedagogik, pedagogik maxorat, psixologiya, matematik modellashtirish fanlari bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganiladi, pedagogik texnologiya fanining dasturi uch yo'nalishda:

Innovatsion pedagogik texnologiyaning nazariy asosi, tarix va amaliy ko'nikmalar shakllantirishga qaratilgan.

Innovatsion pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o'qitishning an'anaviy, o'qituvchi tomonidan bayon qilish, talabalarga tayyor bilimlarni berish usulidan voz kechib talabalarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undashdan iborat. Bunda o'qituvchi talabalar bilish faoliyatining boshqaruvchisi, maslahatchi, yakuniy natijaga yo'llovchi shaxs vazifasini bajaradi. Pedagogik texnologiyaning

samaradorligi yana shundan iboratki, unda turli o'qituvchilar muayyan fan (mutaxassislik bo'yicha) bir xil (deyarli bir xil) yakuniy natijaga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa barcha o'quv yurtlariga yagona Davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi yuklatilgan hozirgi davrda biz, o'zbekistonlik pedagoglar, uchun nihoyatda muhimdir.

Takrorlanuvchan pedagogik jarayonni yaratish esa, ishlab chiqarishdagiga nisbatan anchagina murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. O'quv (o'quv-tarbiyaviy) masalalarning turli tumanligi, ta'lim mazmuni va o'quv materialining turlicha ekanligi, bilimlarning o'zlashtirilishini talabalarning individual xususiyatlariga bogliqligi va boshqa omillar bunga to'sqinlik qiladi. O'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida yaratilgan barcha uslub, shakl va modellar faqat o'z egasi qo'lidagina yuqori samara beradi. Shunday bo'lsa ham o'quv jarayoniga yagona, samarali yondashishni yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilganligi natijasida AQSHning buyuk pedagoglari B.Blum, D.Kratvol, N.Gronlund, J.Kerrol, J.Blok, L.Andersen va boshqalarning izlanishlari natijasida takrorlanuvchan hamda yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik texnologiya yaratildi.

Uning mohiyati o'quv maqsadining aniqligi va unga erishish uchun talabaning qat'iy belgilangan ketma-ketlik bo'yicha har bir o'quv bo'lagini (modulini) o'zlashtirib, mustaqil faoliyat ko'rsatishidan iborat bo'ladi. Ilmiy tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, faqat uzluksiz ma'ruza o'qilganda, talabalar materialni atiga 5 foizini o'zlashtirishlar, bir-birini o'qitish va mustaqil o'rganishda esa bu ko'rsatkich 90 foizni tashkil qiladi ekan (Xalq ta'limi. 1999. №4 - 9 bet.).

SHunday qilib, pedagogik texnologiyaning predmeti o'quv jarayoni va professional tayyorgarlik tizimini loyihalashdan iborat. Tizimli yondashish o'qitish tizimining barcha asosiy tomonlarini - maqsadni aniqlash va o'quv jarayonini loyihalashdan tortib, to yangi o'qitish tizimining samaradorligini tekshirish, uni sinovdan o'tkazish va ommalashtirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. U o'z harakat tartiblarini takrorlanuvchanligi va ularni to'la o'quv jarayoniga tadbiq etish foyasi, oqibat natijada bu jarayonni «jonli o'qituvchiga» bog'iq bo'lmay qolishiga olib keladi. Haqiqatan ham, agar o'quv jarayoni to'la takrorlanuvchan, alohida ko'rinish (epizod)larga bo'linsa, o'qituvchining vazifasi oldindan tuzilgan (o'zi tuzgan bo'lishi shart emas) material bilan o'qishni tashkil etishda tashkilotchi va maslahatchi rolini ijro etishdan iborat bo'lib qoladi.

O'zbekistonlik pedagog olim L.V. Golish ta'lim texnologiyasini texnik texnologiyadan kelib chiqqan holda uch xil atamasini ifodalab bergan:

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Texnologiyalarning barcha tushunchalarini belgilash uchun, sinonim sifatida ta'lim texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabilarni ishlash mumkin.

O'qitish texnologiyasi – birinchidan, pedagogik texnologiyani jarayonli harakat aspektini anglatadi. Bu ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi

usul va vositalar (texnologik operatsiyalar)ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modulini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni; ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli – bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatini loyahasini bajarishning bayonidir (texnologik xarita).

Ta'lim texnologiyasi – pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu (fan predmeti) «texnika va inson resurslarini hamda ularning o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli».

O'zbekistonlik pedagog olim B.G'. Ziyomammedov pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif bergan: «PT – bu jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib, oldindan belgilangan kishi ijtimoiy sifatlarini samarali shakllantiruvchi va aniq maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayonini tizim sifatida ko'rib, uni tashkil qiluvchi qismlari bo'lgan o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida tahsil oluvchilarga ma'lum bir sharoitda muayyan ketma-ketlikda ko'rsatgan ta'sirini nazoratda tutuvchi va ta'lim natijasini baholab beruvchi texnologiyalashgan ta'limiy tadbirdir».

O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi mustaqillik sharofati bo'lsa, uni amalga oshirishning asosiy ilmiy metodik omillaridan biri yangi pedagogik texnologiyadir. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning predmeti-ta'lim-tarbiya jarayonini optimal loyixalash, modellashtirish tizimi, mexanizmi. Ya'ni pedagogik qonuniyatlarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini samarali, ommabop mexanizmlar.

Ijtimoiy texnologiyalar safiga kiruvchi «pedagogik texnologiya» tushunchasining mazmunini aniqlaymiz. Ko'pchilik pedagog olimlarning fikricha, ushbu keng ishlatiladigan so'zlar birikmasi inglizcha “an educational technology”, ya'ni «ta'lim texnologiyasi» ifodasini noaniq tarjima qilishdan kelib chiqqan.

Bizning fikrimizcha, ta'lim texnologiyasiga dastlab asos solgan AQSh olimlari pedagogik texnologiyani emas, balki aynan ta'lim texnologiyasini nazarda tutishgan. Buni tushunib etish uchun pedagog atamasining lug'aviy ma'nosini esga olaylik, bu atama yunoncha «payne» - bola, «agogeyin» - etaklamoq so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, bola etaklamoq ma'nosini anglatadi. Bunday «bola etaklash texnologiyasi» degan atama kelib chiqadi, bu tushuncha ta'lim texnologiyasi maqsadi va mantig'i zid bo'lib, ta'lim texnologiyasini maqsadi va mantig'iga zid bo'lib, ta'lim texnologiyasining haqiqiy ma'nosini bermaydi. Amerikalik olimlar va yapon olimi Sakomoto «bola etaklash» texnologiyasini emas, balki tahsil oluvchilar faolligini ta'minlaydigan, ta'lim jarayonining samaradorligini kafolatlaydigan texnologiyani yaratish g'oyasini ilgari surishgan. Shunga asoslangan holda biz mazkur atamani «ta'lim texnologiyasi» deb atalishi tarafdorimiz.

Insoniyat tsivilizatsiyasining quyi bosqichlarida shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat sodda, juda oddiy talablar asosida tashkil

etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan o'ta qat'iy hamda murakkab talablar qo'yilmoqda. Chunonchi murakkab texnika bilan ishlay oladigan, ishlab chiqarish jarayonining mohiyatini to'laqonli anglash imkoniyatiga ega, favqulotda ro'y beruvchi vaziyatlarda ham yuzaga kelgan muammolarni ijobiy hal etuvchi malakali mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj ta'lim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etishni taqozo etmoqda.

Shu bois ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib borayotgan pedagogika fanining vazifalari doirasi kegayib bormoqda. Tabiiy ravishda zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalana olish mazkur fan oldiga ham qo'yilgandir.

Ayni vaqtda Respublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko'lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor suratda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o'quvchiga etkazib berishni yo'lga qo'yish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammolarni ijobiy hal etigan xizmat qiladi.

Ta'lim tizimini texnologiyalashtirish g'oyasi o'tgan asrning boshlarida G'arbiy Evropa hamda AQShda ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun muayyan shart-sharoitni yaratish borasidagi ijtimoiy harakat yuzaga kelgan davrda ilk bora o'rta tashlandi. Mazkur g'oya 30- yillarda ta'lim jarayoniga "pedagogik texnika" (ta'lim texnikasi) tushunchasini olib kirilishi bilan asoslandi. Ushbu davrlarda yaratilgan maxsus adabiyotlarda "pedagogik (ta'lim) texnika(si)" tushunchasi "o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi" tarzida talqin etildi hamda o'quv jarayoniga o'quv va laboratoriya jihozlarining olib kirilishi, ulardan samarali, unumli foydalanish, material mazmunini ko'rsatmali qurollar yordamida tushuntirish kabi holatlar ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi etakchi omillardir deya boholanadi.

XX asrning 50-yillarida ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash "ta'lim texnologiyasi" yo'nalishini belgilab beruvchi omil deya e'tirof etiladi, asosiy e'tibor o'quvchilar auditoriyasini kengaytirish, texnik vositalardan foydalanish evaziga amalga oshirilishi, texnik vositalarni imkoniyatlarini yanada takomillashtirish, ularni axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, ta'lim olishni individuallashtirish kabi masalalarga qaratiladi. Bu borada olib borilgan tadqiqotlarning ob'ekti, tayanch nuqtasi sifatida texnik vositalar imkoniyatlari, ularni takomillashtirish jarayoni qabul qilindi, shuningdek, o'quv jarayoni "texnologiyalashtirish"ning tashkiliy jihatlarini o'rganishga alohida urg'u berildi.

60 yillarning boshlarida ta'limni dasturlash asosida ta'lim jarayonini tashkil etish "texnologiya" tushunchasining mohiyatini ochib beruvchi omil sifatida ko'rinishga boshlandi. Dasturiy ta'lim o'quvchilarga muayyan bilimlarni alohida qism

holida emas, balki izchil, yaxlit tarzda berishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonining yaxlit, maqbul dasturiga muvofiq tashkil etish taklifi ilk bora AQShda faoliyat yurita boshlagan "dasturiy ta'lim va o'rgatuvchi mashinalar bo'yicha birlashgan Qo'mita" tomonidan ilgari surilgan. Dasturiy ta'lim o'zida ta'lim maqsadlari, ularni o'zgartirish va baholashning mos ravishdagi mezonlari hamda ta'lim muhitining aniq tavsifini qamrab oladi. (1-jadval).

Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasining shakllanishi uzoq muddatli vaqt oralig'ida kechdi. Qator mamlakatlarda ta'lim texnologiyasi va uning muammolarini tadqiq etishga alohida etibor qaratiladi. Ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar tuzildi, maxsus jurnallar nashr etildi. (2. jadval):

«Ta'lim texnologiyasi» nazariyasining shakllanish bosqichlari.

№	BOSQICHLAR	YILLAR	TA'LIM TEXNOLOGIYASI--TT
1	1-BOSQICH	XX asning 30-yillari	TT- o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishda ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi (ped texnologiya)
2	2-BOSQICH	XX asning 50-yillari	TT—Ped tex.+jarayonida texnik vositalarni (TV qo'llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig'imini kengaytirish, axborotlarni uzatish xizmatini sifatli tashkil etish, o'quvchi faoliyatini individuallashtirish.
3	3-BOSQICH	XX asning 60- yillari	TT=ped tex. + TV + dasturiy ta'lim (DT). Dasturiy ta'lim-ta'lim maqsadlarini aniqlanishi, ta'lim jarayonini umumiy loyihalash, o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashxislash, ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash, maqsadining natijalanganligini o'rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish.
TT = ped.tex + TV + DT			

Ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar hamda ilmiy jurnallar

(2-jadval)


			Tash.top.		Nashr et.
--	--	--	-----------	--	-----------

№	Mamlakatl ar	Tashkilot nomi	yil	Jurnal nomi	y.
1	AQSh	Ta'lim kommunikatsiyasi Assotsiatsiyasi	1971	“Ta'lim texnologiyasi”	1961
2	Angliya	Pedagogik ta'lim Milliy Kengashi	1967	“Ta'lim texnologiyasi va dasturli ta'lim”	1964
				“Ta'lim texnologiyasi”	1970
3	Yaponiya	4 nomda ilmiy jamiyatlar faoliyat olib bormoqda	1965-70	“Ta'lim texnologiyasi”	1965
				“Ta'lim texnologiyasi sohasidagi tadqiqotlar”	1965
4	Italiya			“Ta'lim texnologiyasi”	1971

Yuqorida nomlari keltirilgan tashkilot hamda ilmiy jurnallar faoliyatining asosiy mazmuni ta'lim texnologiyasi muammolari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar g'oyalari va natijalarini umumlashtirib, tahlil etib borish, shuningdek, ushbu tadqiqotlar natijalarining tahlili asosida muayyan tavsiyalarni ishlab chiqish, eng samarali tadqiqotlarni ommalashtirishdan iboratdir. Ta'lim texnologiyasining mohiyati, uning yutuqlari bilan ta'lim sohasi xodimlarini xabardor etib borish, ularning bu boradagi malakalarini oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish hamda ta'lim texnologiyasi muammolarini tadqiq etuvchi tashkilotlar zimmasidadir.

Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim texnologiyasi borasida katta tajribalar to'plangan bo'lib, ayni vaqtda ulardan samarali foydalanib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham bu borada muayyan tajribalar to'planayotgan bo'lsada, biroq bir qator muammolar ham mavjud. (2- shakl): (ko'rsatiladi.)

Mazkur muammolarning ijobiy hal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonlarida muayyan samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barkamol shaxs va malakali



mutaxassisni tarbiyalashga imkon beradi. Respublika ta'lim muassasalari faoliyatiga pedagogik texnologiyalarni joriy etish muammolari. (2 - shakl)

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari-majmuaviy integral (butun, uzviy bog'liq) tizim bo'lib, unda ta'lim maqsadlari asosida belgilangan ko'nikma va malakalar o'quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o'zlashtirish, ulardan muayyan ma'naviy-ahloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat usullarining ma'lum tartibga solingan to'plami sifatida aks etadi. Bu o'rinda ta'lim maqsadlarining belgilanishi (kimga va nima uchun?), mazmunni tanlash va ishlab chiqish (nima?), ta'lim jarayonlarini tashkil qilish (qanday?), ta'lim metod va vositalarining belgilanishi (nimalar yordamida?), shuningdek, o'qituvchilarning malaka darajasi (kim?), erishilgan natijalarni baholash metodi (qanday yo'l bilan?) inobatga olish lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy tarzda qo'llanishi o'quv jarayonining mohiyati va texnologiyasini belgilab beradi.

Pedagogik vazifani belgilashda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir:

- ta'lim maqsadlarini hal etish asosida o'quv predmeti mazmunini aniqlash;
- o'quv predmeti axborot tuzilmasini ishlab chiqish va uni o'quv unsurlari tizimi ko'rinishida ifodalash;
- o'quvchilarning o'quv unsurlarini o'zlashtirish darajalarini avvaldan belgilash;

- o'quvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash (bu ko'rsatkich o'quv predmetining mazmuni asoslanadigan o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi);
- moddiy baza hamda ta'limning tashkiliy shakllariga qo'yilgan chegaralarni belgilash.

Pedagogik vazifalarning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilgan o'qituvchi faoliyati ta'limning metod, shakl va vositalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagog faoliyati o'ta

Ped.tex turlari	Maqsadi	Mohiyati	Mexanizmi
Muammoli ta'lim	O'quvchilarning bilish faolligi va ijodiy mustaqilligini oshirish	O'quvchilarga ketma-ket va maqsadli ravishda ularda bilimlarni o'zlashtirish borasidagi faollikni yuzaga keltirishga xizmat qiluvchi masalalarni berib borish	Tadqiqotchilik metodlari, bilish faoliyatiga yo'naltirilgan masalalarni echish
Mujassamlashtirilgan o'qitish	Shaxsni his qilish hususiyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan ta'lim jarayonini tuzilmasini yaratish	Mashg'ulotlarni bloklarga biriktirish hisobiga fanlarni chuqur o'zlashtirishga erishish	O'quvchilar ish qobiliyati dinamikasini hisobga oluvchi ta'lim metodlari
Modulli ta'lim	Ta'lim mazmunini shaxs individual ehtiyojlari va uning bazaviy tayyorligi darajasiga muvofiqlashtirish	O'quvchilarni induvidual o'quv dasturi asosida mustaqil ishlashlari	Muammoli yondashuvni amalga oshirishning induvidual maromi
Rivojlantiruvchi ta'lim	Shaxs va uning qobiliyatlarini rivojlantirish	O'quv jarayonini shaxs potentsial imkoniyatlari va ularni amalga oshirishga yo'naltirish	O'quvchilar faoliyatini turli sohalarga yo'naltirish
Differentsial ta'lim	O'quvchilarning layoqati, qiziqish va qobiliyatini aniqlash uchun qulay sharoitlarni yaratish	Turli o'zlashtirish darajalari bo'yicha majburiy me'yor (standart)dan kam bo'lmagan xajmdagi dastur materialini o'zlashtirish	Induvidual ta'lim metodi.
Faol (majmuaviy) o'qitish	O'quvchilar faolligini tashkillashtirish	Bo'lajak kasbiy faoliyatni predmetli va ijtimoiy mazmunini modellashtirish	Faol o'qitish metodlari
O'yin texnologiyalari	Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning shaxsiy faoliyat tavsifida bo'lishini ta'minlash	O'quv axborotlarini qayta ishlash va o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil bilish faoliyati	O'quvchilarni ijodiy faoliyatga jal etishning o'yin metodlari

asosiy omil bilan tavsiflanadi: boshqarish turi, axborot almashish jarayonining turi, axborotni uzatish vositalarining tiplari va bilish faoliyatini boshqarish.

O'qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish kontseptsiyasiga asoslanib, uni tashkil etishning quyidagi mantiqiy ketma-ketligini asoslash mumkin. Dastlab o'quv materiali mazmunining tavsifi, uni o'rganishdan ko'zlangan maqsad (o'zlashtirish darajalari), shuningdek, pedagogik vazifaning qo'yilish shartlari tahlil etiladi. So'ngra o'qitishning mos ravishdagi metodlari hamda o'quvchilarning bilish faoliyatining boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o'qitish vositalarining ro'yxati tuzildi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metod va ta'lim vositalarining yaxlit tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg'unlashtirildi, ya'ni muayyan texnologiya ishlab chiqildi.

Umumlashgan pedagogik texnologiyalar ma'lum psixo-pedagogik asoslarda qurilgan "sintetik nazariya" sifatida qaraladi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tadbqiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondoshuv, tanqidiy-ijodiy, fikrlash muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Ayni vaqtda ta'lim muassasalari amaliyotida quyidagi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda. (3- jadval)

Shunday qilib, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zida metodlar tizimi, maqsad, shakl, vositalari, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari hamda yakuniy natijalarga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiya fani bo'lajak o'qituvchilarni ilmiy metodik tayyorlashda alohida o'rin tutadi. Pedagogika nazariyasi va tarixidan mukammal bilim va malakaga ega bo'lgandan keyin pedagogik texnologiya yoki yangi pedagogik texnologiya fani o'rganiladi.

Demak, Innovatsion pedagogik texnologiyalar, pedagogik texnologiya, pedagogika, pedagogik maxorat, psixologiya, matematik modellashtirish fanlari bilan o'zaro bog'liklikda o'rganiladi. Pedagogik texnologiya fanining dasturi uch yunalishda:

Pedagogik texnologiyaning nazariy asosi, tarix va amaliy ko'nikmalar shakllantirishga qaratilgan.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsion pedagogik texnologiyaning uch aspekti to'g'risida fikr yuritiladi; ilmiy, tavsifiy, amaliy.

Ilmiy aspektda: o'qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi, pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

Tavsifiy aspektda: rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishishning maqsadi, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

Amaliy aspektda; pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi.

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathi belgilanadi: umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul).

Umumpedagogik texnologiya yaxlit ta'lim jarayonini ifoda etadi.

Xususiy metodik texnologiya bir fan doirasidagi o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat.

Lokal texnologiya o'quv tarbiya jarayonining maxsus bo'limlariga texnologiyani tadbiiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Test topshiriqlari

1. Qanday tasnifga ko'ra Pedagogik texnologiyalar: umumpedagogik, xususiy metodik, lokal turlariga bo'linadi?

- A) Qo'llanish darajasiga ko'ra;
- B) Falsafiy asosga ko'ra;
- V) Ilmiy kontseptsiyasiga ko'ra;
- G) Tarkibiy tuzilishiga ko'ra;

2. Pedagogik texnologiyani tuzilmasi aks etgan qatorni toping?

- A) Tavsifiy, ilmiy, amaliy;
- B) Kontseptual asos, ta'lim jarayoni mazmuni, texnologik jarayon;
- V) Umumpedagogik, predmetli, lokal;
- G) Muammoli o'qitish, dasturlashtirilgan, tabaqalashtirilgan o'qitish;
- D) Tashxis, natija, ijro etish.

3. 1961 yili AQShda qanday jurnal chop etila boshlandi?

- A) «Dasturli ta'lim» jurnali;
- B) «Ilg'or texnologiyalar» jurnali;
- V) «Yangi axborot texnologiyalari» jurnali;
- G) «Pedagogik texnologiya» jurnali,

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. Kadrlar tayyorlashni amalga oshirishning qaysi bosqichida pedagogik texnologiya to'la joriy etiladi?

2. Innovatsion pedagogik texnologiyaning predmeti nimada?

3. Innovatsion pedagogik texnologiyaning vazifalari nimada?

4. YUNESKO ilg'or pedagogik texnologiya haqida qachon, qanday xulosaga kelgan?

5. Innovatsion pedagogik texnologiyaning necha aspekti va sathi mavjud. Ta'lim texnologiyasi tushunchasiga ta'rif bering.

7. Ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiya, o'qitish texnologiyalari tushunchalarini farqlab bering.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T-Ma'naviyat-2008 y.
2. I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi" T-1999 y.
3. Azizxodjayeva N. "Pedagogik texnologiya va mahorat"., Toshkent., TDPU., 2006 y.
4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov "Pedagogik texnologiya" ma'ruza matn 2009 y.
5. J.G` Yo'ldoshev "Pedagogik texnologiya asoslari" T., O`qituvchi, 2004.

3 O'qituvchining innovatsion faoliyati

Reja:

1. Innovatsion faoliyat asoslari
2. Innovatsion faoliyatning nazariy omillari
3. O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirishning shart-sharoilari.
4. O'qituvchining innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.

Tayanch tushunchalari

Innovatsiya, innovatsion pedagogik texnologiya, metodologiya, metod, individual o'qitish, ta'lim-tarbiya, xususiy yangilik, o'qituvchining innovatsion faoliyati.

Innovatsiya (inglizcha innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir.

A.I. Prigojin **innovatsiya** deganda *muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg'un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o'zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.*

Tadqiqotchilar (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G. Kruglikov, A.S. Axiezer, N.P. Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o'rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: *yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o'zaro ta'siri mikrosathi.*

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g'oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o'zaro ta'siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o'rnini ikkinchisi egallashdir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi kontseptsiyasini farqlaydilar. Bu kontseptsiya yangilik kiritishga nisbatan o'lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. *Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik kontseptsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.*

2. *Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.*

3. *Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.*

4. *Yangilikni yoyish, uni keng tadbiiq etish bosqichi.*

5. *Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.*

Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A. Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo'naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli kontsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V.Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga yangilik kiritishni oddiy ishlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o'zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko'lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Xususiy yangilik V.A. Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko'zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma'lum unsurlarning yig'indisi **shartli yangilik** hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret ob'ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Sub'ektiv yangilik ma'lum ob'ekt uchun ob'ektning o'zi yangi bo'lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.I. Zagvyazinskiy **yangi** tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi **yangi** bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

R.N.Yusufbekova **pedagogik yangilikka** o'qitish va tarbiya berishda avval ma'lum bo'lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o'zgarib turishi mumkin bo'lgan mazmuni sifatida qaraydi.

Pedagogik innovatsiyada R.N.Yusufbekova *innovatsion jarayon tuzilmasining uch blokini farqlaydi:*

Birinchi blok - pedagogikadagi **yangini** ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning me'yorlari, yangining uni o'zlashtirish va foydalanishga tayyorligi, an'ana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok - yangini idrok qilish, o'zlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni o'zlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, ya'ni yangini tadbiiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir.

M.M.Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi e'tiborini o'ziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- *faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yig'indisi;*
- *sub'ektiv tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;*
- *sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat sub'ektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;*
- *mazmun tuzilmasi - o'quv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo bo'lishi, ishlab chiqilishi va o'zlashtirilishi;*
- *bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi – yangilikning paydo bo'lishi - ildam o'sish - etuklik – o'zlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) – boyish (to'yinish) – qoloqlik - inqiroz – irradiatsiya (aldanish) – zamonaviylashtirish;*
- *boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining o'zaro aloqasi: rejalashtirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;*
- *tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan ko'ra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tadbiq etuvchi.*

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayon kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- *pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;*
- *nihoyat amalga oshish qonuni;*
- *qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni;*
- *pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni;*

Ayovsiz bemaromlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo'linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va qimmatini keng yoyadi.

Nihoyat amalga oshish qonuni yangilikning hayotiyligi bo'lib, u erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

Qoliplashtirish (stereotiplashtirish) qonuni shundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipga tushirish va amaliy harakatga o'tish tendentsiyasiga ega bo'ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklarning amalga oshish yo'liga to'siq bo'lishga majbur bo'ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

Innovatsiyaning birinchi tipi stixiyali o'tadi, ya'ni innovatsion jarayonda unga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart-sharoitlari tizimi, usullari va yo'llariga ongli munosabat bo'lmaydi.

Innovatsiyaning ikkinchi tipi ongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A.Slastenin, M.M.Levina, M.Ya.Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- *madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;*
- *shaxsiy faoliyat jihatidan (ta'limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;*
- *ko'p sub'ektki (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;*
- *individual - ijodiy (o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari) yondashuv.*

Oliy maktabda **innovatsion faoliyatning sub'ekti** o'qituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo'ladi.

S.M.Godninning ishlarida *talabaning shaxsiy xislatlari pedagogik jarayonning sub'ekti sifatida yoritiladi*. Unga quyidagilarni kiritadi: o'qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o'quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko'rsatmalarini anglay bilish; intellektual mehnatning yangi tadbirlarini egallash; maqsadga muvofiq kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a'lo darajada eng bilish, o'sish va mustahkam o'rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o'zining sotsial roli, funktsiyasini bajarishida faol munosabatda bo'lish va hokazo.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari *shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini- o'zi safarbar qila olishi hisoblanadi*. Uning eng muhim yo'nalishlaridan biri **talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish**.

Bunday yo'nalish talabalarning o'quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o'z ichiga oladi.

Tayanch yo'nalishlar - ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning o'zaro aloqalarida yangi tamoyillarga o'tish.

Shunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yo'nalishi **gumanistik aksiologiya** ekan degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning o'zini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamini anglatadi.

Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi O'qituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin o'qituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, o'tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma'nolarni bildiradi.

B.G. Ananov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo'g'rilgan inson hayotining eng ijodiy davrlari, etuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular etuk insonlarning professionalizmi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga etishdagi balandliklardan o'ta olish masalalari bilan shug'ullanganlar.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr ko'rishiga olib keladigan sub'ektiv va ob'ektiv omillarini asoslab berdi. Ob'ektiv omillarga olingan ta'limning sifatini, sub'ektiv omillari esa insonning iste'dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas'uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

Yuksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

- *iste'dod nishonalari;*
- *uquvlilik;*
- *qobiliyat;*
- *iste'dod;*
- *oila tarbiyasi sharoiti;*
- *o'quv yurti;*
- *o'z xatti-harakati.*

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- *ijodiy individuallik;*
- *o'zining o'sish va takomillashish jarayoni;*
- *o'z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.*

O'qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- *intellektual - ijodiy tashabbus;*
- *bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;*
- *ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;*
- *axborotlarga tashnalik, muammolardagi g'ayriodatiylikka va yangilikka bo'lgan his-tuyg'u, professionalizm, bilishga bo'lgan chanqoqlik (N.V.Vishnekova).*

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- *ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;*
- *pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;*
- *samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;*
- *shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z rivojlanishini ta'minlash;*

Shu tariqa o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi (V.A.Slastenin).

Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv o'qituvchining kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvda uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- *fikrining ravonligi;*
- *fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;*
- *o'ziga xoslik (originallik);*
- *qiziquvchanlik;*
- *farazlar yaratish qobiliyati;*
- *xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).*

O'qituvchi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiiyanomalar tuzukkina ko'chiriladi; **ikkinchi bosqichda** mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; **uchinchi bosqichda** g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; **to'rtinchi bosqichda** o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror kontseptsiyasi va metodikasi yaratiladi.

O'qituvchining innovatsiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiyaadir.

Refleksiya o'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olish deb qaraladi (o'z fikri va harakatlariga tashqaridan nazar. V.A.Slastenin).

Pedagogikaga oid adabiyotlarda reflektiv jarayonlarni izohlashning ikki an'anasi mavjudligi aytiladi:

- *ob'ektlar mohiyatini izohlashga va ularni konstruksiyalashga olib keladigan ongning reflektiv tahlili;*
- *shaxslararo muloqot ma'nosini tushunish refleksiyaasi;*

Bu bilan bog'liq ravishda pedagog olimlar quyidagi reflektiv jarayonlarni farqlaydilar:

- *o'z-o'zini va boshqalarni tushunish;*
- *o'z-o'ziga va boshqalarga baho berish;*
- *o'z-o'zini va boshqalarni izohli tahlil qilish.*

Refleksiya (lotincha Reflxio- ortga qaytish) sub'ektning o'z (ichki) psixik tuyg'u va holatlarini bilish jarayoni sifatida qaraladi.

Falsafa va pedagogikaga oid adabiyotlarda refleksiya shaxsning o'z ongidagi o'zgarishlarni fikrlash jarayoni deb yoziladi.

Psixologik lug'atda shunday izoh beriladi: "Refleksiya - faqat sub'ektning o'z-o'zini bilishi va tushunishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti *muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir.*

Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o'zgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o'qituvchining *madaniyat va muloqotga shayligi.*

O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini echishni aniqlashga qaratilgandir.

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot namunasining o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi darkor. Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyati bu o'qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funktsiyalar bilan izohlanadi:

- *kasbiy faoliyatning ongli tahlili;*
- *me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;*
- *kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;*
- *dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish;*
- *o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish.*

Demak, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta'lim taraqqiyoti sharoitida o'qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo'lgan zaruriyat quyidagilar bilan o'lchanadi:

- *ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta'lim tizimi, metodologiya va o'quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi. Bunday sharoitda o'qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o'zlashtirish va foydalanishdan iborat bo'ladi;*
- *ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish doimo o'qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;*
- *pedagogik yangilikni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining munosabati xarakteri o'zgarishi.*

O'qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga - yangilik, maqbullik (optimalnost), yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi

Yangilik pedagogik yangilik me'yorlari sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, sub'ektiv darajalarini farqlaydilar.

Maqbullik me'yorlari o'qituvchi va talabning natijaga erishish uchun sarflangan kuch va vositalarini bildiradi.

Natijalilik o'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natijalarni bildiradi.

Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalar mulki bo'lib qolishi lozim. Pedagogika yangilikni dastlab ayrim o'qituvchilarning faoliyatiga olib kiriladi. Keyingi bosqichda - sinalgandan va ob'ektiv baho olgandan so'ng pedagogik yangilik ommaviy tatbiq etishga tavsiya etiladi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontseptsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsion faoliyatning samaradorligi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi.

V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli:

- **shaxsning ijodiy-motivatsion yo'nalganligi.** Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga intilish va boshqalar;

- **kreativlik.** Bu – hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;

- **kasbiy faoliyatni baholash.** Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik kontseptsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;

- **o'qituvchining individual qobiliyati.** Bu - ijodiy faoliyat sur'ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat'iyatlik, o'ziga ishonch; mas'uliyatlilik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar.

Innovatsion faoliyat tadqiqotlari o'qituvchining innovatsion faoliyatga hozirligi me'yorlarini belgilashga imkon berdi (V.A. Slastenin):

- *innovatsion faoliyatga bo'lgan zaruriyatni anglash;*
- *ijodiy faoliyatga jalb qilinishiga shaylik;*
- *shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtirish;*
- *ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni engishga shaylik;*
- *innovatsion faoliyatni ijro etish uchun texnologik shaylik darajasi;*
- *innovatsion faoliyatning kasbiy mustaqillikka ta'siri;*
- *kasbiy refleksiyaga bo'lgan qobiliyat.*

Oliy maktabdagi innovatsiya jarayonlari xarakteri kiritilgan yangiliklar xususiyatlari, o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari, yangilik kiritish tashabbuskorlari va ishtirokchilarining innovatsion faoliyatlari xususiyatlari bilan belgilanadi.

Innovatsion faoliyatda eng muhim masalalardan biri-o'qituvchi shaxsidir.

O'qituvchi-novator sermahsul ijodiy shaxs bo'lishi, kreativlikni, keng qamrovli qiziqish va mashg'ullikni, ichki dunyosi boy, pedagogik yangiliklarga e'ch bo'lishi lozim.

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim:

- *yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish;*
- *yangicha harakat qila olishga o'rgatish.*

Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funktsiyalari, rivojlanish qonuniyatlari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari, boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o'rganish oliy maktab o'quv jarayonini zamonaviy pedagogika hamda psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi.

Test topshiriklari

1. “Innovatsiya” iborasiga qaysi qatorda to’g’ri ta’rif berilgan?

- A) Yangilik kiritish;
- B) Tadqiqot qilish;
- V) Tashkiliy jarayon;
- G) Ishlab chiqarish.

2. An’anaviy ta’limda o’quvchining bosh vazifasi nimalardan iborat?

- A) Axborotni qabul qilish, yordam, axborotni qayta ishlamagan holda javob berish;
- B) O’quv topshiriqlarini va muammoli hal etishda ishtirok etish, doimo o’z bilimini boyitish kerakli bahoni kutish;
- V) O’z bilimini mustahkamlash maqsadida sidqidildan mehnat qilish, o’z iqtidorini namoyon etish, ijodiy izlanish;
- G) O’zini va boshqalarini hurmat qilish, hamkorlikda ishlash, kitobxonlik bilan shug’ullanish.

3. Pedagogika fanida yana qanday yangilik turlariga qiziqish uyg’onganini aniqlang?

- A) Xususiy yangilik;
- B) Shartli, maxalliy yangilik;
- V) Sub’ektiv yangilik;
- G) Hamma javoblar to’g’ri.

O’z-o’zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

1. Ta’limda "innovatsion jarayonlar" termini nimani anglatadi?
2. Innovatsion faoliyatdagi akmeologik yondashuvga izoh bering.
3. Innovatsion faoliyatdagi "kreativlik" deganda siz nimani tushunasiz?
4. Innovatsion faoliyat tarkibidagi "refleksiya"ni tushuntirib bering.
5. Innovatsion faoliyatni shakllantirish shartlarini izohlab bering.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T-Ma’naviyat-2008 y.
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T-1999 y.
3. Azizxodjayeva N. “Pedagogik texnologiya va mahorat”. Toshkent., TDPU., 2006 y.
4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov “Pedagogik texnologiya” ma’ruza matn 2009 y.
5. J.G` Yo`ldoshev “Pedagogik texnologiya asoslari” T., O`qituvchi, 2004.

4-mavzu.O'qituvchining faoliyati va pedagogik mahorati.

REJA:

1. Jamiyat rivojlanishida ta'limning o'rnini. Pedagogik faoliyat xususiyatlari.
2. Pedagogik mahorat tarkibiy qismlari.
3. Zamonaviy ilg'or innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va o'quv jarayoniga tatbiq etish
4. Pedagogik ta'sir yo'llari, pedagogik mahorat ko'rsatkichlari.
5. Maktab hayotini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va liberallashtirish.

Tayanch tushunchalar

Pedagogik ta'sir yo'llari, pedagogik texnika, nutq ko'nikmalari, mimik va pantomimik ifodalilik, o'z hissiyotlarini boshqara olish, rejissyorlik va aktyorlik ko'nikmalari, muloqot elementlari, pedagogik nizo, pedagogik takt, boshqaruv uslublari, pedagogik muloqot uslublari, pedagogik mahorat darajasi, pedagogik faoliyat, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyatlar, pedagogik texnologiya.

MS: Sizningcha, davlatning rivojlanishini belgilovchi eng asosiy omil nima?

Davlatlararo qattiq raqobat mavjud bo'lgan davrda har bir mamlakat barcha sohada raqobatbardosh bo'lishga harakat qiladi. Davlatning iqtisodiy, texnik rivojlanishiga qator omillar ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Bular ichida: mamlakatda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar, uning geografik joylashuvi, ta'lim tizimi, tarixi va boshqa ko'p omillardir. Lekin mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalana oladigan, davlatning tarixiy rivojlanishini belgilab beradigan (tarixni o'z qo'li bilan yaratadigan), davlat iqtisodiyotini boshqaradigan, yangidan-yangi texnikani yarata oladigan, mavjud ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalana oladigan, ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya oladigan omil bu albatta, inson omilidir. Shunday ekan, aynan inson omili, boshqacha qilib aytganda, inson resursi mamlakat rivojlanishida eng muhim rol o'ynaydi. Demak, O'zbekistonning kelajakda buyuk davlat bo'lishida ham inson omilining o'rnini beqiyosdir.

MS: Xo'sh, kelajakda buyuk davlat barpo etishga qodir insonlarni tayyorlab berish birinchi o'rinda kimning qo'lida?

Bunday murakkab va muhim jarayonni amalga oshirishda turli sohalar mutaxassislari ishtirok etadilar, lekin bunda ustoz-murabbiylar o'rnini beqiyosdir. Aynan ta'lim sohasida iqtisodiyotimizning barcha sohalarini uchun mutaxassislar tayyorlanadi.

MS: Vaqt o'tishi bilan, zamon o'zgarishi bilan mutaxassislarga qo'yiladigan talablar o'zgarib boradimi, yoki ma'lum o'zgarimas talablar ro'yhati mavjudmi?

Ishlab chiqarish texnik taraqqiyot bilan bog'liq bo'lganligi uchun, odamzot bor ekanki, u hech qachon to'xtab qolmaydi. Rivojlanayotgan ishlab chiqarish esa mutaxassislar oldiga yangidan-yangi talablar qo'yaveradi. To'g'ri, hamma zamonda ham mutaxassislarga qo'yiladigan umumiy, o'zgarimas talablar mavjud, lekin ular ko'proq inson ma'naviyati bilan bog'liq talablardir: ishchanlik, halollik, hamkorlikda ishlay olish va boshqalar. Talabalarda bu fazilatlarini shakllantirishga

ham pedagog alohida e'tibor qaratishi lozim, lekin kasbiy fazilatlariga to'xtaladigan bo'lsak, ular davr o'tishi bilan katta o'zgarishlarga uchraydi.

«...Pedagog bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak.» I.A.Karimov

Bugungi kunda zamonaviy mutaxassisga qo'yilayotgan talablar:

- ▶ mustaqil, tahliliy fikrlay oladigan;
- ▶ zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali uchragan muammolarni echa oladigan;
- ▶ olayotgan bilimlari unga qaerda kerak bo'lishini aniq tasavvur qila oladigan;
- ▶ yangilik yarata oladigan, muammolarni hal etish yo'llarini o'ylab topa oladigan, muloqotga kirishuvchan, o'zining aqliy darajasi, ahloqi, madaniyati ustida ish olib bora oladigan bo'lishi kerak.
- ▶ hamkorlikda ishlash, o'zaro fikrlar bilan almashishni bilishi;
- ▶ yangi g'oyalarni qabul qila olishi;
- ▶ tahliliy fikrlash va yangi sharoitlarga moslasha olishi;
- ▶ o'z harakatlari uchun mas'uliyatni his qila olishi;
- ▶ boshqarishni bilishi zarur.

MS: Mutaxassisga qo'yilayotgan talablar va ta'lim o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

Zamonaviy ishlab chiqarish mutaxassislar oldiga qo'yayotgan talablarning o'zgarishi dunyoning barcha mamlakatlari ta'lim tizimlarida XX asr o'rtalaridan boshlab katta islohot ishlari boshlanib ketishiga sabab bo'ldi. Bizning O'zbekistonda ham ta'lim sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb belgilangandi va ta'lim tizimida ulkan islohotlar boshlab yuborildi. Ushbu yo'nalishdagi ishlarning izchil amalga oshirilishini esa "Ta'lim haqida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ta'minlab bermoqda.

Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz va rejalarimizning samarali taqdiri, avvalambor, davr talablariga javob beradigan yukori malakali, ongli, tafakkurga ega bo'lgan mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan bog'liq...

I.A.Karimov

MS: Xo'sh, bunday mutaxassislarni tayyorlashga har qanday pedagog ham qodirmi?

Faqatgina pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchigina talab darajasidagi mutaxassisni tayyorlay oladi. Shunday ekan, pedagogik mahorat asoslarini bo'lajak o'qituvchilar oliy o'quv yurtidan boshlab egallashlari zarur.

FS: Sizningcha, pedagogik mahorat nima? "Faoliyat" va "mahorat" tushunchalarini o'zaro bog'lab bering.

Pedagogik faoliyat bu mazmunini o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish tashkil qilgan faoliyatdir.

Shuni yodda tutish kerakki, pedagogik faoliyat bu bir tomonlama emas, balki ikkitomonlama (hamkorlikdagi) faoliyatdir. Unda ikkita faol tomon ishtirok etadi: o'qituvchi – o'quvchi (talaba). Maqsad – o'quvchi, talaba shaxsi, uning rivojlanishidir.

Mohir pedagog deb ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil eta oladigan, buning uchun talaba psixologiyasini yaxshi bilgan, o'zida pedagog uchun zarur bo'lgan kasbiy fazilatlarni mujassam etgan, ta'lim jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar qonuniyatlari asosida samarali tashkil eta oladigan va olib boradigan pedagogga ayta olamiz (shu sababli pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanlari bir o'quv faniga birlashtirilgandir).

Mahorat faoliyatda namoyon bo'ladi. Pedagogika fanida “pedagogik mahorat” tushunchasining turli ta'riflari mavjud:

Pedagogik mahorat pedagogik faoliyatning yuqori darajasi bo'lib, u pedagogning belgilangan vaqt ichida optimal natijalarga erisha olishida namoyon bo'ladi. (Kuzmina N.V., Kuxarev N.V.)

“O'qituvchining ilmiy bilimlari, ko'nikmalari, metodik san'ati va shaxsiy fazilatlari sintezi” Sherbakov A.I.)

“ yuqori va uzluksiz sayqallanib boradigan tarbiya va o'qitish san'ati”
(Pedagogik ensiklopediya)

Pedagogik mahorat mohiyati o'qituvchining ushbu jarayonni ta'minlab berayotgan shaxsiy fazilatlaridadir.

Kasbiy faoliyatning yuqori darajada tashkillanishini ta'minlovchi shaxs xususiyatlari kompleksi (o'qituvchi faoliyatining gumanistik yo'naltirilgani, kasbiy bilimlari, kasbiy qobiliyatlari va pedagogik texnikasi).

(I.A.Zyazun.)

MS: Sizning fikringizcha, yuqorida “pedagogik mahorat” atamasiga berilgan ta'riflarning qaysi biri aniqroq?

Pedagogik mahorat asoslariga quyidagilar kiradi:

- Umumiy madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatgichi;

- Pedagogika, umumiy va pedagogik psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlar bilan qurollanganlik, ularda o'qitish va tarbiyalash ishlari tajribasida erkin va ustalik bilan foydalana bilish;

- O'quv-tarbiya ishlari metodikasini mukammal egallaganlik;
- O'qitayotgan faniga doir keng va chuqur bilim sohibi bo'lishi

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari:

1. Kasbiy pedagogik bilimlar;
2. Pedagogning gumanistik yo'naliganligi;
3. Kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi.
4. Pedagogik texnika (ko'nikma-iqtidor)
5. Pedagog shaxsi.

Pedagogik mahorat fanining vazifalari: tarbiyaning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiyot ettirishda tarbiyaning rolini ochib berish, tarbiyaning maqsadi, mazmuni, usullari, uni tashkil etishdagi shakllari o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatish. Shuningdek, pedagogik mahorat fani o'z taraqqiyoti davomida ta'lim-tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari yo'llarini yoritib beradi, tarbiyaviy ishlarning shakllarini ko'rsatib beradi.

O'qituvchining kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs fazilatlarini:

1. Dunyoqarashi, e'tiqod va ideallari, madaniyatligi (o'qituvchi o'z talabalarida shakllantirishi lozim bo'lgan axloqiy kategoriyalar).

2. Pedagogik faoliyatga ijobiy munosabat, shaxsning pedagogik yo'naliganligi – o'qituvchining o'zini pedagogik faoliyatga bag'ishlashga bo'lgan intilishi.

3. Kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma, malakalar (ta'lim-tarbiyani olib borish uchun zaruriy usul, vositalarni bilishi).

4. Pedagogik qobiliyatlari - ta'lim-tarbiyaviy maqsadlari va talabalar xususiyatlarini inobatga olgan holda zaruriy usul, vositalarni samarali qo'llay olishi.

Pedagogik qobiliyatlarni shartli ravishda 3 ta guruhga bo'lish mumkin: **shaxsiy, didaktik va tashkiliy-kommunikativ** qobiliyatlar.

Shaxsiy qobiliyatlar:

- ta'lim oluvchilarga ijobiy yo'naliganlik – ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda faoliyat olib borishga, muloqot qilishga intilish, ularga nisbatan do'stona munosabat, xayrixohlik.

- vazminlik, o'z hissiyotlarini nazorat qila olishi – har qanday vaziyatda o'zini yo'qotib qo'ymaslik. Lekin vaziyat talab qilganda o'qituvchi zaruriy tarzda o'z hissiyotlarini namoyish qiladi (quvonch, qayg'u, g'azab). Lekin vazminlik befarqlikka aylanib ketmasligi kerak.

- o'z psixik holati, kayfiyatini boshqara olish – o'qituvchi hayotida, faoliyatida har qanday noxush holat ro'y bergan bo'lsa ham o'zini tetik tutishi kerak.

Didaktik qobiliyatlarga:

- tushuntirish qobiliyati – o'rganilayotgan materialni talabalar uchun tushunarli qilib yetkazish, buning uchun o'qituvchi talabalar uchun yangi bo'lgan materialni “ularning ko'zlari bilan ko'ra bilishi kerak”.

- akademik qobiliyati – o'z fanini, sohasini chuqur bilishi, dunyoqarashining kengligi.

- nutq qobiliyati – o'z fikrlari, his-tuyg'ularini tushunarli qilib ifoda etishi, muloqotning noverbal vositalari: mimika va pantomimikalardan o'rinli foydalana olishi. Bunda suhbat predmetini bilish, etkazayotgan ma'lumotlariga nisbatan ishonch, nutqni “og'irlashtiruvchi” tuzilmalardan foydalanmaslik, qo'llanilayotgan atama va tushunchalarga izoh berish, nutq tezligi va ovoz balandligi nazarda tutiladi.

Tashkiliy-kommunikativ qobiliyatlarga:

- tashkilotchilik qobiliyatlari – 1) talabalar jamoasini tashkillay olish va 2) o'z faoliyatini tashkillay olishi. Rejalashtirish, nazorat qilish.

- kommunikativ qobiliyatlari – talabalar yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda muloqotni to'g'ri tashkillash.

- pedagogik kuzatuvchanlik – talabaning ko'rinishidan undagi ichki kechinmalar, kayfiyatini bilib olish, sezgirlik.

- pedagogik takt – talabaga pedagogik ta'sir ko'rsatishda aniq vaziyatdan, talaba shaxsi xususiyatlaridan kelib chiqish va uning nafsoniyatiga tegmaslik.

- suggestiv qobiliyat – talabaga emosional-irodaviy ta'sir o'tkazish, talab qo'yish va talabning bajarilishini qat'iy nazorat qilish (bir tomondan qo'rqitishsiz, qistovsiz – boshqa tomondan bo'shlik qilmasdan).

- Pedagogik faraz (hayol) – o'z harakatlari natijasini, talaba shaxsida bo'lib o'tadigan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish.

- diqqatni to'g'ri taqsimlay olish – bir paytning o'zida bir necha faoliyatni olib borish: materialni bayon qilish, o'z fikrlarini kuzatib borish, berilayotgan savollarga javob berish, talabalar jamoasi hulqini nazorat qilib turish (Kruteskiy V.A. Psixologiya. Uchebnik dlya slushateley pedagogichesix uchili. M.,1987) - qobiliyatlari kiradi.

Pedagogik texnologiya pedagoglarning talabalarga ta'sir o'tkazishda zarur bo'lgan kasbiy qobiliyatlar tizimini aniqlaydi va pedagogik jarayonga texnologik yondashuvni amalga oshirishda ko'maklashadi.

Pedagogik jarayonni samarali tashkilash uchun mos pedagogik texnologiyani tanlash va pedagogik jarayonni boshqarish uchun o'qituvchidan barcha yuqorida ko'rsatib o'tilgan qobiliyatlar talab qilinadi. Shunday ekan, PYEDAGOGIK TYEXNOLOGIYA VA PYEDAGOGIK MAHORAT TUSHUNCHALARI ChAMBARChAS BOG'LIQDIR va har qanday pedagogik texnologiyani qo'llash jarayonida pedagog qanday yo'l tutishi, ma'lum holatda unda qaysi qobiliyatlar mavjud bo'lishi kerakligini tahlil qila olamiz.

MS: Sizningcha, maktab o'qituvchisi va oliy o'quv yurti o'qituvchisi pedagogik faoliyatlarida farq bormi?

Oliy o'quv yurti o'qituvchisi faoliyatining asosiy mazmuni bir necha turli vazifalardan iborat: ta'limiy, tarbiyaviy, tashkillovchi va ilmiy izlanish.

O'qituvchining asosiy funksiyasi o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish va rivojlantirish jarayonini **boshqarishdan** iborat.

Pedagogik funksiyalarni amalga oshirishda o'qituvchi quyidagi masalalarni yechadi:

1. Loyihalashtirish
2. Tuzish
3. Tashkillash
4. Kommunikasiya
5. Gnostika
6. Kompyuterni qo'llash

MS: Mahoratli pedagog bo'lish uchun insonda albatta ma'lum tug'ma iste'dod, moyilliklar bo'lishi shartmi?

Aniq irsiy xususiyat sohibi bo'lgan talantli insongina haqiqiy usta-o'qituvchi bo'lishi mumkin, o'qituvchi bo'lib tug'ilmoq zarur, degan fikrlarni ko'p uchratish mumkin. Lekin bu fikr hali aniq isbotini topmaganligi uchun bu masala hamon ochiq qolmoqda. Quyida buyuk pedagog A.S. Makarenko iste'dodli insonlarning tasodifiy taqsimotiga ishonish, faqat iste'dod hisobigangina tarbiyani amalga oshirish mumkin emasligini, hamma tarbiyaviy masalalarni mutaxassislik va bilishga asoslangan mahorat hal qilishi haqida yozgan.

Yuqoridagi ma'ruzamizda pedagogik mahorat komponentlari qatorida "pedagogik texnika" tushunchasini ham sanab o'tgan edik. Pedagog faoliyati samaradorligini belgilab beruvchi eng muhim komponent deb aynan pedagogik texnikani atashimiz mumkin va ushbu masalada alohida to'xtalib o'tamiz.

Avvalambor, pedagogik texnika nima o'zi, uning mohiyati nimada, degan savollarga javob bermoq zarur.

Pedagogikada «pedagogik texnika» tushunchasining bir necha talqinlari mavjud. Ularning barchasi bu murakkab fenomenning turli qirralarini ochib beradi. Masalan:

► **Pedagogik texnika** – o'qituvchiga faoliyat jarayonida o'zi tanlangan pedagogik ta'sir usullarini samarali qo'llashi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka yig'indisidir.

Qator ta'riflarda o'qituvchining **o'z-o'zini boshqara olishi** va talabalar bilan **o'zaro ta'sirni o'rnatish** ko'nikmasi muhim ekanligi qayd etilgandir.

Shunday ekan, barcha o'qituvchilar pedagogik texnikani egallashlari zarur!

Pedagogik texnikaga nimalar kiradi?

1. Nutq ko'nikmalari (savodli, tushunarli, chiroyli so'zlay olish). Nutqning ifodaliligi, so'z orqali fikr va hissiyotlarni aniq ifodalay olishlik.
2. Mimik va pantomimik ifodalilik – aniq imo-ishora, ma'noli qarash, tabassum.
3. O'z hissiyotlarini boshqara olish, xushmuomalalik, xayrixohlik.

4. Rejissyorlik va aktyorlik ko'nikmalari.

G. P. Aleshina — muloqot masalalari bo'yicha mutaxassis – muloqotni quyidagi elementlarga ajratadi.

Birinchisi — nigoh. Xo'mraygan, sinchiklovchi nigoh suhbatdoshiga nisbatan ishonchsizlikni bildirib, uni cho'chitadi, so'zlovchidan uzoqlashtiradi. Surbetlarcha tikilib qarash havotirga soladi. Istehzoli, dimog'dorlik bilan qarash – haqoratlaydi. Ochiq, do'stona nigoh o'ziga moyil qiladi, ochiq, faol muloqotga zamin yaratadi.

Muloqotning ikkinchi elementi – so'z.

Muloqot davomida o'qituvchi so'z tanlashga, ularni o'rinli ishlatishga alohida e'tibor berishi, bunda xushyor bo'lishi kerak. O'zbek tili boy til bo'lib unda bir fikrni ifodalash uchun qator ma'nodosh so'zlar mavjud. Shularni tanlashda pedagogik takt, didaktik qobiliyatlarni ishga solmoq zarur.

Muloqotning uchinchi, juda muhim elementi – ohang.

Ba'zida ohang so'zdan ham ma'noliroqdir. Ohang quvonch va ranjishning belgisi bo'lib hizmat qiladi. U o'ziga tortishi yoki, aksincha, hamsuhbatingizning ko'nglini qoldirishi mumkin.

To'rtinchi element – imo-ishoralardir.

U ham ohang va nigoh kabi hamsuhbatingizni ranjitishi, haqoratlashi, g'ashini keltirishi yoki ruhini ko'tarishi mumkin. (Aleshina G. P. O vejlivosti, takte i delikatnosti... — L., 1990. — S. 3—4.)

Nutq ko'nikmalari.

Mehnat faoliyatida nutq malakalari katta rol o'ynaydigan kasb egalari (o'qituvchi, akter, diktora, sharhlovchi, jurnalist va boshqalar) so'z ta'siri kuchli bo'lishi uchun o'z ovozi, nutq apparatidan to'g'ri foydalanishga o'rganmoqlari zarur.

Ovoz yetarli darajada baland bo'lishi kerak. Bu inson ovozining sozlanganligi va undan turli vaziyatlarda to'g'ri foydalana olishiga bog'liqdir. Shu bilan birga, nutq sifati talaffuzning aniqligiga (diksiya va til me'yorlariga rioya etishga) ham bog'liq. Bu ma'ruzaning estetik va hissiy boyligini etkazib berishda, o'quvchilar hissiyoti, fikri, hulqiga ta'sir ko'rsatishda juda ahamiyatlidir.

Talaffuz adabiy me'yorga muvofiq bo'lishi, ovoz jarangdor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ovoz kuchi, nutqning ma'nodor qismlarini ajrtib ko'rsatish – barchasi vaziyatga mos kelishi kerak.

Umumlashtirib tinglovchiga xalaqit beradigan asosiy nutq kamchiliklarini keltiradigan bo'lsak, ular quyidagilardir:

- Nutq ohangining ortiqcha yuqoriligi notiq tovush paychalarining tez charchashiga olib keladi. Pastroq ohangda gapirish ovozni ehtiyotlaydi.

- Bo'g'ilgan ovoz sun'iy chiqadi.
- So'zlarning oxirgi bo'g'inlarini talaffuz qilmaslik.
- “Fikrlash tovushlari” – so'zlar o'rtasidagi pauzani turli unli tovushlar bilan to'ldirish (o–o–e i e–e va boshqalar).

Nutq qobiliyatlarini o'stirish uchun quyidagi mashqlarni keltirishimiz mumkin. Ularning har birini 20-30 marta bajarish kerak.

- Matn o'qish. Matnni baland ovozda o'qish. Bunda vaqti-vaqti bilan faraz qilinayotgan auditoriyaga nigoh tashlab turing. Bunda faraziy ko'z qarashlar orqali erkin nutq hissiga erishishga harakat qiling. Shu bilan birgalikda matnning keyingi so'zlarini bir zumda oldindan o'qib xotirangizda saqlash va keyin talaffuz qilishga o'rganing. Shunda nutqingizda uzilish bo'lmaydi.
- Matn ma'nosini etkazib berish. Matnning ikkitadan beshta gapgacha bo'lgan qismini o'qib uni gapirib bering. Bunda so'zma-so'z gapirishga yoki o'z so'zlaringiz bilan ifodalashga harakat qiling.
- Fikr yuritish. Erkin nutqqa ko'p marotaba o'qish yoki yodlash olib kelmaydi. Aksincha bu maqsadga erishishga konspekt va tayanch iboralar asosida nutq tuzish va fikr yuritish zamin yaratadi.
- “Fikr yuriish” iborasidan tafakkur va nutq o'rtasidagi mustahkam bog'lanishni belgilash uchun foydalanamiz. Bu deganiqi, fikrning asosi kalit so'zlar qatori orqali ifodalangan. Bitta fikrni kalit so'zlarga tayangan holda turlicha shakllantirish mumkin.
- Hikoya. O'zingiz yoki boshqa kimdir bilan sodir bo'lgan voqealarni gapirib berishda mashq qiling.
- Ish yuzasidan axborot berish. Gazeta maqolasidan kalit so'zlar majmuasini tayyorlang va “o'zingizning so'zlaringiz”ga o'g'irgan holda uning mazmunini yoriting. Shundan so'ng maqolani birgina gapgacha qisqartiring, keyin esa o'z fikrlaringizni qo'shish orqali uni kengaytiring.
- Rasmlarni sharhlash, ekspromt tarzda nutq so'zlash ham katta samara beradi.
- Notiq nuqtai nazarini ifodalovchi nutq. Aniq mavzuga (xobbi, kasbiy maqsad va hokazo) bag'ishlangan 3 minutdan 5 minutgacha bo'lgan axborot tayyorlang. Uning boshki qismida kalit so'zlardan foydalaning, oxirgi qismini esa erkin tarzda shakllantiring (nutqni ham ovoz chiqarib, ham ovozsiz takrorlab ko'ring). Maqolada berilgan ma'lumotga o'z munosabatingizni aniqlang: shu fikrga qo'shilasizmi yo'qmi? Fikringizni tasdiqlovchi qo'shimcha ma'lumotlar keltiring.
- Notiqlar nutqini o'rganish. Notiqlar chiqishlarini kuzatganda ularni ikki nuqtai nazardan tahlil qiling:
 - Nima deyildi?
 - Qanday aytildi? (ovoz kuchi, balandligi, urg'u, temp, talaffuzi, imo-ishora).
 - Nutq tahlili. Chop etilgan nutq “jonli” nutqni aynan ifodalay olmaydi, lekin ko'p narsaga o'rgatishi mumkin: tuzilishi, kompozitsiyasi, uslub va boshqaga.

- Munozaralar. Nazariy tayyorgarlik, mashqlarni mustaqil bajarganingizdan so'ng oldin kichik, keyin esa kattaroq auditoriyalar oldida nutq so'zlashda mashq qilishingiz kerak.
- Nutq. Endi dokladga o'tsa ham bo'ladi. Buning uchun oldin o'zingiz puxta bilgan bilimlar sohasini tanlang va barcha ko'rsatmalarni yodda tutgan holda nutq so'zlashga harakat qiling.

Mimik va pantomimik ifodalilik.

“Notiqning umumiy harakatlari unga yordam beradi, qo'llari esa o'zlari so'zlay oladi”. (Kvintilian (ok. 35 — ok. 96) — rimlik notiq, notqlik nazariyotchisi).

Yuz mimikasi.

Inson his tuyg'ulari uning yuzida – yuz mushaklarini qisqarishi va bo'shshishi natijasida – namoyon bo'ladi.

Yuz mushaklari holatini boshqarish unchalik qiyin bo'lmaganligi uchun odamlar haqiqiy hislarini yashirishga ham urinadilar.



Yuz mushaklari harakatlari simmetrikligi ushbu insonning samimiyligidan dalolat beradi. Inson so'zlarida qanchalik yolg'onni ko'p qo'shsa, simmetriya shunchalik buziladi.

Haqiqatni bildiruvchi mimika juda tez, sezdirmasdan namoyon bo'lishi mumkin va uni to'g'ri talqin qilish uchun tajriba yoki hattoki maxsus trenirovka kerak. Yana bir xususiyat: ijobiy hissiyotlar salbiyga qaraganda osonroq anglanadi.



Ayniqsa, inson lablari hissiy ifodaliligi bilan ajralib turadi (masalan, lablarni tishlash – hayajonni, bir tomonga qiyshaygan lablar ishonqiramaslik yoki istehzoni anglatishi mumkin)

Tabassum odatda do'stona munosabat yoki qo'llab quvvatlashga bo'lgan ehtiyojni bildiradi. Erkak kishi uchun tabassum u har qanday vaziyatda ham o'zini tuta olishini namoyish qilishi bo'lsa, ayol tabassumi ko'proq haqiqiy kayfiyatini bildiradi.

Tabassum turli hissiyotlarni anglatganligi uchun ularning ba'zi turlarini ko'rib chiqamiz:

- ortiqcha ko'p jilmayish – qo'llab quvvatlanishga ehtiyoj;
 - qiyshiq kulish – nazorat qilinayotgan asabiylik;
 - ko'tarilgan qoshlar va tabassum - bo'ysunishga tayyorlik;
 - pastga tushirilgan qoshlar va tabassum – o'zini katta olish;
 - tabassum bilan bir paytda pastki qovoqlarning ko'tarilmasligi
- samimiyatsizlik;
- tabassum bilan bir paytda ko'zlarning olayishi – qo'rqitish.



Turli hislar kechirayotganda yuz mimikasini bilish faqatgina boshqalarni tushunishdagina emas, balki o'z imitasiya mahoratini o'stirish uchun ham zarurdir.

Nigoh.

Odamning ichki kechinmalari haqida eng to'g'ri ma'lumotni ko'zlar namoyon qiladi:

- ko'zning odatiy ifodasidagi o'zgarish;

- ko'zlarning beixtiyor harakatlari – hayajon, oriyat, yolg'on, qo'rquv, asabiylashuv;

- yonib turgan nigoh – qizishish;

- qotib qolgan nigoh – o'yga cho'kkanlik yoki holsizlik;

- qorachig'larning kattarishi qiziqish va qabul qilinayotgan axborotdan, atrofdegilardan, taomdan va boshqa shunga o'xshash omillardan qoniqish his etayotganligi yoki qattiq og'riq: ma'lum dori-darmon yoki narkotik qabul qilganligi;

- qorachiqlarning kichirayishi – g'azablanish yoki ma'lum turdagi narkotiklarni qabul qilganligi va boshqalar.

Muloqot davomida ko'proq eshitayotgan odam suhbatdoshi ko'ziga qarab turadi. Muloqotning umumiy vaqtining uchdan biridan kamroq vaqt ichida ko'zingizga qarab turgan insonning sizga nisbatan samimiyligiga shubhalaning; butun dialog davomida tikilib qarayotgan inson yoki sizga nisbatan katta qiziqish bildirmoqda yoki (agar qorachig'i kichraygan bo'lsa) uning sizga nisbatan adovati bor, yoki sizni o'ziga tob'e qilmoqchi.

Poza (ma'lum holatda turish).

Insonning ichki holati haqida uning statik holati ma'lumot berishi mumkin. Shunisi qiziqki, agar ma'lum bir turishlar (poza) inson uchun odatiy bo'lib qolgan bo'lsa bu uning xarakteridagi turg'un sifatlardan dalolat beradi.



Quyida bir necha pozaning psixologik nuqtai nazardan talqinini keltiramiz:

- qo'llar orqada, bosh yuqori ko'tarilgan, iyak oldinga surilgan – o'ziga ishonch, o'zini boshqalardan ustun qo'yish;

- Tananing yuqori qismi oldga intilgan, qo'llar belda – dadillik, o'ziga ishonch va faol harakatlarga tayyorligi,

tajovuzkorlik, o'z fikrini oxirigacha himoya qilishlikka tayyorlik;

- qo'llar bilan stol yoki stulga tayanish – suhbatdoshi bilan to'la kontakt yo'qligi;

- qo'llar tirsaklar ochilgan holda bosh orqasida qovushgan - o'zini boshqalardan ustunligini his etish;

- bosh barmoqlarini belbog' yoki cho'ntaklarga solib turish – tajovuz, o'ziga ishonganlikni ifodalaydi;

- bosh barmoqni cho'ntaklardan chiqargan holda turish – o'zini katta olishlik;

- qo'l va oyoqlar almashtirilgan holda – suhbatdoshiga nisbatan ishonqiramaslik va o'zini himoyalash;

- qo'l va oyoqlar almashtirilmagan holda, pidjak tugmalari echilgan – ishonish belgisi;

- boshning chetga egilishi – qiziqish uyg'onganligi;

- boshning quyi egilganligi – salbiy munosabat;

- boshning sal ortga egilganligi – tajovuz belgisi;

- stul chetida o'tirish – har qaysi momentda turib ketishga tayyorgarlik: chiqib ketish uchun yoki harakt qilish uchun, o'ziga e'tiborni qaratib, suhbatga qo'shilish uchun yoki qizishgan inson o'zini qo'lda tutish uchun qilgan harakati.

Harakatlar.

Insonlar his-tuyg'ularini aniqlashda faqat beixtiyor qo'l harakatlariga diqqatni qaratish lozim. Har xil odamlarda bir xil qo'l harakatlari turli ma'noga ega bo'lishi mumkin, lekin ma'nosi o'xshash momentlar ham mavjud:

- qo'llarning faol harakati – ko'pincha ijobiy emosiyalar, do'stona munosabat va qiziqishni anglatadi;
- ortiqcha qo'l harakati – hayajon, o'ziga ishonchsizlik belgisi;
- kaftlar ochiq – ochiqlik ifodasi;
- qo'llarni musht qilish – ichki qo'zg'alish, tajovuz;
- so'zlayotganda og'izni qo'l bilan to'sish – hayron bo'lish / yolg'on so'zlash / suhbatdoshiga ma'lumotni ishonib etkazish;
- so'zlayotganda burunga tegib turish – aytayotgan so'zlariga ishonqiramaslik / yolg'on / yangidan-yangi dalillar izlash;
- qovog'ini barmoq bilan ishqalamoq – yolg'on / ishonqiramaslik;
- so'zlayotganda yuzining turli qismlarini ishqalash – tashvish, uyalish, o'ziga ishonmaslik;
- iyagini silash – qaror qabul qilish;
- qo'llarning beixtiyor ortiqcha harakatlanishi (biror narsani aylantirish, burash, kiyimining detallariga tegish) - ogohlik, asabiylashganlik, uyalish;
- kiyim yoqasini tortish – yolg'oni oshkor bo'lganligini sezgan odam yoki g'azabdan havo etishmasligi;
- sigareta kulini tez-tez qoqish – og'ir ichki kechinmalar, asabiylashganlik;
- biror narsaga tayanishga bo'lgan intilish – vaziyatning murakkabligini his qilish, ushbu vaziyatdan chiqib ketish yo'lini topa olmayotganligidan dalolat beradi.

Odamning tashqi ko'rinishidan, harakatlaridan uning ichki kechinmalarini aniqlashga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Agar shu masalaga bag'ishlangan maxsus adabiyotlarni o'qisangiz, ular haqida kengroq tassavurga ega bo'lishingiz mumkin.

O'qituvchi va talabalar, talabalararo o'zaro ta'sir ko'rsatish pedagogik vaziyatlarni echish jarayonida amalga oshadi. N. V. Kuzmina pedagogik vaziyatni “o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish yo'lini tanlashda e'tiborga olish zarur bo'lgan o'quv guruhi va o'quvchilar munosabatlari va o'zaro munosabatlarning murakkab tizimidagi real holat”, deb ta'riflaydi. (Psixologiya — proizvodstvu i vospitaniyu. — L., 1977. — S. 212).

Pedagogik vaziyatlarda talabalar faoliyatini boshqarish masalasini echishga to'g'ri keladi. Bunda o'qituvchi talaba hulqining sabablarini vaziyatga talaba nuqtai nazaridan qarab ko'rib aniqlashi kerak.



Pedagogik faoliyat davomida tez-tez pedagogik nizolar ro'y berib turadi. Ularni qanday echmoq zarur? Bunda o'qituvchilarga qanday maslahatlar ishlab chiqilgan?

Nizo bu sub'ektlar orasida vujudga kelgan ziddiyat, qarama-qarshilikdir. Pedagogik nizo ham sub'ektlar o'rtasidagi ziddiyat, uning ishtirokchilari tarbiyachi va tarbiyalanuvchidir.

O'qituvchi talaba hatti-harakatiga to'g'ri javob harakatini amalga oshirib, vaziyatni nazorat ostiga oladi va tartib o'rnatadi. Nizoning oldini olish - o'qituvchining donoligi belgisidir. O'qituvchi talabalarning hayoti, o'qishdan tashqari mashg'ulotlari, ishlari bilan qiziqsa, bu o'qituvchi-talaba munosabatlari mazmunini yanada boyitadi.

Pedagogik nizolar xususiyatlari:

— nizoning pedagogik to'g'ri hal qilinishi uchun o'qituvchining mas'uliyati (lekin bunda oliy o'quv yurti o'qituvchisi balog'atga etgan, o'z harakatlari uchun mas'ul yoshdagi insonlar bilan ishlashini yoddan chiqarmaslik kerak);

— nizo ishtirokchilari har xil ijtimoiy darajadadir (o'qituvchi-o'quvchi);

bu esa nizoda tomonlarning hatti-harakatlari o'rtasida farq bo'lishini ta'minlaydi;

— nizo ishtirokchilarining hayot tajribasidagi farq ularni har xil pozitsiyaga ajratadi va uning echilishida ularning mas'uliyat darajasini ham farqlaydi;

— ishtirokchilar voqealarga har xil ko'z bilan qaraydilar, shuning uchun o'qituvchi uchun talaba ichki kechinmalarini tushunish qiyin bo'lsa, talabaga o'z hissiyotlarini boshqarish qiyindir;

— pedagogik nizo odatda boshqa talabalar guvohligida bo'lib o'tadi va ular uchun ham tarbiyaviy ahamiyatga ega; (vazifa - talqin)

— o'qituvchining kasbiy pozitsiyasi uni nizoni echishda tashabbusni o'z qo'lga olishga va birinchi o'ringa shakllanayotgan shaxsning manfaatlarini qo'yishga majburlaydi;

— har bir xato yana boshqa nizolarni keltirib chiqaradi;

— nizoni echgandan ko'ra uni oldini olish afzalroqdir.

Pedagogik vaziyat va nizolarni yechishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

— o'qituvchi talabalarning hamkorlikdagi o'quv faoliyatini to'g'ri tashkillashni bilishi zarur;

— odatda o'zlashtirishi past bo'lgan, hulqi yomon o'quvchi ishtirokidagi pedagogik vaziyat nizoga ko'proq aylanadi. Shuning uchun birinchi e'tiborni shunday o'quvchilarga qaratib ularga o'z vaqtida pedagogik ta'sir o'tkazish, yordam berish kerak.

— yomon hulq uchun past baho qo'yish orqali jazolab bo'lmaydi – bu nizoning chuqurlashishiga va fanga bo'lgan qiziqishning susayishiga olib keladi;

- Pedagogik nizolarda to'liq aybdor – aybsizlar, yutgan va yutqizganlar bo'lmaydi.

- O'qituvchida pedagogik taktning shakllanmaganligi ko'p pedagogik nizolarga sabab bo'ladi (bunda o'qituvchi talabalar nafsoniyatiga tegadigan harakatlarni amalga oshiradi).

- Ko'pincha o'qituvchi ta'sirning noverbal vositalaridan to'g'ri foydalanishni, o'quvchini eshitishni bilmasligi nizoga olib keladi.

O'qituvchilar jazoni nizolarni echishda asosiy vosita deb biladilar. Lekin qo'rquv hech qachon yaxshi oqibatga olib kelmaydi.

O'QITUVCHINING PEDAGOGIK TAKTI.

Takt ahloqiy tushuncha bo'lib, u insonlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, insonparvarlik g'oyalariga asoslangan bo'lib, andishali hulq, har qanday ziddiyatli vaziyatlarda ham inson hurmati saqlanib qolishini talab qiladi. Har bir insondan, ayniqsa o'qituvchidan andishali bo'lish talab qilinadi.

Boshqacha qilib aytganda, pedagogik takt bu o'qituvchining talabalar oldida o'zini tutishni bilishi, bolaning holatini, intilishlari, qiziqishlarini tushuna olishi va eng samarali ta'sir yo'lini topa olishidir.

Shunday qilib, pedagogik takt bu o'qituvchining talabalarga nisbatan amalga oshiradigan ta'sirining mezonidir.

TAKT VA TAKTIKA

Taktika tanlash turli vaziyatlarda turli rollarni bajarish bilan bog'liq. Bu haqida ma'lumotni psixolog A. B. Dobrovich kitoblaridan olish mumkin. Bu to'rtta pozisiya bo'lib, ular quyidagicha:

«yuqoridan pastga», «pastdan yuqoriga», «yonma-yon» va «aralashmaslik pozisiyasi».

«Yuqoridan pastga» pozisiyasi o'qituvchi mustaqilligini, barcha mas'uliyatni o'z bo'yniga olishini namoyish etadi. Bu pozisiya “ota” pozisiyasi ham deb ataladi.

«Pastdan yuqoriga» pozisiyasida o'ziga ishonmaydigan, tobe' shaxs bo'ladi. A. B. Dobrovich so'zi bilan aytganda, bu “bola” pozisiyasi.

«Yonma-yon» pozisiyasida farosatlilik va vazminlik, vaziyatga qarab ish tutish, boshqalarning ham manfaatini o'ylash, o'zi va ular o'rtasida mas'uliyatni to'g'ri taqsimlash ifoda etiladi. Bu “katta odam” pozisiyasi.

MS: Sizningcha, pedagog qanday pozisiyani qo'llagani ma'qul?

Har bir pozisiyaning qo'llanishi vaziyat talabiga mos tanlanadi. Muloqot ikki tomonlama jarayon bo'lganligi uchun o'qituvchi talaba rolini ham inobatga olishi shart. O'qituvchining odatiy pozisiyasi bu hamkorlikda ish olib borayotgan katta odamning, ishga aloqador (rasmiy) darajani talab qiluvchi pozisiyasi. Bu pozisiya talabada teng huquqli sherikni shakllantiradi, o'zaro ishonch muhitini yaratadi. Bunda shunday uslublarni qo'llash mumkin: «Sizlar bilan maslahatlashmoqchi edim», «Kelinglar, o'ylab ko'raylik...» va ho kazo.

Pedagogik ta'sirning etakchi usullaridan biri – pedagogik talabdir. Pedagogik talab iltimos, rag'batlantirish, ma'qullash, faoliyatga undash, talabaga nisbatan ishonchni namoyish qilish va boshqa shakllarda ifodalanadi.

Pedagogik takti shakllantirish omillari.

Insonparvarlik g'oyalariga asoslangan pedagogikada pedagog quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim, deyiladi:

Tarbiyalanuvchilarga mehrlil bo'lish, mehrini ko'rsata olish;
Talabalar hatti-harakatlarining "ichki prujinalarini" ko'ra olish;
Vaziyatni to'g'ri baholay olish;
Maqsadga muvofiq ta'sir usulini tanlash;
Talabalar bilan samarali muloqot qura olish.

Pedagog va talaba pozitsiyalarining to'g'ri kelmasligi ko'p konfliktlarga sabab bo'ladi, shuning uchun konflikt vaziyatlarda qo'llaniladigan sinalgan **QOIDALARNI** bilish kerak.

Birinchi qoida. Konflikt vaziyatini o'z qo'lga olish bu emosional taranglikni bartaraf etishni anglatadi. Buning uchun ortiqcha jismoniy zo'riqishdan, ortiqcha hatti-harakatlardan halos bo'lish. Mimika, poza, jestlar faqatgina odamning ichki kechinmalarini ifodalab qolmay, unga ta'sir ham ko'rsatadi. Shunday qilib, tashqi vazminlik va hotirjamlik! **Ikkinchi qoida.** O'z hatti-harakatlari bilan sherigiga ta'sir ko'rsatish. Bunda ishtirokchining yuzini diqqat bilan o'rganib chiqish yordam beradi, fikrni jamlaydi va uning holatini aniqlashga imkon yaratadi.

Uchinchi qoida. Hamsuhbatning hatti-harakatlari motivlarini tushunishga harakat qilish. Aqliy tahlilning ishga solinishi emosional qizishni pasaytiradi. Yaxshisi holatning murakkabligini tushunganligini ifoda etish (Men sizning holatingizni tushunib turibman...), o'z holatini tushuntirish (Shu meni o'ylantiryapti...) Ya'ni hatti-harakatni darrov baholamang, oldin tug'ilgan vaziyatga bo'lgan munosabatingizni bildirishga harakat qiling.

To'rtinchi qoida. Maqsadni muvofiqlashtirish. Talaba bilan sizni birlashtiruvchi narsani tezroq anglash va uni ko'rsatish.

Beshinchi qoida. Samarali echim borligiga ishonishingizni namoyish qiling. Va nihoyat, konflikt hal qilinganidan so'ng uni tahlil qilib chiqing (sababi va oldini olish yo'llari).

Muloqot qoidalariga rioya qilish o'qituvchiga har bir talaba uchun muvafaqqiyat vaziyatini yaratishga va u bilan samarali hamkorlikni o'rnatishga, talabaning barcha qobiliyatlarini ochib berishga imkoniyat yaratadi.

Har bir pedagogik vaziyatning o'ziga hos qator omillari mavjud bo'ladiki, ularning barchalarini echish uchun universal "resept"ni o'ylab topib bo'lmaydi. Har bir aniq pedagogik vaziyatni o'qituvchi o'zida mavjud psixologiya-pedagogika fanlariga oid nazariy bilimlari, hayotiy tajribasi, pedagogik qobiliyatlariga tayangan holda echadi. Birinchi o'rinda u o'z hissiyotlarini boshqara olishi, xushmuomalalik qoidalariga rioya qilishi, talabaga nisbatan xayrixohlikni namoyish qilishi kerak.

O'qituvchining rejissyorlik va aktyorlik ko'nikmalari.

Pedagogik va aktyorlikning o'zaro o'xshashliklari ko'p. Bu ushbu faoliyatlar mohiyatidan kelib chiqadi. Har ikkala faoliyat negizida insonlar ongiga ta'sir etish masalasi yotadi. Aktyor sahnadagi rol orqali, pedagog turli pedagogik ta'sir vositalari yordamida inson ongida oldindan ko'zlangan o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qiladilar. Bu kasblarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi yana bir

narsa - bu har ikkalasi ham ommaga qaratilib, omma nigohida amalga oshirilishidir.

O'qituvchining o'quv-tarbiyaviy mashg'ulot, tadbirlarini “ssenariy”sini ishlab chiqishi, unda o'quvchilar faoliyatini boshqarishi bu kasbni rejissyor kasbiga yaqinlashtiradi.

O'qituvchilar talabalar diqqatini jamlash, e'tiborini vaqt davomida yo'naltirib turish qanchalik qiyinligini yaxshi biladilar. Shunda o'qituvchilarga aktyorlik mahorati katta yordam beradi. Buyuk rus dramaturgi K.S.Stanislavskiyning aktyorlar bilan ishlash sistemasi pedagogning aktyorlik mahoratini oshirishga katta imkon beradi.

Ushbu sistemaning asosiy maqsadi – **aktyorning bor qobiliyatlarini** ochib berishdir. Bu o'qituvchi uchun ham zarur. K.S.Stanislavskiy sistemasining **birinchi tamoyili hayot haqiqatidir**. Sahnada yolg'on bo'lishi mumkin emas (o'qituvchi harakatlarida samimiyatsizlik, ikkiyuzlamachilikka o'rin yo'q).

Ikkinchi tamoyil – buyuk masala tamoyili. Buyuk masala bu artistning asosiy maqsadi - ya'ni insonlar ongiga muayan g'oyani singdirishning asosiy maqsadi. O'qituvchi ham o'z faoliyatida pedagogik buyuk masalani doimo yodda tutishi kerak: nima uchun mehnat qilyapmiz? Pirovard natijamiz nima?

Uchinchi tamoyil – faollik va harakat tamoyili. Aynan harakatda insonning jismoniy va psixik mohiyatining birligi namoyon bo'ladi. Pedagogik harakat o'qituvchining ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli harakatidir. Ushbu harakatda jismoniy va psixik mohiyat birligi mavjud bo'lsa, o'qituvchi yuqori natijalarga erishadi. Pedagog shaxsi harakatda namoyon bo'lar ekan, harakat asoslangan, maqsadlashgan va mahsuldor bo'lishi kerak.

O'qituvchi ijodkordir. Uning ijodi talabalarga bevosita amalga oshirilayotgan emosional ta'sirda, jonli nutq, jonli harakatda namoyon bo'ladi.

Pedagog ham aktyor kabi o'zining psixik-jismoniy yaxlitlik holatida farliyat vositasi rolini o'ynaydi. Shuning uchun u o'z organizmini sozlashi, uni zarur paytda to'g'ri harakatni amalga oshira olishini ta'minlashi kerak.

Boshqaruv uslublari.

Psixologiyada turli tipdagi boshqaruvchilarning ijtimoiy psixologik portreti ishlab chiqilgan – bunda ularning boshqaruvida bo'lgan jamoa bilan **muloqoti texnikasi** tahlil qilinadi. O'qituvchi ham pedagogik jarayonda boshqaruvchi funksiyasini bajaradi. Boshqaruv uslublarining uchta asosiy turini o'zaro ta'sir qilish nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz.

Avtoritar uslub. Talabalar faoliyatiga tegishli barcha masalalarni, hattoki kim qaerda o'tirishigacha o'qituvchi yakka o'zi hal qiladi, talabalar tomonidan chiqadigan barcha tashabbusni taqiqlaydi.

Bu uslubni qo'llovchi o'qituvchining muloqot usullari buyruq, ko'rsatma, instruksiya, tanbeh.

Demokratik uslub. Bunda o'qituvchi jamoa fikriga tayangan holda ish tutadi, faoliyat maqsadini barcha talabaga etkazishga harakat qiladi, faoliyatning kechishini muhokama qilishga barchani jalb etadi; o'z vazifasini faqat nazorat va munofiqashtirish deb bilmay, tarbiya bilan ham shug'ullanadi; barcha talabani rahbatlantiradi va ularda o'z-o'ziga ishonchni shakllantiradi; jamoada o'z-o'zini

boshqarish rivojlanadi. Bu uslubni qo'llovchi o'qituvchi barcha jamoa a'zolarining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ular o'rtasida vazifalarni teng bo'lishga harakat qiladi; tashabbus va faollikni rag'batlantiradi. Bunday o'qituvchi muloqotda qo'llaydigan usullari iltimos, maslahat, axborot berishdir.

Liberal uslub — boshqacha qilib aytganda, anarxik. O'qituvchi jamoa hayotiga umuman aralashmaslikka harakat qiladi, faolligi sust, muammolarni yuzaki ko'rib chiqadi, boshqalarning ta'siriga oson tushib qoladi. Ma'suliyatdan o'zini olib qochadi va o'z avtoritetini yo'qotadi.

MS: Siz ta'lim jarayonida ko'proq qaysi uslubni qo'llagan bo'lar edingiz?

PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARI.

V. A. Kan-Kalik pedagogik muloqotni uslubini munosabatlar va o'zaro ta'sir uslublar tashkill etishini ta'kidlab, quyidagi muloqot uslublarini aniqlaydi:

- Hamkorlikda olib boriladigan ijodiy ishga bo'lgan qiziqishga asoslangan muloqot;
- Do'stona munosabatlar asosida qurilgan muloqot;
- O'qituvchi va talabalarni ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqot;
- Qo'rqitishga asoslangan muloqot.

Hamkorlikda olib boriladigan ijodiy ishga bo'lgan qiziqish asosidagi muloqotda pedagog talabalar va ishga nisbatan ijobiy yondashadi.

Do'stona munosabatlar asosida qurilgan muloqot yuqorida ko'rib chiqilgan muloqot turiga yaqindir. Ayrim pedagoglar do'stona muloqotni noto'g'ri tushunib, chegaradan chiqib ketishadi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ma'lum bir masofa bo'lishi kerak. Ushbu masofani aniqlashda o'qituvchining madaniyati, pedagogik takti rol o'ynaydi.

Lekin ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqotni ham samararali deb bo'lmaydi. Shunga qaramasdan bu keng tarqalgan uslubdir. Bunda pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasida ma'lum chegarlovchi mavjud bo'lib, ularni quyidagicha ta'riflash mumkin: “Men biliman - sizlar bilmaysizlar”; “Meni aytganimni qilinglar – mening yoshim kattaroq, tajribam ko'proq, bizni tenglashtirib bo'lmaydi”. Bu uslub ko'proq avtoritarga yaqinroq bo'lib, u tashqaridan qaraganda tartibli faoliyatni amalga oshirishga yordam berganday bo'ladi, lekin haqiqiy samara bermaydi.

O'qituvchi va talabalarni ma'lum masofada ushlab turuvchi muloqotning yuqori darajadagi ko'rinishi bu qo'rqitishga asoslangan muloqotdir. U o'zida talabalarga salbiy munosabat va avtoritar boshqaruvni majassam etadi. Ushbu uslubni yorqin ifodasi sifatida quyidagi gaplarni keltirish mumkin: “Qunt bilan tinglanglar, bo'lmasa ikki qo'yaman.”, “Hali kunlaringni ko'rsataman”. Bunday uslub mashg'ulot paytida asabiy muhitni shakllantiradi.

Pedagogik mahorat darajasini aniqlash.

O'qituvchining pedagogik mahorati darajasini aniqlash avvalambor o'qituvchining o'zi uchun zarur. Shu orqali u o'z ustida maqsadli ish olib borish

imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekiston etakchi psixolog-pedagog olimlaridan biri p.f.n., prof. M.G. Davletshin quyidagi professiogrammani ishlab chiqqan:

- 1) O'qituvchining shaxsiy xislatlari:
- 2) Kasbiga xos bilimlari:
- 3) O'z kasbiga xos xislatlari:
- 4) Shaxsiy – pedagogik uddaburonligi:
- 5) Tashkilotchilik malakalari:
- 6) Kommunikativ malakalari:
- 7) Gnostik malakalari:
- 8) Ijodiy xislatlari:

Yuqoridagilardan hulosa qilib pedagog kasbi eng murakkab kasblardan biri ekanligi, va bu kasbda mahorat cho'qilarini egallash uchun o'qituvchi o'z ustida tinmay ish olib borishi zarurligini yana bir bor ta'kidlashimiz mumkin.

Test topshiriqlari

1. Pedagogik mahorat tarkibiy qismlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ta'lim berish mahorati
- B. Kasbiy bilim va pedagogik qobiliyat
- C. Muloqot o'rnatish va tarbiyalash mahorati
- D. O'quvchilar va ota-onalar bilan ishlay olish mahorati.

2. Pedagogik mahorat nima?

- A. Ta'lim va tarbiya berish san'ati
- B. Muloqot o'rnatish olish
- C. Pedagogik jarayonni boshqara olish mahorati
- D. Bilim bera olish mahorati

3. Kasbiy bilim tarkibiy qismlarini ko'rsating.

- A. Fanga doir bilimlar
- B. Pedagogik bilimlar
- C. Nazariy bilimlar
- D. Nazariy bilimlar, amaliy bilimlar, metodik bilimlar.

4. Pedagogik qobiliyat turlarini ko'rsating.

- A. Obro' orttira olish qobiliyati
- B. Tashkilotchilik, didaktik, akademik, suggestiv, pertseptiv.
- C. Kommunikativ qobiliyat
- D. Hamma javoblar to'g'ri

5. Didaktik qobiliyat turi nima?

- A. Nutqning boyligi
- B. Ta'lim bera olish, ta'lim usullarini to'g'ri tanlay olish
- C. Ta'lim nazariyasini chuqur o'zlashtirish
- D. O'quvchilar olamiga nazar tashlay olish.

6. Pertseptiv qobiliyat turi nima?

- A. Muloqot o'rnatish olish
- B. Tarbiya usullarini to'g'ri tanlay olish
- C. O'quvchilar yuz ifodasi va ko'ziga qarab ichki olamiga nazar tashlay olish qobiliyati

D. Sinf faollarini to'g'ri tanlay olish

7. Suggestiv qobiliyat turi nima?

A. Emotsionalta'zir eta olish qobiliyati

B. Nutq boyligi

C. Jamoaga rahbarlik qila olish.

D. O'quvchilarni tushuna olish

8. Kommunikativ qobiliyat turi nima?

A. Nutq boyligi

B. Chuqur bilim

C. Muloqot o'rnatish

D. Jamoani tashkil eta olish.

9. Akademik qobiliyat turi nima?

A. Ta'lim bera olish qobiliyati

B. Fan sohasiga doir bilimlarni chuqur o'zlashtirish.

C. Muloqot madaniyati.

D. Tarbiyachilik mahorati.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va vazifalar:

1. Pedagogik jarayon maqsadi va pedagogik ta'sir tushunchalarini o'zaro bog'lang.
2. Sizning nuqtai nazaringizda pedagogik texnika komponentlarini muhimlik darajasi bo'yicha tartiblab chiqish mumkin bo'lsa, shu nuqtai nazardan tartiblab chiqing.
3. O'zingizda o'qituvchi professiogrammasida belgilangan malakalarning rivojlanganlik darajasini aniqlang.
4. O'qituvchi pedagogik texnikasini rivojlantirish yo'llari.
5. Pedagogik muloqot uslublaridan sizning nuqtai nazaringizdan eng samaralisini tanlang va buni isbotlang.
6. Zamon talablariga javob beruvchi mutaxassisni tayyorlashda ta'lim tizimining va o'qituvchi shaxsining roli.
7. Pedagogik faoliyat xususiyatlari, oliy o'quv yurti o'qituvchisi faoliyatining o'ziga xosliklari.
8. Pedagogik mahorat mohiyati.
9. O'qituvchining kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxs fazilatlarini.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T-Ma'naviyat-2008 y.
2. I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi" T-1999 y.
3. Azizxodjayeva N. "Pedagogik texnologiya va mahorat", Toshkent., TDPU., 2006 y.
4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov "Pedagogik texnologiya" ma'ruza matn 2009 y.
5. J.G` Yo`ldoshev "Pedagogik texnologiya asoslari" T., O`qituvchi, 2004.

5-mavzu. TA'LIMNING INTERFAOL STRATEGIYALARI

Reja:

1. Ta'limning interfaol strategiyalari.
2. "Aqliy xujum" uslubi, "Klaster" texnologiyasi, "BBB" texnologiyasi, FSMU texnologiyasi.
3. "Bumerang" texnologiyasi, "Blits-o'yin" texnologiyasi. Debatlar texnologiyasi, Kichik guruhlarda ishlash usuli.
4. "Fikriy hujum" metodi, Dumaloq stol metodi, "Ruchka stol o'rtasida", Rotatsiya (aylanma) metodi, Davralar, "Galereyani aylanish" metodi, Munozara, "Akvarium" metodi.

Tayanch tushunchalar

Innovatsia, interaktiv metodlar, Aqliy xujum, Klaster, "BBB" texnologiyasi, FSMU texnologiyasi, "Bumerang" texnologiyasi, "Blits-o'yin" texnologiyasi. Debatlar texnologiyasi, Kichik guruhlarda ishlash usuli.

So'nggi yillarda pedagogika nazariyasiga boshqa sohalardan bir qator yangi tushunchalar kirib keldi. Bu esa pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqada ekanligidan dalolat beradi. Tushunchalarning aksariyati texnika va iqtisod sohalaridan kirib kelgan bo'lib, aynan shu sohalar insoniyat fikrining rivojlanishiga asos bo'lmoqda.

Bugungi kunda ta'limning iqtisodiyligi va takomillashganligi, o'qituvchi va o'rganuvchi aloqalari, texnika va texnologiyalar, ta'lim iqtisodi, o'qitishni kompyuterlashtirish kabi muammolarda turli-tuman fikrlar bildirilmoqda.

"Innovatsiya – yangilik" so'zining qachon paydo bo'lganligi aniq bo'lmasada, bu tushuncha umumiy fanlarga, tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Bunday yangiliklarning aksariyati qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va tibbiyot sohalarida joriy etilardi. Pedagogik termin sifatida esa innovatsiya tushunchasi, yangi tushunchalardan biri bo'lib, unga turli ta'riflar va fikrlar bildirilmoqda.

Innovatsiya jamiyat paydo bo'lishidan boshlab o'zgarib kelinmoqda. Ba'zi pedagoglar innovatsiya so'zini tor ma'noda ta'limni takomillashtirish, zamonaviylashtirish desa, boshqalari unga kengroq tushuncha bermoqda. Ta'lim sohasidagi ayrim yangi tushunchalarni, islohot, o'qitishni zamonaviylashtirish, takomillashtirish, optimallashtirish kabilar bilan almashtirmoqdalar. Talim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradigan innovatsion usuldir.

Quyida shunday iteraktiv metodlardan namunalari keltiramiz:

AQLIY HUJUM.

Aqliy hujum guruhlararo qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan metoddir. Bu haqiqatdan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishlash mumkin emas, birgina g'oya guruhni barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faoliligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida yengillashtiriladi.

Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

Asosiy qoidalari quyidagilar:

1. Aytilayotgan barcha g'oyalar bir-biriga nisbatan muhimlikda tengdir.
2. Kiritilayotgan g'oyalarga nisbatan tanqid mavjud emas.
3. G'oyani taqdim etayotgan vaqtda so'zlovchining gapini bo'lmaslik.
4. So'zlovchiga nisbatan baholovchi komponent mavjud emas.

Metodni ishlatishga kirishmoq

1 – METOD – guruhning barcha ishtirokchilariga bir mavzu va bir savol qo'yiladi.

1. O'qituvchi o'quv jarayonida tashabbusni o'z qo'liga shunday tarzda oladi: u auditoriyadagi barcha talabalarga savol beradi va qandaydir maxsus mavzuga daxldor barcha mumkin bo'lgan fikrlarni aytishni so'raydi.

2. Barcha, hatto, ahmoqona g'oyalarni ham aytishga ruxsat beriladi. Aytilayotgan fikrlar ichida birgina asosiy mavzu saqlanib qolishi shart.

3. Birortasining ham fikri sharhlanmaydi, tanqid qilinmaydi, baholanmaydi.

4. Asosiy fikrlarni o'qituvchi flip-karta, xattaxtaga yozib oladi yoki ekranda ko'rsatadi.

5. Aqliy hujum tugagach, barcha g'oyalar to'planishi, guruhlariga ajratilishi yoki kategoriyalarga bo'linishi mumkin.

2 – METOD – barcha mavzu va savollar umumiy yo'nalishi saqlangan holda katta guruh tarkibidagi guruhchalarga taqdim etiladi.

1. O'qituvchi umumiy mavzu bo'yicha bir necha, balki 4-6 ta savol tayyorlashi mumkin.

2. katta guruh kichik guruhchalarga ajratiladi va har bir guruhchaga aqliy hujum o'tkazish uchun alohida savol beriladi.

3. Har bir guruhcha aqliy hujum tafsilotini yozib olish uchun bittadan kishi ajratadi, keyinnchalik, jarayon tugashi bilan uni guruhning barcha a'zolariga taqdim etadi.

4. G'oyalar har bir guruhcha tomonidan katta sahifaga markerdan foydalanib yozib olinishi mumkin. Shunday sahifa – plakatning yuqorisiga tayyorlangan savollar yozib qo'yiladi. Sahifa – plakat jarayonining oxirida har bir xohlovchi nima yozilgan va jamlanganligini ko'rishi uchun osib qo'yiladi.

5. Aqliy hujumning bu metodi vaqtning qisqachi davrida bir savolning bir necha jihati ishlab chiqilishi zarur bo'lgan joyda, ayniqsa, foydalidir.

6. O'qituvchi rahbar-yordamchi sifatida harakat qiladi va bir guruhdan ikkinchi guruhga aqliy hujum amalga oshirilayotgan paytda o'tib turadi.

Muhim g'oyalar aqliy hujum paytida ishlab chiqilgan bo'lishi va munozaralarda muhokama etilgan bo'lishi kerak.

Ko'pincha muhim g'oyalarni belgilash va ular ichidan eng yaxshilarini tanlab olish chog'ida auditoriyaga yordam berish ehtiyoji tez-tez yuzaga kelib turadi. Ya'ni, nomigagina kichik korxonalar yaratish kabi.

Yakuniy xulosaga kelish, ayniqsa, qiyin. Bu tabiiy, chunki har bir ishtirok etuvchiga "o'zining g'oyam eng yaxshi" degan xususiyat xosdir. Umumiy pozitsiya, har qalay, tezda topiladi va bunda quyidagi metod yordamga kelishi mumkin.

Tanlash va hisobga olish tizimi uchun besh modda:

- metod qandaydir bir g'oyani hal etish paytida, ya'ni nomigagina kichik korxonalar tayyorlash holatlarida benuqson hisoblanadi;

- har bir kishiga turli yo'l bilan foydalanish mumkin bo'lgan 5 modda ajratiladi, bundan tashqari ular o'zlarining shaxsiy g'oyalari uchun ularni bog'lashlari mumkin emas, ya'ni ular 5 moddaning barchasini ixtiyoriy bir taxminga berishi yoki boshqa taxminlarga 3 va 2 nisbatda taqsimlashi mumkin. Ular, hatto, shuni istasalar, har bir g'oyaga alohida modda ajratishlari mumkin. Ular 5 moddaning barchasidan foydalanishlari zarur;

- moddalar yig'iladi va ko'p son to'plagan aniq g'oya g'olib chiqadi;

- munozarali holatlarni ovoz berish yo'li bilan hal etish mumkin.

Har bir ishtirokchi tomonidan sahifaga ishlab chiqilgan va qayd etilgan muhim fikrlar yig'iladi, endi guruh sahifasi shaklida qaytadan ta'riflanadi.

- buning eng oson yo'li guruhchalarda ishtirok etuvchilarning barcha g'oyalari qayd etilgan uzun sahifa tayyorlashdir. G'oya takrorlanayotgan har bir holatda uning yoniga belgi qo'yish zarur;


- nazar tashlasangiz, dastlab barcha 10 g'oyadan eng yuqori to'plangan ballga ko'zingiz tushadi, shundan so'ng qolgan umumiy ballar o'rin oladi va boshqalar;

-agar Siz 10 g'oyadan iborat sahifani yakunlay olmasangiz, 5 moddadan iborat hisoblash tizimidan foydalanishingiz mumkin. Yuqorida ta'kidlaganidek, sahifaga qolgan g'oyalarni asosida shunday demokratik yo'l bilan kutilgan natijalarga erishiladi.

"TARMOQLAR" METODI (KLAUSTER)

Fikrlarning tarmoqlanishi – bu metod o'quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashga o'rgatadi.

Bu metod biror mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyida biz 4-sinf ona tilidan "So'z tukumlari" mavzusidagi takrorlash-umumlashtirish darsida foydalanish mumkin bo'lgan klasterdan namuna sifatida misol keltiramiz:



BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN. BILIB OLDIM

Bu usul o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, bilimlarni o'zlashtirishga mas'uliyat va qiziqishni tarbiyalaydi. 4 – sinf ona tili darsida bu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin:

Buning uchun o'qituvchi xattaxtaani uch qismga bo'ladi. Birinchi qismiga "Bilaman", ikkinchi qismiga "Bilishni xohlay-man", uchinchi qismiga "Bilib oldim" deb yozadi. Keyin o'quvchi-larga murojaat qilib, kim "Ot so'z turkumi" haqida nima bilishini so'raydi va o'quvchilar fikrini "Bilaman" ustuniga yozadi. Sinfda fikrlar tugagandan keyin o'quvchilarga yana murojaat qilib, "Ot so'z turkumi" haqida yana nimalar bilishni xohlashlarini so'raydi. O'quvchilar bergan savollarni xattaxtaning "Bilishni xohlayman" qismiga yozadi. O'quvchilar savollari tugagandan keyin o'qituvchi "Ot so'z turkumi" haqida ma'lumotlar yozilgan, oldindan tayyorlangan matnlarni o'quvchilarga tarqatib chiqadi. o'quvchilar matnlar bilan tanishib chiqqanlaridan keyin fikrlashga o'tadilar, yangi ma'lumotlarni bir-birlari bilan o'rtoqlashadilar. O'qituvchi o'quvchilardan "Ot so'z turkumi" haqida yana qanday yangi ma'lumotlarga ega bo'lishganliklarini so'raydi va "Bilib oldim" ustuniga yozadi. Keyin uchala ustunni umumlashtirib, birgalikda xulosa qilinadi.

Bilaman	Bilishni xohayman	Bilib oldim
----------------	--------------------------	--------------------

<p>Shaxs va narsalarning nomini bildiradi; Insonlar,shaharlar, ko‘chalar va boshqa atab qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi; Otning egalik qo‘shimchalari: -m,-im,-ng,-ing,-si,-I,-miz,-imiz,-ngiz,-ingiz,-(lar)i qo‘shilganda shaxs va narsa buyumlarning qaysi shaxsga qarashliligi aniqlanadi. Tilda 3 ta shaxs bor: 1 shaxs – so‘zlovchi. II shaxs –tinglovchi. III shaxs – o‘zga. -m,-im,-miz,-imiz- I shaxs; -ng,-ing,-ngiz,-ingiz-II shaxs; -i,-si,-(lar)I- III shaxs</p>	<p>Egalik qo‘shimchalarida birlik va ko‘plik ma’-nolari qanday ifodalanishini.</p>	<p>-m,-im,-ng,-ing,- i,-si – egalik qo‘shimchalari birlik ma’nosini bildiradi.-miz, -imiz, ,-ngiz,-ingiz, -(lar)i – egalik qo‘shimchalari ko‘plik ma’nosini bildiradi</p>
---	--	---

FSMU TEXNOLOGIYASI.

Trening haqida tushuncha.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda yoki umimlashtirish darslarida, yoki o‘quv rejasi asosida biror bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanishini mumkin. Bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalaraga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o‘quvchilarni o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, o‘quvchilarning bilimlarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatishi bilan ahamiyatlidir.

Maqsad.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O‘tkazish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1 – bosqich.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

O‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotida avval har bir o‘quvchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlashi haqida o‘quvchilarga ma‘lumot beradi;

Mashg‘ulot davomida har bir o‘quvchi o‘z fikrini erkin holda, to‘liq bayon etishi mumkin ekanligini eslatib o‘tiladi;

2 – bosqich.

Har bir o‘quvchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating.

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

Har bir o‘quvchi yakka tartibda tarqatilgan qog‘ozdagi FSMUning 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘ldiradi.

3 – bosqich.

Har bir tinglovchi o‘z qog‘ozlarini to‘ldirib bo‘lgach, o‘qituvchi ularni kichik guruhlariga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlariga bo‘lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlariga bo‘lib yuboradi;

O‘qituvchi har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi;

O‘qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog‘ozlardagi fikr va dallillarni katta formatda umumlashtirilgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etadi.

4–bosqich.

Kichik guruhlarda avval har bir o‘quvchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a‘zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a‘zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a‘zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

Guruh a‘zolari FSMU ning 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar;

Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir o‘quvchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5 – bosqich.

Kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarni himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi, iloji boricha izoh bermagan holda. Ba‘zi bo‘limlarni isbotlashi, ya‘ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

6– bosqich.

O‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;

Quyidagi savollar bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi:

- ushbu mashg‘ulot yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o‘rgandingiz?

- ushbu texnologiyani o‘quv jarayonida qo‘llanishi qanday samara berdi?

Tarqatma materialining taxminiy nusxasi.

FSMU TEXNOLOGIYASI.

(F) – Fikringizni bayon eting.

(S) – Fikringiz bayoniga biror sabab ko‘rsating.

(M) - ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

(U) - fikringizni umumlashtiring.

“BUMERANG” TEXNOLOGIYASI.

Mazkur texnologiya bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo‘lgan mavzularni o‘rganishga yaroqli bo‘lib, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg‘ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o‘quvchi yoki o‘qituvchi rovida bo‘lishi, kerakli ballni to‘plashiga imkoniyat beradi.

“Bemerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi; xotirani, g‘oyalarni fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta‘lim bilan bir qatorda mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa bilan ishlash mahorati;
- xushmuomalalik;
- xushfe‘llik;
- ko‘nikuvchanlik;
- o‘zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish;
- o‘zini xolis baholash;

TEXNOLOGIYA HAQIDA TUSHUNCHA.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrini erkin holda bayon eta olish, hamda bir dars davomida barcha o‘quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

MAQSAD.

Trening davomida tinglovchilarga tarqatilgan materiallarning ular tomonidan yakka va guruh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda o‘zaro suhbat-munozara orqali, turli savolar orqali tarqatma materiallar, undagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganini nazorat qilish. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilar tomonidan baho ballarini egallashga imkoniyat yaratish.

O‘TKAZISH TEXNOLOGIYASI.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

1 – BOSQICH.

O‘qituvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchilarni 4-5 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘lishdan boshlanadi;

O‘qituvchi har bir guruh va uning har bir a‘zosiga mustaqil aniq yozma tarqatma material beradi. Tarqatma materialda o‘qituvchi tomonidan tanlangan umumiy mavzu bo‘yicha biron-bir hajmdagi matn berilgan, ularning soni guruhlarga va o‘quvchilar soniga bog‘liq. Agar 4 ta kichik guruh bo‘lsa, u holda umumiy mavzu 4 kichik matnlarga bo‘linib har bir guruhga beriladi;

Faoliyat samarali bo'lishi uchun har bir guruhga berilgan matndan har bir o'quvchiga beriladi. Shunday qilib, 4 ta guruh umumiy mavzu asosida 4 xil matnga ega, har bir o'quvchi esa o'z guruhiga tushgan matnga ega bo'ladi.

2 – BOSQICH.

Guruhlarga berilgan matnni guruh a'zolari yakka tartibda alohida o'rganishlari, matnni eslab qolishlari, keyin esa kerak bo'lsa boshqalarga yoki o'qituvchiga gapirib berishlari, iloji boricha matnni o'zlashtirib olishlari kerakligini o'qituvchi uqtiradi va tayyorgarlik uchun matnni kata kichikligiga qarab vaqt beradi. O'zi esa guruh va o'quvchilarning ish faoliyatini kuzatadi.

3 – BOSQICH.

O'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan raqamlar yozilgan kichik qog'ozlar bilan har bir guruh yoniga kelib guruh a'zolaridan ushbu qog'ozlardan bittadan raqam tortib olishlarini so'raydi (qog'ozlar soni guruhdagi tinglovchilar soniga bog'liq, masalan, guruhda 5 kishi bo'lsa, qog'ozdagi raqamlar 1, 2, 3, 4, 5 etib tayyorlanadi, agar 4 ta bo'lsa 1 dan 4 gacha va h.). Guruhlardagi barcha o'quvchilar raqamlar yozilgan qog'ozdan olishlari kerak. Nechta guruh bo'lsa, shuncha guruh a'zolari soniga qarab raqamlar yozilgan qog'ozlar tayyorlanadi.

O'qituvchi raqamlar bo'yicha o'quvchilardan yangi guruhlar tuzishlarini so'raydi. Masalan, hamma 1 raqamini olganlar bitta yangi guruh, 2 raqamlar ikkinchi guruhni, 3 raqamlilar uchinchi guruhni, 4 raqamlilar to'rtinchi guruhni, 5 raqamlilar beshinchi guruhni tashkil etishlarini so'raydi. Guruh a'zolari yangi guruhga o'tishlarida o'zlari bilan o'rgangan matnlarini oladilar.

4 – BOSQICH.

Raqamlar bo'yicha yangi guruhlar tuzilganda har bir yangi guruhda avvalgi guruhlardan bittadan vakillar o'z-o'zidan to'planib qoladi, ya'ni 4 ta guruhda 4 xil matn o'rganilgan bo'lsa bu yangi guruhda har bittasidan bittadan vakil to'planadi, umumiy mavzu bo'yicha 4 o'quvchi va 4 xil matn to'planadi.

5 – BOSQICH.

Yangi tuzilgan guruhning har bir a'zosi endi o'ziga 2 ta vazifa, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi vazifasini oladi va quyidagicha faoliyat ko'rsatadi:

1. O'qituvchi (o'rgatuvchi) sifatida, o'zi avval o'rgangan materialni gapirib beradi, tushuntiradi, o'zi mustaqil o'rgangan materialning asosiy joylariga barchaning diqqatini jalb qiladi, boshqa guruh a'zolarining tushunish va o'zlashtirish qobiliyatlarini tekshiradi. fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

2. O'quvchi sifatida, guruh a'zolarini navbatma-navbat so'zlab, tushuntirayotgan, gapirayotgan matnlarini eshitadi, tahlil qiladi, fikrlaydi va yodda saqlab qolishga harakat qiladi.

O'qituvchi esa ularga o'z matnlarini faqat so'zlab berishlari kerakligini uqtiradi va bunga 20 daqiqa vaqt beradi (matn hajmiga va umumiy mavzuning qiyin, osonligiga qarab vaqt ajratiladi).

Bu bosqichda mashg'ulot boshlanishida tarqatilgan barcha material tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilgan hisoblanadi.

6 – BOSQICH.

Guruhdagilar bir-birlariga o‘z matnlarini gapirib berib, barchalari ushbu matnlarni bilib olishgach, o‘qituvchi o‘rganilgan material guruh a‘zolari tomonidan qanchalik o‘zlashtirib olinganini tekshirib ko‘rish uchun har bir guruh a‘zosi bir-birlariga o‘z matnlaridan kelib chiqqan holda savollar berishlari mumkiligini tushuntiradi. Shunday qilib, guruh ichida ichki nazorat savol-javob orqali o‘tkaziladi. Bu esa guruhdagi o‘quvchilarni bir-birlariga so‘zlab bergan materiallarini boshqalar tomonidan o‘zlashtirganlik darajasini aniqlashga, mustahkamlashga yordam beradi.

7 – BOSQICH.

O‘qituvchi barcha tinglovchilarni yana qaytadan avvalgi joylariga qaytishni so‘raydi, ya‘ni yana hamma mashg‘ulot boshlanishidagi guruhlariga qaytadilar.

8 – BOSQICH.

O‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilarning barchasi hammaga tarqatilgan yozma materiallar bilan tanish ekanliklari, ular haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lganliklarini hisobga olgan holda sinfdagi har bir o‘quvchidan xohlagan materialni so‘rashi mumkinligini aytadi.

9 – BOSQICH.

Tinglovchilarga tarqatilgan barcha materiallarni ular tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligi darajasini aniqlash maqsadida o‘qituvchi, yoki maxsus guruh, yoki opponent guruh tomonidan berilgan nazorat savollarga javoblarni reyting ballari orqali baholanishi tushuntiriladi, masalan, savollarga berilgan javoblar – agar to‘liq javob bo‘lsa – 3 ball, qo‘shimcha qilinsa – 2 ball, o‘tirgan joydan luqma tashlansa – 1 ball, javob berilmasa – 0 ball qo‘yilishi belgilanadi.

Bahoni – to‘liq javob uchun – 5 baho, qo‘shimcha uchun – 4 baho, luqma tashlansa – 3 baho, javob bermasa – 2 baho, umuman ishtirok etmasa – 1 baho tarzida qo‘yilishni belgilash mumkin.

Guruh a‘zolarining javoblarini yuqorida ko‘rsatilgan tartibda baholash, ballarni qo‘yib borish, umumlashtirish uchun har bir guruh o‘ziga guruh qatnashchilaridan birini “hisobchi” etib tayinlashi mumkin (“hisobchi” ham davrada bo‘layotgan savol javoblar muloqotida ishtirok etadi).

10 – BOSQICH.

Ushbu bosqichda o‘qituvchi tarqatma materiallar asosida tuzilgan savollar (5-6 ta) bilan o‘quvchilarga murojaat qiladi (savollar iloji boricha hamma matnga tegishli bo‘lgani ma‘qul, shuningdek, o‘qituvchi sinfdagi barcha o‘quvchilarni javob berish uchun qamrab olishga harakat qiladi.)

Belgilangan savollarga javob berish tugagach, o‘qituvchi xattaxtaga guruhlar tomonidan to‘plangan ballarni yozadi va mashg‘ulotning keyingi bosqichiga o‘tadi.

11 – BOSQICH.

Bu bosqichda guruhlar bir-birlariga savollar beradilar, guruhlardagi “hisobchilar” esa guruh a‘zolarining javoblarini yuqorida belgilangan tartibda baholab boradilar. Javoblar to‘g‘ri bo‘lsa, savol bergan guruh javobni to‘ldirmaydi.

12 – BOSQICH.

O‘qituvchi guruh a‘zolari to‘plagan ballarni yana bir marotaba doskaga yozadi va to‘plangan ballar (baholar) ning umumiy sonini aniqlaydi. To‘plangan

ballar (baholar) ni umumiy sonini guruh aʼzolariga teppa-teng boʻladi (yuqorida kelishilganlik asosida).

IZOH: agar toʻplangan ballarni guruh aʼzolariga teppa-teng boʻlishda oʻquvchilar tomonidan norozilik boʻlsa, yaʼni baʼzi guruh aʼzolari guruhning faoliyatida faol ishtirok etib, umumiy jamoaviy faoliyatda passiv boʻlishgan boʻlsa, yoki umuman ishtirok etmagan, qiziqmagan boʻlishsa, bunday holatda vaziyatni yechishni guruh aʼzolariga yuklatiladi. Guruhning yechimi toʻgʻri hisoblanadi, yoki oʻqituvchi oʻz fikrini bildirishi mumkin, chunki u dars jarayonida oʻquvchilarning javoblari, faol yoki passivliklarini kuzatib boradi.

Umuman olganda, agar oʻquvchi faollik koʻrsatmagan, yoki savol-javoblarga ishtirok etmagan boʻlsa ham uning shu dars jarayonida biron narsani bilib olgani, eslab qolib oʻzlashtirganini hisobga olgan holda unga eng kichik ball berilishi mumkin. Bu oʻquvchini keyinchalik shu shakldagi darslarda faolroq boʻlishga undaydi. Yuqoridagi kabi vaziyat vujudga kelsa uni yechimini har bir oʻqituvchi sharoitga, faoliyatiga qarab oʻzi hal etishi yoki guruh, jamoaga tashlashi mumkin.

Baʼzida guruhning “hisobchilari” ballarni qoʻyishda noaniqlik yoki qoʻshib yozishlari mumkin, natijada, baʼzi guruhlarning umumiy toʻplangan ballari boshqa guruhlarnikidan juda farq qilishi mumkin. Oʻquvchilarning haqqoniy baholanishlari ularning tanlangan “hisobchi”lariga bogʻliq ekanligini oʻqituvchi eslatib oʻtadi. Agar umumiy toʻplangan ballarni guruh aʼzolariga taqsimlanganda shu mashgʻulot uchun belgilangan maksimal balldan ortib ketgan boʻlsa, u holda shu mashgʻulot uchun kerakli ballni olib qolib, ortiqchasini keyingi mashgʻulotlarga yoki yakuniy nazoratga oʻtkazish mumkin.

13 – BOSQICH.

Har bir oʻquvchiga ballar qoʻyilgach oʻqituvchi mashgʻulotga yakun yasaydi. Oʻquvchlarning faoliyatiga baho beradi, berilgan javoblarga oʻz fikrini bildiradi va quyidagi savollar bilan ularga murojaat qiladi:

bugungi mashgʻulotdan nimalarni bilib oldingiz?

nimalarga oʻrgandingiz?

nimalar sizlar uchun yangilik boʻldi?

yana nimalarni bilishni istar edingiz?

14 – BOSQICH.

Oʻqituvchi oʻquvchilarning javoblarini diqqat bilan tinglab ularga minnatdorchilik bildiradi va darsni yakunlaydi.

TRENING “MULOQOT”.

TRENING HAQIDA TUSHUNCHA.

Ushbu trening oʻquvchilarning dars jarayonida mustaqil fikrlashga, oʻz fikrlarini erkin holda bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan boʻlib, odatda bunday mashgʻulot tinglovchilarni kichik guruhlarga boʻlgan holda oʻtkaziladi.

MAQSAD.

Tanlangan mavzu, muammo asosida oʻquvchilarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga boʻlgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga

kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin bahslashishlariga sharoit yaratish.

O'TKAZILISH TARTIBI.

Mashg'ulotni boshlashdan avval o'quvchilarni muloqot, bahs-munozarani o'tkazishga qo'yilgan talablar, qoidalar bilan tanishtiriladi, so'ngra ushbu trening bosqichma-bosqich o'tkazilishni tushuntiriladi.

1 – BOSQICH.

O'qituvchi mashg'ulotni muloqotning mavzusini aniqlashdan boshlaydi, masalan, "Siz xalq og'zaki ijodidan ertaknimi eoki hikoyatlarni yaxshi deb o'ylaeciz". Shu mavzuni o'rtaga tashlab o'quvchilardan ertak va hikoyatlar tarafdorlarini aniqlab oladi. Ularni shu tartibda guruhlarga bo'ladi.

2 – BOSQICH.

Har bir guruhdagi tinglovchilar o'z mavzulari asosida kerakli materiallar: dalillar, misollar, aniq fikrlar, o'z fikrlarini tasdiqlovchi ko'rgazmali materiallar, imkoni bo'lsa videofilm, maqollar, mutaffakkir va olimlarning so'zlari va boshqalarni tayyorlaydilar. Guruhdan bir kishini himoya uchun tanlaydilar, qolganlar esa o'z fikrlarini qo'shimcha qilishlari mumkin. O'qituvchi guruhlarni tayyorgarlik ko'rishlari uchun sharoit va imkoniyatga qarab vaqt beradi.

3 – BOSQICH.

Guruhlar himoyaga tayyor bo'lgach, o'qituvchi guruhlarning biriga himoya uchun so'z beradi (himoyaga chiqish ixtiyoriy ravishda bo'lishi mumkin). Guruh vakili guruh nomidan so'zga chiqib ularga berilgan mavzuni tayyorlangan materiallar, dalillar asosida himoya qilishga kirishadi. Guruh vakili so'zini tugatgach, guruhning qolgan a'zolari o'z fikrlari bilan qo'shimcha fikrlar birdirishlari mumkin.

4 – BOSQICH.

Mashg'ulotning 3 – bosqichdagi kabi bu bosqichda ham trener navbatdagi guruh vakiliga himoya uchun so'z beradi. Ikkinchi guruh ham birinchi guruh kabi o'z mavzusi bo'yicha himoya qiladi. Himoya tugagach, trener mashg'ulotning keyingi bosqichiga o'tadi. Har ikkala guruhning himoyasi vaqtida trener iloji boricha ularga xalaqit bermaslikka, o'z fikr va mulohazasini birdirmaslikka, savol bermaslikka harakat qiladi, hech qaysi guruhga yon bosmagan holda muloqotni boshqaradi, guruhlar himoyasi vaqtida tartib saqlanishiga va muloqotni o'tkazishga qo'yilgan talab, qoidalarni to'liq bajarilishiga erishishga harakat qiladi. Bu bosqichda, asosan, ikki guruh erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatishlari kerak bo'ladi.

5 – BOSQICH.

Guruhlar bir-birlariga savol berishni boshlaydilar. Guruhlar tomonidan beriladigan savollar ular himoyasi vaqtida aytilgan dalillar, misollar, fikrlarni yanada oydinlashtirish maqsadida, shuningdek, o'z guruhlarining fikrlarini yanada ta'kidlab, isbotlab, qolganlarni ham shu fikrga qo'shilishlariga da'vat qilish uchun berilishi mumkin. Tinglovchilar erkin holda o'zlarining chiqishlari bilan barchaga ta'sir ko'rsatishga, o'z fikrlarini ma'qullashga harakat qiladilar. Trener bunday holatga sharoit, imkoniyat yaratadi, ya'ni u bahs-munozarani samimiylik bilan boshqaradi.

6 – BOSQICH.

Trener har ikki tomonning bir-birlariga savollari, aytadigan fikrlarini umumlashtiradi va o'zining bu masala haqidagi fikr va mulohazasini bayon etadi va guruh tinglovchilari tomonidan tushgan savollarga kerakli javobni berishga harakat qiladi.

Mashg'ulot oxirida trener har ikkala guruhning mashg'ulot jarayonidagi faoliyatlarini tahlil etib, ularga minnatdorchilik bildiradi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Ushbu treningning davomiyligi sharoitga qarab belgilanadi.

“BLITS – O‘YIN” TEXNOLOGIYASI.

TRENING HAQIDA TUSHUNCHA.

Ushbu texnologiya o'quvchi-talabalarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmet asosida ko'p xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchi-talabalar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkazi oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi.

MAQSAD.

Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olishga yordam beradi.

O‘TKAZISH TEXNOLOGIYASI.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1 – BOSQICH.

- Trener ushbu trening bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida tinglovchilarga (o'quvchi-talabalarga) tushuncha beradi. Har bosqichdagi vazifani bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi;

- O'qituvchi hamma tinglovchilarga alohida – alohida tarqatma material beradi va tinglovchilardan ushbu materialni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi;

- O'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifani tushuntiradi, ya'ni tarqatma materialda berilgan 13 ta harakatni ketma – ketligini to'g'ri belgilash kerakligi, belgini esa qog'ozdagi alohida ajratilgan bo'limga raqamlar bilan belgilash kerakligini tushuntiradi;

Qo'yilgan vazifa avval yakka tartibda bajarilishini aytadi.

2 – BOSQICH.

- O'qituvchi birinchi berilgan vazifani har bir tinglovchi tomonidan yakka tartibda bajarilishini kuzatadi, qiynalanganlarga yordam beradi, yoki qaytadan tushuntiradi;

- har bir tinglovchi tarqatma materialidagi “YAKKA BAHO” bo'limiga shu yerda berilgan harakatlardan o'zining shaxsiy fikri asosida mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi, ya'ni berilgan 13 harakatdan, uning fikricha qaysi biri, birinchi bo'lishi, qaysi biri esa ikkinchi bo'lishini va hokazo. Bu vazifani bajarish uchun trener tinglovchilariga 10 daqiqa vaqt beradi.

3 – BOSQICH.

- trener tinglovchilaridan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini soʻraydi. 3 kishilik guruhlar tinglovchilarning xohishlariga qarab yoki raqamlar boʻyicha tashkil etilishi mumkin;

- kichik guruhlardagi tinglovchilarning har biri oʻz qogʻozidagi yakka baho boʻlimida belgilangan harakatlar ketma-ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin 3 kishida uch xil boʻlgan ketma-ketlikni birgalashib, bir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga taʼsir oʻtkazib, oʻz fikrlariga ishonirib kelishgan holda bir muqimga kelib ularga tarqatilgan qogʻozdagi “GURUH BAHOSI” boʻlimiga raqamlar bilan belgilab chiqadilar.

- Trener kichik guruhdagi tortishuvlarda ishtirok etmaydi, faqat kichik guruhlar va har bir tinglovchi faoliyatini kuzatadi. Bu vazifani bajarish uchun 20 daqiqa vaqt beriladi.

4 – BOSQICH.

- Barcha kichik guruhlar oʻz ishlarini tugatgach, trener harakatlar ketma-ketligi boʻyicha toʻgʻri javobni beradi, yaʼni tinglovchilardan ularga tarqatilgan qogʻozlardan “TOʻGʻRI JAVOB” boʻlimini topishni va unga trener tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligining raqamlarini yozishni soʻraydi.

5 – BOSQICH.

- Trener “TOʻGʻRI JAVOB” boʻlimida berilgan raqamlardan “YAKKA BAHOSI” boʻlimida berilgan raqamlarni (yoki aksincha), yaʼni kattadan-kichikni ayirgan holda “YAKKA XATOSI” boʻlimiga chiqqan farqni yozishini soʻraydi. “YAKKA BAHOSI” boʻlimidagi sonlarni yuqoridan pastga qarab qoʻshib chiqish umumiysini hisoblashlari kerakligini uqtiradi.

6 – BOSQICH.

- Xuddi shu tartibda “TOʻGʻRI JAVOB” va “GURUH BAHOSI” oʻrtasidagi farq kattadan-kichikni ayirish orqali bajariladi, chiqarilgan farqlar soni “GURUH XATOSI” boʻlimiga yozilib, yuqoridan pastga qarab qoʻshiladi va umumiy son keltirib chiqariladi.

7 – BOSQICH.

- Trener yakka va guruh xatolarining umumiy soni boʻyicha tushuncha beradi, ularni alohida-alohida sharhlab beradi.

“YAKKA XATOSI” boʻlimidagi umumiy sonlarning sharhi:

- Agar yakka xatolar soni 30 gacha boʻlsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik, konstruktivlik qobiliyati yetarli, ular mustaqil ravishda har bir ishni tashkil eti oladilar, turli sharoitlardagi harakatlar vaqtida mantiqan ularning ketma-ketligini tashkil eta oladilar.

- Agar yakka xatolar soni 30 dan 40 gacha boʻlsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik qobiliyati yetarli emas, biron bir ishni yoki faoliyatni tashkil etishlarida qiynaladilar, yoki pala-partishlikka yoʻl qoʻyadilar. Shuning uchun ular alohida kurslarda oʻqishlari yoki mantiqan fikrlashga oʻrganishlari kerak boʻladi.

- Agar xatolar soni 40 dan yuqori boʻlsa, bunday tinglovchilarda tashkilotchilik, mantiqan fikrlash qobiliyati yetarli emas, ular oʻz ustilarida ishlashlari kerak boʻladi yoki maxsus treninglar, kurslarda oʻqishlariga toʻgʻri keladi.

“**GURUH XATOSI**” bo‘limidagi umumiy sonlarning sharhi:

- Agar xatolar soni 30 gacha bo‘lsa, bu guruhlardagi tinglovchilar bir-birlarini tushunishga harakat qilganlar, bir-birlarini ishonтира olganlar va natijada bir hil natijaga erishganlar.

KICHIK GURUHLARDA ISHLASH USULI.

Bulgarga: “fikriy hujum” (“fikr janggi”), sinektika, mojaro metodi, “dumaloq stol”, “uch bosqichli intervyu”, muammolarni hal qilish metodi, “stol o‘rtasidagi ruchka”, galeriyani aylanish, “akademik munozara”, “qor bo‘ron” metodi, “asalari galasi”, “kritik vaziyatni tahlil qilish” va boshqalar kiradi.

Bu metodlar bo‘yicha ishlash uchun bir necha kishidan iborat guruhlar tuzib, ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora muhokama uchun xalal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etish zarur.

Ushbu guruh metodikalari fikrlash doirasini kengaytirib, mavjud cheklovlarni nazardan qochirib turish, fikrlash faoliyati harakatchanligini rivojlantirish, o‘quv faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan. Ularning qiymati yangi o‘quv axborotini ishlab chiqish va mustahkamlashdan iborat.

Maqsadi

O‘quvchilarni ko‘proq jalb etish va ularning bir-biridan o‘rganishga imkon berish.

Yo‘l-yo‘riq berib turadigan murabbiyni “sahnadan” chiqarib yuborish.

Afzalliklari

O‘quvchilarga o‘z g‘oyalari va fikrlari bilan ko‘proq o‘rtoqlashish uchun imkon beradi

Kichik guruhlarda o‘quvchilar katta guruhlarda aytishlari mumkin bo‘lgan fikrlardan boshqacha fikrlarni aytishlari mumkin.

O‘quvchilar tajriba va g‘oyalar bilan o‘rtoqlashishlari mumkinki, bu – bilimlarni kengaytiradi va mavjud yondashuvlarni o‘zgartiradi.

Diqqat markazni pedagogdan (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi murabbiydan) qatnashchilarga ko‘chiradi.

O‘quvchilarni o‘qish uchun ko‘proq mas‘uliyatni o‘z ustlariga olishga majbur qiladi.

Kamchiliklari

- ancha ko‘p vaqt va qo‘shimcha joy bo‘lishini talab qiladi;

- o‘quvchilarning birortasi boshchilik qilishga o‘ta boshlashi, agar guruh bunga qarshilik ko‘rsatmasa, uning ustidan nazorat qilishni o‘z qo‘liga olishi mumkin;

- guruh o‘ziga berilgan topshiriqlardan chalg‘ib, yo‘l-yo‘riqlarga aniq amal qilmasligi yoki topshiriqlarni noto‘g‘ri tushunishi mumkin.

Pedagogga (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi murabbiyga) maslahatlar:

- topshiriqni aniq va ravshan qilib ta’riflab bering, keyin esa uni hamma tushunib olganiga ishonch hosil qiling;

- o‘quvchilarga ularning sihfda joylashib olishlari uchun vaqt bering va shundan keyingina ulardan topshiriq ustida ishlay boshlashga ruxsat bering;

- yo‘l-yo‘riqlarni loaqal bir marta takrorlang;

-o'quvchilarning yo'l-yo'riqlarga nechog'li aniq amal qilib borishayotganini va topshiriqlardan chetga chiqishmayotganini qayta-qayta tekshirib ko'ring.

“FIKRIY HUJUM” METODI

Metodikaning asosiy qoidalari:

- g'oyalarni shakllantirishga halal beradigan qanday bo'lmasin biror mulohaza va tanqidiy fikrlarni bajarmaslik;
- yangicha fikrni tabriklash va fikr qanchalik odatdan tashqari bo'lsa, uni shuncha yaxshi bo'lishini hisobga olish;
- eng ko'p sonda takliflar olish;
- g'oyalarni rivojlantirish;
- har tomonlama dalil-isbotlar keltirmasdan turib, qisqa fikrlarni bayon qilish;
- guruhni g'oya beradigan o'quvchilar va ularni ishlab chiqadigan o'quvchilarga bo'lish.

Bu metodika o'quvchilarni o'z nuqtai nazarini isbotlash, himoya qilish, har qanday vaziyatda eng ma'qul yechimni topish, muloqot olib borishga, himoya qilinayotgan nuqtai nazarning to'g'riligiga hammani ishontirishga o'rgatadi.

O'qituvchi topshiriqni tahlil qilishda har bir o'quvchi qatnashadigan bo'lishini kuzatib boradi, bunda javoblarning birortasi ham izohlab o'tilmaydi va o'rinsiz deb rad etilmaydi. Guruhda variantlar qolmaganidan keyingina muhokamaga kirishish mumkin: “? Hozirgi davr talabidan kelib chiqib qanday sohalarni tadqiq etish zarur deb o'ylaysiz?” O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda barcha variantlarni faollik bilan muhokama qila boshlaydilar. Va bu o'rinda noto'g'ri javoblarni tanqid qilishga va noto'g'ri bo'lib chiqqan variant xususida tanqidiy munosabatni asoslashga ruxsat berilmaydi. Faqat mashg'ulot oxirida o'qituvchi bilimlarni yanada mustahkamlash uchun to'g'ri variantlarni yozib olishni o'quvchilarga taklif etadi.

Metodning maqsadi – guruhdan qisqa vaqt ichida ko'p miqdor variantlarni olish, o'quvchilar nimalarni bilishini aniqlash. Mashg'ulot davomida muammoni hal eta oladigan g'oyalar taklif etilishi, umumiy tajriba yuzasidan fikr almashish uchun zamin yaratilishi va o'quvchilar istaklarini bildirishi mumkin. Bu jarayon mohiyati shundan iboratki, guruhga mavzu, savol yoki tugallanmagan taklif beriladi. Guruh a'zolari bir necha daqiqa davomida shu mavzu yuzasidan gaplashib, miyasiga nima kelsa, shularning hammasini aytishadi va bularning hammasini tinglash, bo'r bilan doskaga yoki bloknotga yozib borish tavsiya etiladi. Gaplarning hammasi, ular qanchalik noaniq, bema'ni yoki bahsli bo'lmasin, yozib qo'yilaveradi. Hamma o'z fikrini muhokama qilmasdan turib, bayon qiladi, chunki maqsad ko'proq miqdorda va xilma-xil takliflar olishdir. Bu paytda taqiqlar bo'lmaydi va hech qanday baholar berilmaydi. Qatnashchilarda takliflarni tahlil qilish, norozilik bildirish va taklif etilgan hamma fikrlarni muhokama qilib chiqish uchun keyinroq imkon bo'ladi. Agar faollik sust bo'lsa, o'qituvchi o'z fikrlaridan ba'zilarini yozib olishni taklif etishi mumkin, lekin bundan oldin u bir oz jim turishi kerak.

Metodning qiymati shundaki, u guruhni birlashtirib, yakdil qiladi. Har bir qatnashchiga uning taklifi yozib olishga arzigulik ekanligini sezish uchun imkon beriladi. Bu narsa muammoni yechishni musobaqaga aylantirmasdan, balki birgalikda bajariladigan ishga aylantirishga imkon tug'diradiki, bunda guruhning boshqa bir a'zosi emas muammoning o'zi asosiy raqib bo'lib qoladi. Shunisi muhimki, guruhning qiladigan hatti-harakatlari tartibini o'qituvchi fikriy hujumning eng boshidayoq tushuntirib berishi kerak. Guruhning topshiriqdan chalg'itishga yo'l qo'ymaslik ham muhim: fikr jangida ishtirok etishga o'rganib qolgan guruh ham takliflarni muhokama qilishga vaqtdan ilgari kirishib ketishi mumkin. Berilgan takliflarni yozib borish uchun bir kishini ajratish o'rinlidir. Bu narsa jarayonni quvvatlab borish va talabalarning fikrlash jarayoni sur'atlarini pasaytirmaslik uchun o'qituvchiga yordam beradi.

“Fikriy hujum” metodini tadbiq etish uchun tavsiyalar:

- u mavzuga mos keladigan bo'lishi uchun uni o'tkazishga yaxshi tayyorlanish;
- guruh oldida muhokama yuritish chun mavzuni aniq ta'riflab bering;

“Fikriy jang” odatda og'zaki shaklda bo'lib o'tadi: o'qituvchi savol beradi, o'quvchilar esa, munozaraga tushmasdan, o'z fikrlarini galma-gal bayon qilishadi, bunda hamma o'z fikrini aytib bo'lishi kerak;

g'oyalarning hammasini barchaga namoyish qilib ko'rsatib qo'yilmaguncha ularni muhokama qilmaslik nihoyatda muhim;

- jarayonning tartibi va maqsadini o'quvchilarga tushuntirib qo'yish lozim;
- xoh o'qituvchi bo'lsin, xoh o'quvchi bo'lsin ularning har qanday g'oyaga salbiy baho berishlariga yo'l qo'ymaslik kerak;
- g'oyalar ro'yxati kimdagi uzunroq bo'lsa, o'sha yaxshi hisoblanadi.

DUMALOQ STOL METODI.

Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'ylab o'tkaziladi. Har bir o'quvchi o'zining javob variantini yozib qo'yadi va varaqni boshqa o'quvchiga uzatadi. Hamma o'quvchilar o'z javoblarini yozib qo'yishadi, keyin muhokama bo'ladi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab o'quvchining bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og'zaki shaklda ham qo'llash mumkin.

Berilishi mumkin bo'lgan topshiriqlarga misollar:

- o'zbek tilida nechta unli tovush bor va ular qaysilar?;
- o'zbek tilida nechta undosh tovush bor?;
- bo'g'in nima?;
- gap nimalardan tuziladi?;
- nutqning qanday turlarini bildingiz;
- nom bildirgan so'larga misol keltiring;
- harakat bildirgan so'larga misol keltiring;
- belgi bildirgan so'zlar qaysilar?

Shuni esda tutish kerakki, yaxshi qo'yilgan savol, bu – javobning yarmisini o'ziga jo qilgan savoldir.

“RUCHKA STOL O‘RTASIDA” METODI.

Butun guruhga topshiriq beriladi. Har bir o‘quvchi bitta javob variantini bir varaq qog‘ozga yozib, uni qo‘shnisiga beradi, o‘z ruchkasini esa, stolning o‘rtasiga surib qo‘yadi.

Topshiriqqa misol:

O‘qituvchining guruhga beradigan topshirig‘ini hayotiy misollar bilan sharhlab berish.

Ajratilgan 10-15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko‘proq sonda javob variantlari berishi kerak. Bir varaq qog‘ozga yozilgan topshiriq bir o‘quvchidan ikkinchisiga uzatiladi. O‘quvchi javobni yozib, qog‘ozni keyingi o‘quvchiga uzatadi, ruchkasini esa, o‘ziga ro‘baro‘ qilib, stolga qo‘yib qo‘yadi. Javobni bilmaydigan o‘quvchi qog‘ozni keyingi o‘quvchiga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo‘lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo‘lishiga bu o‘rinda yo‘l qo‘yilmaydi.

Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog‘oz o‘qituvchida. U o‘sha variantlarni sanab o‘tadi.

Variantlar sanab o‘tilar ekan, ularning har biri bir yo‘la muhokama qilib boriladi:

“Ruchka stol o‘rtasida” metodining bir qancha afzalliklari bor:

-o‘qituvchi mashg‘ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko‘rib turadi;

-mashg‘ulotga tayyorlanmagan o‘quvchi og‘zaki muhokama paytida ko‘rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar olishi mumkin;

-bu guruhda olib boriladigan ish bo‘lib, o‘quvchilar intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o‘z varianti ustida juda uzoq o‘ylab o‘tiradigan o‘quvchi butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflaydi. Shuningdek, o‘quvchi mashg‘ulotga tayyor bo‘lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi, chunki guruh uning uchun ishlashi kerak bo‘ladi;

- o‘quvchilar o‘z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og‘zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

ROTATSIYA (AYLANMA) METODI BILAN FIKRLARNI KO‘RIB CHIQISH.

Bu metod mashg‘ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi va yozganlarini butun guruh tahlil qilib ko‘rishi uchun qo‘llaniladi.

Har bir kichik guruh 30 daqiqa davomida 3 ta topshiriqni muhokama qiladi, keyin 15 daqiqa davomida esa, muhokama birgalikda o‘tkaziladi.

Sinfga tartib raqamlari bilan birga bir nechta topshiriq osib qo‘yiladi. Har bir kichik guruh (2-3 kishi) 10 daqiqa davomida muhokama qilib, o‘z javobining variantini yozib oladi-da, so‘ngra keyingi topshiriqqa o‘tadi va oxirigacha shunday qilib boradi.

Har bir guruh o'ziga rangli flomaster oladi: 1 guruhda ko'k, II guruhda qora, III guruhda yashil flomaster bo'ladi. Qo'shimchalarni har kim har bir varaqqa o'zining rangli flomasteri bilan yozib boradi, shunda uchchala guruhdan har birining ishtiroki yaqqol ko'rinib turadi.

Topshiriqni 10 daqiqadan keyin almashtiriladi, 1 guruh 2-topshiriqqa, II guruh 3-topshiriqqa, III guruh esa 1-topshiriqqa o'tadi.

Guruh oldingi o'quvchilar tomonidan yozib qo'yilganlarni o'qiydi va o'z javobi variantini yozib, to'ldiradi, bunda variantning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yana 10 daqiqadan keyin guruh keyingi topshiriqqa o'tib, yozilganlarni o'qiydi va o'z javoblari bilan to'ldiradi.

Yana 15 daqiqadan keyin javoblar tahlil qilinib, muhokama o'tkaziladi.

So'ngra eng ma'qul javob tanlab olinib, daftarga yozib qo'yiladi.

Bu metod mavzuni jamoa bo'lib muhokama qilishni ko'zda tutadi.

Har xil rangdagi flomasterlardan foydalanish yozilganlarning yaqqol ko'rinib turishi va har qaysi guruhning javobdagi ishtirokini baholash uchun qulay. Yozilgan javoblar tartib raqamlari bilan belgilab qo'yiladi, bu – to'g'ri javoblarni hisoblash uchun qulaydir. Javoblarni hammadan ko'p sonda yozgan kichik guruh eng yuqori ball oladi.

DAVRALAR.

O'quvchilar davra qurib o'tirib, taklif etilgan savolni galma-gal izohlab chiqishadi. Har bir o'quvchi o'z fikrini bayon qilib, muhokamaga foydali ulush qo'shish imkoniga ega bo'ladi, chunki barcha qatnashchilarning fikrini bilish muhim. Lekin qatnashchilar o'z ixtiyori bilan navbatini o'tkazib yuboradigan bo'lsa, bu – tamomila odatdagicha hol. Ba'zan qanday bo'lmasin biror savol yoki topshiriq davra bo'ylab o'tkaziladi va uni olgan o'quvchi o'z fikrini aytish huquqiga ega bo'ladi.

Davra bo'lib ishlashda hamma, jumladan, o'qituvchi ham, teng huquqlidir; hamma bir-birini ko'rib turishi, vizual aloqani qo'llab-quvvatlab borishi va shu bilan bir vaqtda so'zlayotgan kishining gaplarini diqqat bilan tinglashi mumkin. Raundlardan ko'pgina maqsadlarda, jumladan baho berish, muammoni hal qilish, ijobiy mustahkamlash, davrani rejalashtirish, o'tkazish uchun foydalansa bo'ladi. Davrani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun hamma o'quvchilar va boshlovchi bir-birini ko'rib tura oladigan joy tayyorlash, ish tartibini tushuntirib berish zarur. So'zga chiqmaganlar diqqat bilan tinglab borishlari, aytilayotgan gaplarga izoh bermasliklari kerak, bunday qilish hattoki o'qituvchiga ham ruxsat etilmaydi. Oxirida hammaga ularning ishtirok etganliklari uchun tashakkur bildiriladi. Guruh bilan ishlashda davralar qoidalarini o'quvchilarga tushuntirib qo'yish zarur. Bunday o'yinga o'rganmagan guruh bilan ishlashni o'qituvchi nimalarni aytishni emas, balki nimalar qilish kerakligini o'quvchiga tushuntirib qo'yganidan keyin boshlashi lozim. Guruh bir qadar tajribali bo'lsa, davra mashqining kimdan boshlanishi ahamiyatga ega emas.

Davralardan o'quv mashg'ulotining boshi yoki oxirida foydalanish mumkin.

“GALEREYANI AYLANISH” METODI

Kichik guruhlarning hamma a‘zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir guruh 10 minut davomida o‘z fikrlarini yozadi-da, javoblar zikr etilgan varaqlarni ikkinchi guruh bilan almashtiradi. Keyingi guruh oldingi guruhning javoblarini baholashi va javob tugal bo‘lmasa, o‘z variantini taklif etishi kerak.

MUNOZARA

Munozara – bu ikki yoki bundan ko‘proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasida og‘zaki ravishda o‘zaro olib boradigan bahsi, munozarasi, masala talashuvidir. Uning asosida kamdan-kam hollarda yashirin mo‘ljal pinhon yotadi, bu o‘rinda faqat nazariy qiziqish va oqillik bilan keltirilgan dalil yordamida opponentdan ustun kelish ishtiyoqi bo‘ladi. Munozara nazariya yoki g‘oyalarni targ‘ib qilish maqsadida emas, balki mamnun bo‘lish va qatnashchilarga bilim berish maqsadida olib boriladi. Munozara mavzui hamisha taklif ko‘rinishida maydonga qo‘yilishi kerak, gap namalar to‘g‘risida ketayotgani juda ham aniq-ravshan bo‘lishi uchun esa jummalarni sinchiklab tuzib olish lozim. Munozarada, hech bo‘lmaganda, ikki nafar so‘zlovchi va rais qatnashadi. Qatnashchilarning biri taklifni qo‘llab quvvatlab chiqsa (munozarani ochuvchi kishi), ikkinchisi – bu taklifga qarshi bo‘lib chiqadi – opponent bo‘ladi. Munozaralarda boshqalar ham biror tomon tarafdori bo‘lib so‘zga chiqishi mumkin.

Munozara ochuvchi kishi va opponent, shuningdek qo‘shimcha ravishda so‘zga chiqadiganlar o‘z so‘zlarini oldindan tayyorlab olishlari kerak. Har bir kishi muayyan vaqt davomida, odatda, 15 daqiqa so‘zlaydi, har qaysi tomondan qo‘shimcha ravishda so‘zga chiquvchilar ko‘p deganda 2 kishi bo‘lishi va ularning so‘zlash vaqti 5 daqiqadan ortmasligi kerak. Munozara ochilishidan oldingi yarim soat davomida guruhning har bir a‘zosi uning mavzui yuzasidan fikr bildirishi – unga qo‘shilishi yoki qarshi chiqishi mumkin. Bunga 3 daqiqa beriladi, ikki marta so‘zga chiqish ruxsat etilmaydi. So‘zga chiquvchilarning hammasi raisga murojaat qilishadi, uning qarori uzil-kesil bo‘lib hisoblanadi.

So‘zga chiqish tartibi quyidagicha:

- munozarani ochuvchi;
- opponent;
- munozarani ochuvchining yordamchilari, agar ular bo‘lsa;
- opponent yordamchilari;
- sinfdagilarning so‘zga chiqishi;
- munozarani ochuvchi.

Raisning asosiy vazifasi munozara tartibiga qattiq amal qilinishi va so‘zlovchilarning munozara mavzuidan chetga ketmasligini kuzatib borishdan iborat.

“AKVARIUM” METODI

Guruhdan ixtiyoriy ravishda 3 kishi tanlab olinadi. Bular sinfning o‘rtasidan joy oladilar – go‘yoki “baliq”, qolaganlar esa, kuzatuvchi bo‘lishadi. Shu kichik guruhga bir vaziyat taklif etiladi, ular buni 10– 15 daqiqa davomida birgalikda muhokama qilishlari, kuzatuvchilar esa, davradagi o‘rtoqlarining to‘g‘ri yoki

noto'g'ri javoblarini yozib borishlari kerak. Avval "baliqlar" g'oyasi taklif etiladi, uni kuzatuvchilar muhokama qilishadi, keyin kuzatuvchilar o'z g'oyalarini taklif etishadi, shu g'oyalardan eng yaxshisining muallifi o'z g'oyasini taklif etmagan o'quvchi o'rniga kichik guruhga o'tadi.

Bu metodni xuddi "Nima, qaerda va qachon?" nomli o'yini singari o'tkazish mumkin, o'qituvchi oldindan tayyorlab qo'yilgan savollarni beradi, o'quvchilar bularni 1 daqiqa davomida muhokama qilib, javob berishadi. Javoblar qanoatlanarli bo'lmasa, stolga boshqa uch nafar o'quvchi borib o'tiradi va o'yin davom etadi.

"Akvarium" metodining afzalliklari:

- mavzu birgalikda muhokama qilinadi;
- metod mavzuni qismlarga ajratishga, o'quvchilar bilimlarini tekshirishga imkon beradi;
- munozara olib borish malakasi rivojlanadi;
- mashg'ulot o'yin ko'rinishida o'tadi;
- har bir o'quvchi ishtirok etadi.

Test topshiriqlari:

1. Interaktiv usullarning nechta turi mavjud.

- A. 2 ta.
- B. 3 ta.
- C. 4 ta.
- D. 5 ta.
- E. 6 ta.

2. Quyidagilardan interaktiv usullarni aniqlang.

- A. Kognitiv usullar.
- B. O'yinlar, eksperimental faoliyat.
- C. Ishbilarmonlik o'yinlari, modellashtirish.
- D. Amaliyot orqali o'qitish, bevosita faoliyat.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

3. Aqliy hujum qanday usul?

- A. Ko'plab g'oyalarni ishlab chiqadigan usul.
- B. O'quvchining faolligiga tayangan usul.
- C. Ko'rgazmali usul.
- D. O'qituvchi uchun qulay usul.
- E. Guruhda qo'llaniladigan usul.

4."Blits o'yin" interfaol metodi qanday metod?

- A. Harakatlar ketma –ketligi to'g'ri tashkil etishga qaratilgan.
- B. Mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p,xilma-xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.
- C. Oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usularini qo'llash orqali ularni mantiqiy tanqidiy,ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.
- D. A va B javoblar to'g'ri.
- E. Hamma javoblar to'g'ri.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

- 1, Qanday interaktiv metodlarni bilib oldingiz?
2. O'rgangan metodlaringizdan qaysilari boshlang'ich sinflar uchun samaraliroq?
3. O'rgangan interaktiv metodlaringiz asosida dars loyihalarini tayyorlang va algoritmini ishlab chiqing.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T-Ma'naviyat-2008 y.
2. I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi" T-1999 y.
3. Azizxodjayeva N. "Pedagogik texnologiya va mahorat"., Toshkent., TDPU., 2006 y.
4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov "Pedagogik texnologiya" ma'ruza matn 2009 y.
5. J.G` Yo`ldoshev "Pedagogik texnologiya asoslari" T., O`qituvchi, 2004.

6-mavzu. Muammoli o'qitish texnologiyasi.

Reja:

1. Muammoli ta'lim mohiyati
2. Muammoli vaziyat.
3. Muammoli ta'lim shartlari.
4. Muammoli ta'limning asosiy metodlari.

Tayanch tushunchalar

Muammoli texnologiyalar, o'quv muammosi, ijodiy suhbat, muammoli vaziyat, muammoli bayon, mustaqil fikr

Muammoli o'qitish bu takomillashgan o'qitish texnologiyasidir. Hozirgi oliy maktabdagi samarador o'qitish texnologiyasi - bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o'qitish jarayonida talabning mustaqilligi o'qitishniig reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi.

Hozirgi psdagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli tarif va tavsiflar bor. Biznpngcha, nisbatan to'liq va aniq ta'rif M.I.Maxmudova tomonidan berilgan bo'lib, unda muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalari va talabalarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo'lgan qiziqish va talab...) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil atadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qotidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayonni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda ob'ektiv konuniyatlari didaktik tamoyillarga tayanadi. O'qitishshshg hozirgi jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vazit, kutilgan xayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsional «hissiy holati unga fikrlash va aqliy ishlash uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik «vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas. U bilish maqsadlari maxsus takozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izliri aa yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'la bermasligini ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashakqat muammoli bo'lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. *Muammoli vaziyat* har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda talaba mashaqqat talab qilgan ob'ekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi.

Shunday qilib, *muammoni xosiyatining* moxiyati shundaki, u talaba tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi znddiyatdir. Ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- *talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;*
- *vazifalarni bajarish uchun talabaga berilidigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashakkatini hal kilishda ularning shaxsiy manfaatdoli.*

Muammoli vaziyatdan chiqa olish hamma vaqt muammoni, ya'ni noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va echimini anglash bilan bog'langan.

Muammoli vaznyatning fikriy taxlil qiladigan bo'lsak, mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib ksladi. Bu urinda izchillik yorqin ko'rinadi avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi.

O'qitish amaliyotida boshqa variant - o'sha muammo tashqi ko'riishda muammoli vaziyat yuzaga kelishsha munofiq kelganday bo'ladigan varnant ham uchraydi. Fikrlar, luqmalar nazaray qoidalar ziddiyatlar shaklidagi, savollar ko'rinishidagi muammoni ifodasi odatda «nimaga» savoliga javob bo'ladigan muammoli vaziyatning mavjudligini aks ettiradi.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), nomalum (ularni topish ya'ni bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (talabalar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo talabaga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin talabalar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki echilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, talabalar biladigan vazifa va uning mustakil hal qilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning echilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi.

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

- *yangi bilimlarni shakllanpsrinishga olib keladigan noma'lumning bo'lishi;*
- *talabalarda noma'lumni topish yo'lida talantni amalga oshirshi uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasi bo'lishi.*

O'quv muammosini echish jarayonida talabalar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning echilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qilish hamda uni asoslashdir.

O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uni hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari, malum va nomalumiing o'zaro munosabati xarakteri bilimga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, muammoli o'qitishning zaruriy sharti talabalarda uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabitni vujudga keltirish hisoblanadi.

Talabalarning muammoli o'qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda talabalar mashg'ulotda *muammoni ifodalab berishdan* iborat bo'ladi, ya'ni bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo'lishi mohiyatini (ya'ni ushbu damda unga nima ma'lum bo'lsa) so'z bilan ifodalab beradi, so'ngra muammoning echilish usullarini qidiradi va bunda turli taxminlarni olg'a suradi, talabalar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi, izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so'ng tugallanadi.

Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: *muammoli vaziyat - o'quv muammosi - o'qituvchi muammosini echish uchun izlanish - muammoning echilishi.*

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon talabalarga tayyor haqiqatni (echimini) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

Muammoli o'qitish bilimlarni ongli va mustahkam o'zlashtirish, atrof-muhitga o'zining faol munosabatini belgilab olishda talabalar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Muammoli o'qitishda o'qituvchi talabalarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina talabalar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarni shakllantirish, qo'lga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq etishga intiladi.

Ayrim hollarda o'qituvchi talabalarda nafakat qiziqshi uyg'otishi kerak, balki o'quv muammosini o'zi hal qilib qo'ymasligi va boshqa hollarda talabalarning o'quv muammosini echishdaga mustaqil ishlariga rahbarlik qilish lozim, natijada talabalarda bilimlarga mustaqil erishish qobiliyati shakllanadi hamda gipoteza qo'yish va uni isbotlash orqali yangi aqliy harakat usullarini topadi, bilimlarni bir muammodan boshqa ko'chirish ko'nikmasini hosil qiladi, diqqat va tasavvurlari rivojlanadi. Talabalar muammoli o'qitish jarayonida muammoli vaziyatda o'quv materiallarini idrok qilish orqali bilim va aqliy harakat usullarini o'zlashtirar ekan, o'rganilganlarni mustaqil tahlil qilar ekan, gipotezalar qo'yish va ularni isbotlash orqali o'quv muammolarini shakllantirar ekan, unda talabalarning intellektual faolligi ta'minlanadi.

Shunday qilib, muammoli o'qitishning vazifasi talabalar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatlari usullarini samarali o'zlashtirishga xamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini hosil qilish, bilish, mustahkamlashga o'quv va tarbiya muammolarini hal qilishidir.

O'quv jarayonining amaliy tahliliy muammosi o'qitishning o'ziga xosligini belgilash imkoniyatini ochadi. Muammoli o'qitishning mohiyati ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgai axborotlarni o'qituvchining maxsus tashkil qilishidan iboratdir.

Muammoli o'qitishni tashkil etishning birinchi sharti o'quv axborotlarining takomillashib borishi tizimidir.

Muammoli o'qitishning ikkinchi shartida muammoli o'qitish amalga oshiriladi va unda axborotning o'quv vazifasiga o'tkazilishi vaqtida uni echish usulini tanlash imkoniyati ko'zda tutiladi.

Muammoli o'qitishning uchinchi sharti talim oluvchining subektiv mavqei, ularning bilish maqsadlarini anglab etishi va qaror qabul qilishi, masalani hal qilish ia natijani qo'lga kiritish uchun o'zlarining ixtiyorida bo'lgan vositalarni baholay bilishidir.

Muammoli o'qitishga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi unda qo'llanadigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda: ijodiy, qisman-ijodiy evristik, axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish asosiy metodlar hisoblanadi.

Ijodiy metod ta'lim oluvchining ijodiy mustaqilligini to'la amalga oshiradi. Unda talaba o'qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtda o'zlari ham o'quv muammosini shakllantiradi, o'zlari mustaqil gipotezani echishga harakat qiladilar, izlanishni amalga oshiradi va pirovard natijaga erishadilar. Shu tariqa

ijod metodi qo'llash bilan talabalar faoliyati olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi. O'qituvchi faqat talabalarning ilmiy izlanishlariga umumiy rahbarlik qiladi, vazifalar esa ularning mustaqil o'quv-bilish xatti-harakatlarining to'la davriyligini ko'zda tutadi: yo tahlilgacha axborotlar kelishiladi yoki echilishiga qadar o'quv muammosi qo'yiladi hamda echimlar tekshirib ko'riladi va yangi bilimlar joriy qilinadi.

Ijodiy metoddan o'rganilayotgan kursning umumiy asoslarini qamrab olgan eng muhim mavzularni o'tishda foydalanish tavsiya kilinadi. Bu esa boshqa barcha materiallarning tobora ongli o'zlashtirilishiga olib kelishi lozim. Shuningdek, bunday metodda mashg'ulot o'tkazish uchun o'qituvchi tanlangan bo'lim yoki mavzu talabalarning idrok qilishlariga qulay bo'lishini nazarda tutishi lozim bo'ladi.

Ijodiy metod ta'lim oluvchidagi uzoq vaqtni va maxsus sharoit yaratilishini talab qiladi.

Talabalarning ijodiy ishlari shakliy jihatdan rang-barangdir. Ular ma'ruza matnini tayyorlash va seminarga tayyorgarlik ko'rish, u yoki bu masalaning nazariy holatini (adabiyotlar bilan birma-bir ishlash, hujjatlarni arxivdan o'rganish) o'rganish, ko'rgazmali qurollar, didakgik materiallar tayyorlash va boshqalardir.

Qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo'laklarga ajratib, uning qulay masalalarini bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo'llanadi va unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini echishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda talabalar o'quv muammosining qo'yilishida, gipotezani taxmii qilish va isbotlashda faol kirishadilar. Ular faoliyati reproduktiv va ijodiy unsurlarini o'zida qamrab oladi. Bunda o'qitishning qidiruv (izlanish) suhbat, talabalarning javoblari va to'ldirishlariga qo'shimcha qilgan holda o'qituvchining faktlarini kuzatish va umumlashtirish usullari qo'llanadi. Bu hollarda talabalarning reproduktiv va qidiruv (izlanish) faoliyatining muvofiqligiga muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o'quv muammosining mustaqil hal qilishdan to'ulardan aksariyati echilgunga qadar kuchli o'zgarib turishi mumknn.

Mashg'ulotlarda ijodiy suhbatni qo'llash maqsadga muvofiq topiladi. Talabalar bunday suhbat jarayonida o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan bilimlari, ijodiy faoliyati tajribasiga asoslangan holda o'qituvchi rahbarligida muammoni izlaydi va mustaqil ravishda uning echimini topadlar. Talabalar o'z tashabbuslari bilan savollarga javob beradilar yoki o'z chiqishlarida turli mulohazalarni bildiradilar, muammoning echilishidagi o'z variantlarini ilgari suradilar, hodisalar o'rtasidagi rang-barang, aloqalar borasida bahslashadilar, boshqalarning fikriga tanqidiy munosabat bildiradilar. Bu jarayonda o'qituvchining talabalarga yordam berish darajasi ularning mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ijodiy suhbatga tayyorlashda o'qituvchining unga o'ta mas'uliyat bilan yondoshishi talab qilinadi. O'qituvchi bunday suhbatga oldindan jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim: avvaldan shunday savollar o'ylab topishi kerakki, ular talabaning u yoki bu hodsaning mohiyatini anglab etish va uning echilish yo'llarini bashorat qila olsun. O'qituvchi talabalarning umuman muammoni echish

uchun etarli darajada tayyorgarlik ko'rib kelmasligini ham ko'zda tutishi va bunday vaqtda sodda va murakkablashtirib boruvchi qo'shimcha savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, bunday savollar orqali talabalar ijodiy hal qilishi shart bo'lgan vazifalarni qismlarga ajratish ham zarur bo'ladi, yani muammo kichik muammolarga bo'linadi va muammoli vazifa echiladi. O'qituvchi bunday vaziyatda vazminligini saqlashi, talabalarga tezroq yordam berish, kamchiliginn tuzatish va yanglish fikr bildirganlarga tanbeh berishga shoshilmasligi, balki qo'shimcha savollar bilan o'zlarining xatosini anglashga va to'g'ri qaror qabul qilishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy suhbat davomida kamroq tayyorgarlik ko'rgan, jonli fikr olishuvlarda, shuningdek, indamaslikni xush ko'radigan talabalarga alohida ahamiyat berish lozim. Bunday talabalarning hulqlarini ko'zda tutgan holda ulardan ham «nido chiqishi»ga erishish maqsadida ular uchun ham avvaldan savollar tayyorlab qo'yish ma'qul bo'ladi.

Ijodiy xarakterdagi suhbat o'quv-tadqiqot ishlarining zaruriy bosqichi hisoblanadi. Unda talabalarning o'zida tadqiqot ishlari unsurlari mavjud bo'lgai qisman-ijodiy faoliyatning bajarilishini talab qiladigan muammoli xarakterdagi mantiqiy masalalar diqqatni jalb qiladi.

Materialni muammoli bayon qilish. Bunda ijod o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va tobora faollashtirib boriladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishda uning echilishini o'zi taminlaydi. Bunda o'qituvchi ziddiyatlarni ta'kidlaydi, uni barchaga eshittirib muhokama qiladi, o'z mulohazalarini bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida asoslaydi. O'qituvchi bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshira olsa, talabalar uning fikrlari borishiga diqqat bilan qo'shilib boradi, muammolarning echilish oqimiga qo'shilib ketadi, birga fikr yuritadi, birga hayajonlanadi, shu tariqa mashg'ulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda o'qituvchi talabaning bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish yo'li bilan boshqaradi va shu orqali auditoriyadagi o'rganilayotgan materiallar bo'yicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi va talabalarni o'ylab fikr yuritishga majbur qiladi. O'qituvchi tushunilmagan savolni hal qilishidan oldinoq talabalar o'zlaricha o'z javoblarini tayyorlab qo'yadilar va uni ma'lum muddat o'tgach o'qituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Materialni muammoli bayon qilish axborotni bayon qilishdan tubdan farq qiladi, chunki unda u yoki bu hodisaning belgilari, xossalari, tushunchalari, qoidalari shunchaki tasvirlab beriladi, tayyor xulosalar bayon qilinadi.

O'quv axborotlarining muammoli bayoni metodidan foydalanishning boshqa varianti fan taraqqiyoti tarixidagi u yoki bu qonunning olimlar tomonidan kashf etilishi yo'lini yoritib berish bo'lishi ham mumkin.

O'quv jarayomida keng tarqalgan metodlardan biri - *shartli ravishda o'quv axborotlarining bayonini muammoli boshlash* deb nomlanadigan metoddir. Materialni muammoli bayon qilish metodidan bu metod muammoli ham, faqat materialni bayon qilish boshidagina yaratilishi bilangina farqlanadi. Keyinchalik material axborot usulida bayon qilinadi. Albatta, bu metod yuqorida talabaning ijodiy izlanish faoliyati, ayniqsa, ijodiy metodida ko'ringan ko'nikmalarni hosil qilishga imkoniyat bermaydi, lekin talabalarning mashg'ulot ibtidosida olgan

ilhomlari barcha materialni faol idrok qilishga, unga yuqori qiziqish uyg'otishga bevosita turtki beradi. Yuqoridagi barcha metodlar orasida bu metod o'zining oddiyligi bilan ajralib turadi.

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi ehtimol ko'ringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: o'quv materialiga talabalar diqqatini jalb qilish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, talabalarning bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellektual zo'riqish mashaqqatlariga olib kelish, talabalar tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va ko'nikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bo'lgan talablarini qondira olmasligini ko'rsata bilish, talabalarga o'quv muammolariiii tahlil qilishga, uning echilishidagi eng ratsional yo'llarni aniqlashda yordam berish kerak.

O'quv jarayonidagi muammoli vaziyatning bir necha turlari farqlanadi:

1. Talabalar qo'yilgan vazifaning echilish usulini bilmaydilar, muammoli savolga javob berolmaydsht.

2. Talabalar avval olgan bilimlarini yangi sharoitda foydalanish zaruriyatiga duch keladilar.

3. Vazifaning nazariy jihatdan echilishi mumkin bo'lgan yo'li va tanlangan usulning amaliy jihatdan qo'llash qiyinligi orasida ziddiyat yuz beradi.

4. Vazifaning bajarilishida natijaga amaliy erishish va talabalarda uni nazariy jihatdan asoslashga bilim etishmasligi o'rtasida ziddiyat yuz beradi.

Adabiyotlarda muammoli vaziyat yaratishning quyidagi ko'p uchraydigan usullari qayd qilinadi:

- *hodisalar, o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini tushuntirish uchun muammoli vazifalar ko'yish;*

- *olingan bilimlarning amaliy tadbiqu usullarini topish uchun muammoli vazifa ko'yish;*

- *talabalarni hodisalar va harakatlar orasidagi ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni tushuntirib berishlariga undash;*

- *ilmiy tushunchalari va hayotiy tasavvurlari orasidagi ziddiyatni keltshrib chiqaradigan fakt va hodisalarni tahlil qilishga undash;*

- *talabalarni fakt, hodisa, xatti-harakatlar, xulosalarni solishtirish, kiyos qilishga undash;*

- *talabalarni go'yo tushunib bo'lmaydigan xarakterdagi va fan tarixida ilmiy muammoning qo'yilishiga sabab bo'lgan faktlar bilan tanishtirish.*

Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari uning boshqa variantlariga chek qo'ymaydi. Har bir o'qituvchi o'zining amaliy faoliyatida o'quv materiallari bilan ijodiy ishlash jarayonida uni tashkil qilishniig turli imkoniyatlarini qidirishi va topishi mumkin.

Talabalarning fikrlari tobora qiyomiga eta borib, *muammoli vaziyat* ularda ma'lum hissiy hozirlikni vujudga keltiradi, mustaqil amalga oshirilgan bilish jarayonidan, kashfiyotlardan qoniqish hosil qiladi. Hayratga tushish, tushkunlik yoki shodlik hissiyotlari muammoli vaziyatni to'g'ri tashkil qilish belgilari bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, yuqori ko'tarinkilik bilimlarni samarali o'zlashtirish, haqiqatni qidirish va unga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Muammoning murakkabiligi, talabalarning bilim saviyasi va malakasni, ularning ijodiy faolligi ko'nikmalari, didaktik maqsadga yo'nalganligiga qarab muammoli o'qitishda talaba va o'qituvchi o'zaro munosabatlarining turli variantlari bo'lishi mumkin, yani *muammolilikniig turli sathlari* amalda bo'lishi mumkin.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan muammolilikning uch sathi haqida fikr yuritiladi:

Birinchi satxda o'qituvchi o'zi muammoni qo'yadi, uni shakllantiradi va talabalarni mustaqil ravishda uning echilish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

Ikkinchi satxda o'qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, talabalar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va echadilar.

Uchinchi sath - oliy sath bo'lib, unda o'qituvchi shunday qoidani ko'zda tutadi: muayyan muammoni ko'rsatib bermaydi, balki unga talabalarni «ro'baro'» qiladi hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyagga yo'naltiradi, ularni boshqaradi va natijani baholaydi. Talabalar esa muammoni mustaqil anglyadilar, uni shakllantiradilar, uning echilish usullarini tadqiq qiladilar.

O'quv muammosinipg qo'llashsh jarayonini osonlashtirish uni muayyan tartibga rioya qilishi lozim bo'ladi. Muammoli vazifalarni tashkil qilishdan oldin talabalarning sabab-oqibat aloqalarini o'rnata olish usullarini egallaganligiga ishonch hosil qilish, talabalarning muammoli vaziyatni tahlil qila olish darajasini o'rganish shartdir. Shuningdek, o'qituvchi talabalar e'tiboriga faqat ular uchun qulay bo'lgan muammolarni qo'ymasligi ham mumkindir. Shu bilan birgalikda muammoning echilishi uni to'g'ri qo'ya bilishga ko'p jihatdan bog'liq ekanligini unutmaslik zarur.

Bu qoidalarni amalga oshirish avvalo o'quv materialining mazmun xususiyati bilan bog'liqdir. Uning tarkibi va tuzilmasiga qator talablarni qo'yish mumkin.

O'quv materiali quyidagi mazmunni qamrab oladi:

- *yangilik unsurlari (yangi tushunchalar, yangi belgilar, xususiyatlar, noma'lum tushunchalarning jihatlari, yangi aloqalar, harakatlanishning yangi usullari);*

- *faktlar, bilish vazifalari va masalalari, ziddiyatlari ko'rinishidagi materiallarni qamrab olgan ma'lum va yangi bilim o'rtasidagi ziddiyat;*

- *umumpedagogik va didaktik tamoyillarni hisobga olgan pedagogik nazariyaning metodologik asoslari materialni mavzuga muvofiq bayon qilshi.*

Shuni ta'kidlash lozimki, o'qitish jarayoni faqat «muammoli» yoki «nomuammoli» metodlar yordamidagina amalga oshmaydi, balki uning samarali borishi uchun xilma xil metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi mashg'ulotning maqsadi, o'quv materiallarining mazmunini to'plash, auditoriyada qatnashgan talabalarning xarakteri, ularning tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda ularni tinglash hamda birini ikkinchisi bilan bog'lashni amalga oshiradi. Shundagina o'quv jarayonining yuqori samaradorligi ta'minlanadi. Shuningdek, muammoli o'qitishning samaradorligi ko'p jihatlardan talabalarning ijodiy faoliyatga, muammoni ifodalash va echishga bo'lgan tayyorgarligiga bog'liq

bo'ladi. Ularni ijodiy faoliyatga jalb qilishda muammolilik bayonidan asta-sekin tadqiqot ishlariga o'tish, muammoli o'qitishning barcha metodlari zanjirida asta-sekin oddiydan murakkabga o'tish tavsiya etiladi.

Agar o'rganilayotgan kursning (bo'lim, mavzuning) mohiyatini, ulardan foydalanishning zarur metodik materiallari va qoidalarini talabalar bilmasa va anglamasa, o'qituvchi ularning ijodiy faoliyatini tashkil eta olmaydi.

Demak, muammoli o'qitish etarli darajada samarali bo'lishi uchun u yaxlit o'quv-tarbiya jarayoniniig uzviy qismi bo'lishi kerak.

Muammoli lektsiyalar o'tkazish jarayonida talabalarda ijodiy faoliyatga zarur bo'lgan motivlar, qimmatli yo'l-yo'riqlar va yo'llanmalarning shakllanganligi muhim o'rin egallaydi.

Ta'kidlash joizki, o'quv faoliyati motivlarining doirasi juda ko'p motivlar yig'indisi bo'lsa-da, ulardan ikki guruhi belgilovchi hisoblanadi.

To'rtinchi guruhga maxsus motivlar talluqli. Ular talabalar tomonidan barcha hayotiy ehtiyojlarni chuqur anglash, mutaxassis bo'lib etishishi uchun bilimlarni egallashning ijtimoiy zarurligini tushunishni qamrab oladi. Bu guruh motivlarini o'qituvchi kursning amaliy xarakteri va kasbiy yo'nalganligini namoyish qilish orqali talabalarining tushunchalarini amalda qo'llash orqali kuchaytirish mumkin.

Ikkinchi guruh motivlari o'quv fanlari va bilishga bo'lgan qiziqish bilan bog'langan. Bu guruh motivlari mohiyatini o'qituvchi talabalaridagi o'quv fanlariga bo'lgan qiziqishni bilish to'g'risidagi bilimlarni shakllantirish orqali kuchaytirish mumkin. Buning uchun lektsiya jarasida xatti-harakatlarning namunaviy usullari, tushunchalar tizimining mantiqiy usullari, aniqlanmalar, hislatlar va boshqa isbotlovchi qurilmalariniig «tushunchalar asosida xulosalar» xatti-harakatlari shakllanishining didaktik qimmatini belgilovchi o'quv materialiga urg'u beriladi.

Talabalarda yuqorida bayon qilingan malakalarni shakllantirish uchun lektsiyani o'tkazish uchun shunday tayyorgarlik ko'rish ko'zda tutilishi kerakki, ular tayyor bilimlarni chaqqonlik bilan harakat usullariga aylantira olsin. Bu didaktik maqsadga erishish uchun talabalarining echimlarni qanday shakllantirishlariga, u yoki bu ifoda qaysi talablar asosida qoniqtirilayotganiga, dastlabki omil, argumentlar, xulosalarga diqqatni jalb qilish lozim.

O'qitishning bu mstodini lektsiya o'qishning axborot - tasviriy yondashuvdan qisman ijodiy va ijodiy metodga o'tish orqali amalga oshirish mumkin, ular talabalarda lektsiyaning turli bosqichlarida va sharoitlarida muayyan bilish mashaqqatlarini tug'diradiki, ular o'qitish jarayonida avval shakllangan bilim va ko'nikmalarni joriy etish hamda qayta ishlash asosida muvaffaqiyatli hal kilinadi.

Talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlash tizimida o'qituvchining lektsiya jarayonida ularga e'tibor qaratish, o'quv-bilish faoliyatiga mos ko'rsatmalarni bera olishi muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda lektsiyada o'quv fani mazmunining umumiy-ta'limiy qimmatini isbotlash bilan birga uning shaxs intellekti, dunyoqarashi, bilimlarni tasniflash va ko'llash usullari, ulardan tejamli

foydalanish hamda to'g'ri baholay olish tarbiyasiga ta'sir etishni ham isbotlash lozim bo'ladi.

Shuningdek, bunday eksperiment (amaliyot), egallangan bilimlar, fikrlarni (hukmlarni) ko'rish usullarining haqiqiylikini tasdiqlashga qaratilganligi ta'kidlanishi lozim. O'quv mashg'ulotlarining bunday borishi talabalarda ilmiy-nazariy tadqiqot va eksperiment o'tkazish malakasini shakllantiradi, bu bilan ular ilmiy ijod kengligiga, ishchanlik muloqotiga chiqadi, tadqiqotning bosqichlarini rejalashtiradi, uning maqsad va vazifalarini ifodalaydi, metodikasini ishlab chiqadi.

Muammoli o'qitishning talablar darajasidagi sifatini ta'minlash, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish maqsadida *seminarlar* o'tkazish mumkin.

Ma'lumki, bunday seminar o'tkazishning dastlabki maqsadi ma'ruza yoki axborotni jamoa bo'lib muhokama qilishdir. *Seminarning samaradorligi* albatta talabalarni unga tayyorlash sifatiga bog'liq. Ayniqsa, ma'ruza va axborot tayyorlayotgan talabalar bilan ishlash muhim ahamiyatga ega.

Test topshiriqlari:

1. Qaysi qatorda muammolikning to'rtinchi darajasi (sathi) ifodalangan?

- A) O'qituvchi muammoni qo'yadi, o'quvchilar esa mustaqil yoki o'qituvchining raxbarligi ostida muammoni echadilar;
- B) O'quvchi muammoni o'zi qo'yadi va uni o'qituvchi echadi;
- V) O'quvchi muammoni o'zi qo'yadi va uni echadi;
- G) O'quvchi muammoni qo'yadi. o'qituvchi esa uni echishga yordam beradi.

2. XX-asrning 50 yil boshlarida paydo bo'lgan va u amerikalik psixolog B.Skinner nomi bilan bog'liq bo'lgan o'qitish texnologiyasining turi?

- A) Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi.
- B) Muammoli o'qitish texnologiyasi.
- V) O'qitishni jaddalashtirish texnologiyasi.
- G) O'yin texnologiyasi.
- D) Hamkorlik texnologiyasi.

3. Muammoli vaziyatning belgilari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang.

- A) Talabaga notanish faktning mavjud bo'lishi;
- B) Vazifalarni bajarish uchun talabaga beriladigan ko'rsatmalar;
- V) Yuzaga keladigan bilish mashaqqatini hal qilishda shaxsiy manfaatdorlik;
- G) Barcha javoblar to'g'ri.

O'z-o'zini nazorat qilish va tekshirish uchun savol va topshiriqlar

1. Muammoli o'qitish deganda nimani tushunasiz?
2. Muammoli o'qitishning zarur shartlari nimalardan iborat?
3. Muammoli o'qitishning asosiy belgilari nimalardan iborat?

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. T-Ma`naviyat-2008 y.
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T-1999 y.
3. Azizxodjayeva N. “Pedagogik texnologiya va mahorat”., Toshkent., TDPU., 2006 y.
4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov “Pedagogik texnologiya” ma`ruza matn 2009 y.
5. J.G` Yo`ldoshev “Pedagogik texnologiya asoslari” T., O`qituvchi, 2004.

7-Mavzu: O`yinli texnologiyalar.

Reja:

- 1.O`yinli texnologiyalar.
- 2.O`yinli texnologiyalarni funktsiyalari.
- 3.O`yin strukturasi.
- 4.Pedagogik o`yinlar klassifikatsiyasi. Imitatsion o`yinlar. Rolli o`yinlar. Tadbirkorlik o`yinlari.
- 5.Pedagogik o`yinlarni amalga oshirishning asosiy yo`nalishlari.

Tayanch tushunchalar

O`yinli texnologiyalar, o`yin funktsiyalari, nazariy aspekt, o`yin tuzilmasi, pedagogik o`yin, tadbirkorlik o`yinlari, sotsial-psixologik muammolar.

O`yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O`yin olimlar tadqiqotlariga ko`ra mehnat va o`qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta`kidlashlaricha, o`yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o`zini namoyon qilish, hayotda o`z o`rnini barqaror qilish, o`zini o`zi boshqarish, o`z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O`yin ijtimoiy tajribalarni o`zlashtirish va qayta yaratishga yo`nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o`z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta`rificha, o`yin shaxsga xos bo`lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulqi shaklidir.

L.S. Vigodskiy o`yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o`zlashtirish vositasi sifatida ta`riflaydi.

A.N.Leontev o`yinga shaxsning hayoltdagi amalga oshirib bo`lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni hayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta`kidlaydilarki, o`yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog`liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o`yin o`ziga xos bo`ladi.

O`yinli faoliyat muayyan funktsiyalarni bajarishga bag`ishlangan bo`ladi. Ular quyidagilar:

- *maftunkorlik;*

- *kommunikativlik;*
- *o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;*
- *davolovchilik;*
- *tashxis;*
- *millatlararo muloqot;*
- *ijtimoiylashuv.*

Tadqiqotchilar o'yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O'yinlarning muhim qirralari S.A.Shmakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbirni) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko'ra, faoliyat jarayonining o'zidan bahra olish uchun qo'llanadi.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – «ijod maydoni»ga ega bo'ladi.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar.

O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi.

O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi.

Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi (G.K. Selevko ta'biricha) quyidagilarni qamrab oladi:

- *o'ynash uchun olingan rollar;*
- *bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;*
- *predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash;*
- *o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;*
- *o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) – ijro sohasi.*

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarda qo'llanadi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va

ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, hayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal echimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar «o'yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi.

Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

G.K. Selevko tomonidan pedagogik o'yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi:

- *didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;*
- *o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;*
- *o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;*
- *o'quv jarayoniga didaktik vazifa qiyosga aylantirilgan tarzda musobaqalashish usullari kiritiladi;*
- *didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan bog'lanadi.*

Pedagogik o'yinlar faoliyat turlari, pedagogik jarayon xarakteri, o'yin metodikasi, soha xususiyati, o'yin muhiti bo'yicha tasnif qilingan (4.01 tablitsaga qaratilsin).

Oliy maktab amaliyotida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi.

Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan.

Tadbirkorlik o'yinlarini mashhur psixologlar L.S. Vigodskiy, A.N. Leontev, P.Ya. Galperin va boshqalarning ishlarida nazariy asoslangan.

Tadbirkorlik o'yinlari o'z xarakteriga ko'ra insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning amaldagi vositasi hisoblanadi.

Tadbirkorlik o'yinlari bilish va o'qitishning vositasi sifatida XX asrning 20-yillarida gurrakib rivojlandi. Tadbirkorlik o'yinlariga taqlidiy (imitatsion) o'yinlar bilishning vositasi sifatida asos bo'ldi. Taqlidiy o'yinlarga o'z navbatida harbiy va harbiy-siyosiy o'yinlar asos bo'lgan.

A.A. Verbitskiy tadbirkorlik o'yinlariga o'qitishning ishoraviy-kontekst shakllari sifatida qaraydi. Uning fikricha, tadbirkorlik o'yinlarida mashq qilish faoliyati va bo'lajak kasbiy faoliyat model yoki uning prototipi, qaysidir sun'iy va tabiiy tizim sifatida o'zaro nisbatlanadi. Shu tufayli tadbirkorlik o'yinlari kasbiy faoliyatning ishoraviy modellari sifatida belgilanadi, uning konteksti (mazmuni) ishora vositalari, ya'ni tabiiy tilni ham hisobga olgan modellashtirish, taqlid (imitatsiya) va aloqa yordamida beriladi.

A.A. Verbitskiy oliy o'quv yurtining vazifasini bunday o'qitishda, ya'ni talabani bir etakchi faoliyat tipi (uquv)dan boshqa (kasbiy) tipga faoliyatning predmeti, motivi, maqsadi, vositasi, usul va natijalarini maqsadga muvofiq yo'naltirilgan (o'zlashtirilgan) holda o'tkazishni ta'minlash deb biladi.

Tadbirkorlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- *ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materialini mazmunining izchilligi;*
- *o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;*
- *o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda q'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;*
- *o'yinning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligi yig'indisi;*
- *o'yinni olib boruvchi o'qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan talabalarning o'z xatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o'tishini ta'minlashi.*

A.S. va G.F. Arbenevlar tadqiqotlarida tadbirkorlik o'yini mutaxassisning evristik tafakkurini rivojlantirishning samarali metodlaridan biri sifatida baholanadi.

A.Tyukov fikricha, har qanday o'yin qay tarzda loyihalashtirilishidan qat'i nazar ularning har biri quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- *kasbiy doira imitatsiyasi yaxlitligi. O'yin imitatsiyasiga taalluqli bo'lgan tuzilma va jarayonlar asosiy voqelikni aks ettiruvchi umumiy syujet yoki asosiy mavzuga ega bo'lishi lozim;*
- *mustaqil tashkil etishga yo'nalganligi;*
- *o'qitishning muammoliligi;*
- *metodologik, psixologik va texnik jihatdan ta'minlanganligi.*

Tashkiliy o'yin aslida tobora takomillashib boruvchi o'qitishni ta'minlashi kerak. Shu maqsadda unda faoliyat rivojlanishining t'eliq davriyligi imitatsiyasi amalga oshiriladi, ya'ni qandaydir vaziyat echimiga b'lgan yondashuvdan topilgan echimning umumlashtirilgan bahosi 'tiladi.

A.A. Tyukov o'yin davriyligining quyidagi bosqichlarni qayd qiladi:

- *vaziyatni va muammolashtirishni tahlil qilish asnosida o'yinning asosiy syujet mavzusi bo'yicha 'yin ishtirokchisining sermahsul mustaqil ijodiy ishi.*
- *amaliy guruhlarining ish natijalarini umumiy tanqidiy muhokama qilish;*
- *o'yin jarayoni va ishtirokchilar xatti-harakatlarini reflektiv tahlil qilish;*

- *echimni tashkil etish bosqichi.*

Ya.S.Ginzburg va N.M.Koryak o'yinning quyidagi sotsial-psixologik xususiyatlarini farqlaydi:

- *guruh xarakteri;*
- *yaratuvchilik, shartlilik;*
- *ramziylik, utilitar bo'lmaslik xarakteri;*
- *belgisizlik (mavhumlik), tarqaluvchanlik xususiyati*

Tadbirkorlik o'yinini tayyorlashning sotsial-psixologik muammolariga quyidagilar kiradi:

- *ishtirokchilarni tanlash;*
- *rollarni taqsimlash;*
- *o'yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;*
- *ijtimoiy psixologiya bo'yicha umumnazariy bilimlarni egallash;*
- *nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish;*
- *shaxsiy tayyorgarlik.*

I.Olloyorov tadbirkorlik o'yinlariga o'quv ishlarini tashkil etishning bir shakli sifatida qaraydi. U o'yinlar o'quv jarayonida o'z o'rniga ega va o'quv jarayonining asosiy vazifalari, mohiyati va tuzilmasi hamda o'rganilayotgan fanning didaktik tabiatiga bog'liq bo'lgan, aniq belgilangan didaktik funktsiyalarni bajarishini ta'kidlaydi.

Tadbirkorlik o'yinlarining didaktik funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

- *talabalarda aqliy faoliyat usullarining shakllanishi;*
- *bilimlarni mustahkamlash va qo'llash;*
- *o'quv jarayonida bo'lg'usi mutaxassisning faoliyati faqat o'rganish emas, balki uni bajarishga qaratilgan didaktik qoidalar ishlab chiqishdan iborat bo'lishi;*
- *talabalar o'quv-bilish faoliyatining bo'lg'usi kasbiy faoliyati, xarakteri va tuzilmasiga maksimal darajada yaqinlashib berishi.*

Tadbirkorlik o'yini ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:

1.O'quv-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig'i shaklida qo'yish:

- *bo'lg'usi tadbirkorlik o'yinining maqsadini aniqlab olish;*
- *muammoli vaziyatni anglab etish;*
- *talabalarga navbatdagi tadbirkorlik o'yini haqida dastlabki ma'lumotlar berish;*

2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan avval egallangan bilimlardan foydalanish:

- *talabalarining o'qituvchidan yoki adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;*
- *bajarilishi lozim bo'lgan ish to'g'risida talabalarga yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish;*

- *olingan bilim, o'zlashtirilgan ilmiy tushunchalar va ishlash metodlarini umumlashtirish;*

- *o'z-o'zini nazorat qilish;*

3. Tadbirkorlik o'yinlarining shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

Navbatdagi ishni rejalashtirish:

- *ularga avval ma'lum bo'lganlar asosida uning ayrim bosqichlarini bajarish usullarini tanlash;*

- *avval egallangan bilimlar asosida tushuntirish ishini olib borish va o'z ijodi uchun zarur bo'lgan yangi metodlarni qidirish;*

- *rejalashtirishni mustaqil nazorat qilish.*

5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar (materiallar)ni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha mustaqil ishlar va tadbirkorlik o'yinlaridagi o'z mavqeini aniqlash.

6. O'zlaridagi bor bilim, malaka va ko'nikmalar asosida reja bo'yicha ishlarni bajarish:

- yangi bilim va malakalarni hosil qilish;
- o'z xatti-harakatlari va ularning natijalarini muntazam nazorat qilish.
- qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish;
- belgilangan rejalarni (reja oldi ishlari va rejadan tashqari) takomillashtirish;
- yakuniy natijalarni tekshirib ko'rish va tahlil qilish.

7. Talabalar faoliyatini, ularning bilimi, malakasi, ko'nikmalarini nazorat qilish va joriy yo'l-yo'riqlar berish.

8. Talabalarning tadbirkorlik o'yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko'rish.

9. Talabalarga tadbirkorlik o'yinlarini o'tkazish va unda qatnashish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish, ularni rol o'ynash bo'yicha taqsim qilish, zarurat tug'ilganda har biriga qo'shimcha yo'l-yo'riqlar berish.

10. Oldindan ishlab chiqilgan stsenariy bo'yicha talabalarning tadbirkorlik o'yinlari.

11. O'yin ishtirokchilariga joriy yo'l-yo'riqlar berish.

12. O'yin ishtirokchilarining o'yin davomida o'zi o'ynagan rollariga baho berishi, o'z-o'zini nazorat qilishi.

13. Tadbirkorlik o'yini natijalarini muhokama qilish va talabanning o'quv-o'yin faoliyatiga baho berish.

Shunday qilib, tadbirkorlik o'yinlari materiallarni yangi bilimlarni egallash, o'tilganlarni mustahkamlash, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni echishda foydalaniladi.

Tadbirkorlik o'yinlarining bir necha modifikatsiyalari mavjud:
Imitatsion o'yinlar.

Bunday o'yinlardan maqsad qaysidir tashkilot, muassasa va uning qismlari faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, kishilarning biror faoliyati (ish bitirish majlislari, rejani muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish va b.), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi mumkin.

Stsenariyda bunday o'ynash to'la tuzilmasi yozib chiqilgan va imitatsiya qilinadigan ob'ektlar va jarayonlar belgilanadi.

Operatsion (voqeyiy) o'yinlar. Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqea-hodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.

Rol ijro etish o'yinlari. Unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

Tadbirkorlik teatri. Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o'ynaladi. Bu o'yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo'ljalni to'g'ri baholay olishni o'rgatish, o'zining xulqiga to'g'ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish, ular bilan muloqot o'rnatish o'rgatishdir.

Psixodrama va sotsiodrama. Bu ham o'ziga xos «teatr», lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko'zlaydi: Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o'zgartirish va unga baho berish, u bilan samarali muloqotga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi.

Tadbirkorlik o'yinlari texnologiyasi

Bu texnologiya tayyorgarlik davrini ham o'z ichiga oladi. U stsenariyni yozib chiqish, vaziyat va ob'ektlarni shartli belgilar asosida tasvirlashdan boshlanadi. Stsenariy mashg'ulotning o'quv maqsadi, o'rganilayotgan muammoning tavsifi, qo'yilgan vazifani asoslash, o'yinning rejasi, vaziyatning mazmuni va qatnashuvchi shaxslarning tavsifini o'z ichiga oladi.

O'yinga kirishish. Bu bosqichda ish rejimi aniqlanadi, mashg'ulotning bosh maqsadi shakllantiriladi, muammoni qo'yish va vaziyatni tanlash asoslanadi.

O'tkazish bosqichi. U o'yin jarayonidir. O'yin boshlangach, hech kim unga aralashmaydi va uning borishini o'zgartira olmaydi. O'yinni faqat uni boshqaruvchi tuzatib borishi mumkin.

Tahlil bosqichi. O'yin natijalari muhokama qilinadi va baholanadi. Bu bosqichda ekspertlarning fikrlari eshitiladi, o'zaro fikr almashinadi, talabalar o'z xatti-harakatlari va xulosalarini himoya qiladilar.

Shunday qilib, tadbirkorlik va evristik o'yinlar bo'lg'usi mutaxassisning ilmiy-ijodiy tajribalarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Oliy maktab muammolarining tadqiqotchilari quyidagi tadbirkorlik va evristik o'yin turlarini farqlaydilar:

1. Mutaxassislar orasida o'z vazifalarini, dasturlar va rollarini taqsim qilish asosidagi tadbirkorlik va evristik o'yinlar. Bunday mutaxassislar sirasiga quyidagilar kiradi:

- *kelgusida ishlash kutilayotgan muassasada faol ijodiy ishlovchilarni va ularni ishlab chiqishda, aniqlash bilan band bo'lgan «vazifa tadqiqotchilari».*

Tadbirkorlik o'yinlarining texnologik sxemasi

Tayyorgarlik bosqichi	O'yinni ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> • stsenariy yaratish • tadbirkorlik o'yini rejasi • o'yinning umumiy tavsifi • yo'l-yo'riqlar mazmuni • moddiy ta'minot tayyorgarligi
	O'yinga kirishish	<ul style="list-style-type: none"> • muammo, maqsadni aniqlab olish • shartlari, yel-yo'riqlar berish • reglament, qoidalar • rollarga taqsim qilish • guruhni shakllantirish • maslahat (konsultatsiya).

O'tkazish bosqichi	Vazifani guruh bo'lib ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> • manbalar bo'yicha ishlash • trening • «fikrlash hujumi» • o'yin texnikasi ustida ishlash
	Guruhlararo munozara	<ul style="list-style-type: none"> • guruhlarning chiqishlari (fikrlari) • natijani himoya qilish • munozara qoidasi • ekspertlar ishi

Tahlil va umumlashtirish bosqichi	<ul style="list-style-type: none"> • o'yinni to'xtatish • tahlil, refleksiya • o'yinni baholash va o'z-o'zini baholash • xulosalar va umumlashtirishlar • tavsiyalar
-----------------------------------	---

- *ijodiy guruhdagi barcha ishtirokchilarning faolligi sathida shu guruhning o'ziga xos katalizatorlik vazifasini bajaruvchi «faollashtiruvchilar»;*
- *ilmiy muammoning echimiga yordam beradigan yo'llar va betakror fikrlar taklif qiluvchi «g'oyalarni ishlab chiquvchi» talabalar;*
- *g'oyalarning tug'ilishiga va ularning boshqa ijodiy guruh a'zolari tomonidan idrok qilinishiga yordam beradigan «rezonator» (tarqatuvchi) talabalar;*
- *muammoni echishning eng maqbul (optimal) variantini qayta ishlab chiqish va topish bilan band bo'lgan «nazoratchi» talabalar.*

Bunday o'yinlarni muayyan ob'ektda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Rahbarlar va o'qituvchilar oldindan rollarni belgilab qo'yadilar.

Masalan, agar o'yin konstruktorlik byurosining tuzilmasini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lsa, quyidagilar belgilanadi:

- «KB boshlig'i»;
- «Bosh konstruktor»;

- «*Ixtirochi*»;
- «*Opponent*»;
- «*chizmakash*»;
- «*tekshiruvchi*»;
- «*maslahatchi*»;
- «*nazoratchi*» va b.

Shundan so'ng quyidagilar tuzib chiqiladi:

- *har birining egallaydigan vazifalari va xatti-harakatlari bahosi bo'yicha yo'riqnoma;*
- *o'yin jarayonining asosiy davriyligi bo'yicha dastur ishlab chiqiladi.*

O'yin jarayonida tortishish, musobaqalashish (bahs-munozara yuritish), ruhiyatining bo'lishini ta'minlash zarur.

O'yin o'tkazish chog'ida «buyurtmachi» rolini bajaruvchi rahbar u yoki bu tadbirlarning bajarilish sifatiga va bu tadbirlarda rol ijro etgan (qatnashgan, ishtirok etgan) talabalarga baho beradi. Shu baholar asosida butun guruhning hamda alohida talabalarning rol ijro etishi bahosi chiqariladi.

Bunday o'yinlarni tashkil etish bo'lg'usi mutaxassis qobiliyatini diagnostika qilishni taqozo qiladi. Shu maqsadda talabalarni rol ijro etishlarini almashtirib turish ham tavsiya etiladi, chunki har bir talaba u yoki bu rolda o'z imkoniyatlarini sinab ko'ra olsin, ya'ni «oddiy»dan «KB boshlig'i» darajasidagi rollarni ijro etishga imkoniyat berilsin.

2. Ijodiy faoliyatning biror bosqichida muayyan strategiya, taktika va metodlarni qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilgan tadbirkorlik va rol o'yinlari.

Masalan, «Ilmiy-tadqiqot ishlarida ma'ruza, munozara» tarzidagi o'yin.

Bu o'yindagi asosiy rollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

«Boshlovchilar» - o'qituvchi, ishlab chiqarish mutaxassisi;

«Peshqadamlar» - muhokama qilinadigan muammoning muayyan masalasi bo'yicha vaziyatni tasavvur qila oladigan ma'ruzachilar;

«Bezakchilar» - peshqadamlarning ma'ruzalari va chiqishlarini ko'rgazmali tasavvur etishlari va tushuntirishlarini ta'minlovchi o'yin ishtirokchilari.

«Assistentlar» peshqadamlar yordamchilari bo'lib, ular peshqadamlarga va opponentlarga ko'rgazmali chiqishlariga yordam beruvchi o'yin ishtirokchilari.

«Rasmiy opponentlar» - peshqadamlarning ma'ruzasi va boshqa materiallar bo'yicha rasmiy tanqidiy ruhda chiqish qiluvchilar;

«Norasmiy opponentlar» - muammo bo'yicha guruh bo'lib yoki mustaqil ilmiy-tadqiqot olib boruvchi barcha boshqa talabalar – o'yin ishtirokchilari;

«Chalg'ituvchilar» - korxonada yoki ilmiy muassasada qo'shimcha salbiy hodisa, faktlarni bayon qilish asosida o'yin ishtirokchilarining faolligiga sabab bo'ladigan savollar qo'yishi lozim bo'lgan o'yin ishtirokchilari. Korxonada yoki ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o'quv yurti o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, aspirant, talabalar bu «vazifa»ni bajarishlari mumkin.

«Registratorlar» - munozaralarni yozib oluvchi o'yin ishtirokchilari;

«Ekspertlar» - ma'ruza muhokamasidagi chiqishlar va echimning guruh bo'lib qabul qilinishi bo'yicha ob'ektiv baho beruvchi o'yin ishtirokchilari. Bu vazifada korxonalar va ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o'quv yurti o'qituvchilari va ilmiy xodimlari, aspirant va talabalar qatnashishlari mumkin.

Bunday o'yinlarda quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

- *bo'lg'usi mutaxassisni axborotlar almashishga o'rgatish;*
- *ularda o'z nuqtai nazarlarini asoslash va himoya qilish, boshqa kishilarning g'oyalariga kirib bora olish, guruh bo'lib echim qabul qila olish malakasini shakllantirish.*

O'yin-munozaralar bo'lg'usi mutaxassisda ilmiy-ishlab chiqarish muammosini qo'ya bilish va echishga, mustaqil fikrlashga, ob'ektivlikka nisbatan qiziqishni shakllantiradi, muammolarni qo'yish, uni muhokama qilish, ularni echishda o'zini tuta bilish ko'nikmalarini hosil qiladi.

O'yin- munozaralar muayyan muammo bo'yicha bahslarni tashkil etilishini ko'zda tutadi.

Bahs muammoni muhokama qilish jarayonidir. Uning usuli esa guruh bo'lib tadqiq qilishdir. Unda har bir ishtirokchi hamsuhbati (raqibi)ning fikrini asoslash, uni inkor etish orqali haqiqatni tiklashda o'z monopoliyasini o'rnatadi.

Bahs munozara borishining turli variantlari mavjud:

Evristik yondashuvda tomonlardan biri muammoning echimi bo'yicha o'zining yondashuvini qabul qilishga urinmasdan ishontirish metodi, ichki tuyg'u, sog'lom aqldan foydalangan holda bahs ishtirokchilarini o'zining nuqtai nazariga og'dirib oladi.

Mantiqiy yondashuvdagi bahsga o'ta mustahkam mantiqiy tahlil va dalil-isbotlar xarakterli bo'lib, uning vositasida ishtirokchilar yakuniy xulosalarga keladilar.

So'fiyona yondashuv. Unda tomonlardan biri o'z raqibini donolik qilib mag'lub qilishi ham mumkin.

Avtoritar yondashuv. Unda tomonlardan biri o'zining obro'sidan foydalanib, o'z nuqtai nazarini o'tkazishi mumkin.

Tanqidiy yondashuv. Bahs ishtirokchilaridan ba'zilari o'z raqibining faqat kamchiligi, kuchsiz o'rni va mavqeiga diqqatni jalb qiladi va, aksincha, raqibining fikridagi ijobiy unsurlarni ko'rishga intilmaydi va muammoning echimi bo'yicha o'z takliflarini ham bera olmaydi.

Dogmatik yondashuv. Unda tomonlardan biri bahsni haqiqatni o'z manfaati uchun o'zining shaxsiy maqsadlariga muvofiq keladigan tomonga boshlab ketadi.

Pragmatik yondashuv. Ishtirok etuvchilardan biri va har bir tomon faqatgina haqiqatni o'rnatish uchun bahs yuritmaydi, balki undan o'zlarining yashirin va bahs ishtirokchilariga ma'lum bo'lmagan amaliy manfaatlariga burish uchun foydalanadi.

Bahsni o'tkazishda quyidagi qoidalarga ahamiyat berish lozim:

- *opponentining o'z fikrini asoslovchi so'zini tinglab, kuzatib borishi;*
- *opponentini so'zlashdan to'xtatib qo'yishga shoshilmasligi;*

- *mayda-chuyda detallarga e'tibor qaratmasligi, eng muhimini ko'rishga, tushunishga harakat qilishi;*
- *kuchsiz o'rinlar, dalil-isbotlar, misollarni topish va tahlil qilish;*
- *opponentini o'zidan kuchli deb hisoblamaslik;*
- *o'ziga haddan tashqari bino qo'yish va ishonishga ruju bermaslik;*
- *qo'rqish raqib oldida mag'lubiyat ekanligini esda tutish.*

Test topshiriqlari

1. Didaktik o'yinli darslarni o'tkazishda qanday talablarga amal qilinadi?

- A) Didaktik o'yinli darslar dasturda qayd etilgan ta'limiy.tarbiyaviy.rivojlantiruvchi maqsad va vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
- B) Muhim muammolarga bag'ishlanishi va ular o'yin davomida hal qilinishi;
- V) Mazkur darslarda didaktik printsiplarga amal qilinishi va ulkan samaraga erishish;
- G) Javoblarning barchasi to'g'ri.

2. O'yinda ishtirok etuvchilar soniga ko'ra didaktik o'yinlar qanday turlarga bo'linadi?

- A) Individual, guruhli, ommaviy o'yinlar.
- B) Ijodiy, ishbilarmon, rolli o'yinlar.
- V) Konferentsiya, syujetli –rolli, o'yin mashqlar.
- G) Zakovatni rivojlantiruvchi, bilimlarni nazorat qiluvchi, bilimlarni mustaxkamlovchi o'yinlar.

3. «Zakovat o'yini» didaktik o'yining qaysi turiga tegishli?

- A) Ijodiy o'yin.
- B) Rolli o'yin.
- V) O'yin mashq.
- G) Ishbilarmon.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar va vazifalar.

- 1.O'yinli texnologiyalar haqida nimalar bilasiz?
- 2.O'yinli texnologiyalarning funktsiyalarini sanab bering.
- 3.Pedagogik o'yinlar qanday klassifikatsiya qilinadi?
- 4.Pedagogik o'yinlarni amalga oshirishning shart-sharoitlari nimalardan iborat?

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. T-Ma'naviyat-2008 y.
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T-1999 y.
3. Azizxodjayeva N. “Pedagogik texnologiya va mahorat”., Toshkent., TDPU., 2006 y.
4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov “Pedagogik texnologiya” ma'ruza matn 2009 y.
5. J.G` Yo`ldoshev “Pedagogik texnologiya asoslari” T., O`qituvchi, 2004.

8-mavzu. Masofaviy va modulli ta'lim texnologiyalari

Reja:

1. Masofaviy ta'lim haqida tushuncha.
2. Ta'limdagi zamonaviy texnologiyalar va masofaviy ta'lim.
3. Masofaviy o'qitishning metodologik asoslari.
4. Masofaviy o'qitish jarayonining o'ziga xosliklari.
5. Masofaviy o'qitishning metod va vositalari.
6. Modulli ta'lim tizimining nazariy asoslari.
7. Modulli ta'lim prinsiplari.
8. Modulli ta'limda o'qituvchining yangi funktsiyaari.
9. Modulli ta'limning boshqa ta'lim tizimlaridan farqi.
10. Modul tarkibi.
11. Modulli o'qish. 1-sinf o'qish darsining algoritmi.
12. Modulni ishlash metodikasi.

Tayanch tushunchalar

Masofaviy ta'lim, subekt, obekt, o'quv- moddiy, finans-iqtisodiy, normativ-huquqiy asoslar, marketing, internet, uslubiy vositalar, darslik, o'rgatuvchi kompyuter dasturlar, virtual reallik, geoaxborot tizimlar, nazoratning reglamentli shakli.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida masofaviy o'qitish ta'limning qulay turi sifatida kirib keladi.

Masofaviy ta'lim ma'lumot olishning shunday shaklidirki unda kunduzgi va sirtqi ta'lim bilan bir qatorda ma'lumot jarayonida ta'limning kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan afzal, an'anaviy va innovatsion metod, vosita va shakllaridan keng foydalaniladi.

Masofaviy ta'limning tarkibiy qismlari quyidagilar:

O'qituvchi → o'quvchi → kommunikatsiya.

Masofaviy ta'lim vositasida o'quvchi uchun qulay bo'lgan joyda individual jadval asosida maxsus imkoniyatlar, telefon, elektron aloqa va boshqa ta'lim vositalari yordamida bir maqsadga qaratilgan nazorat qilish mumkin bo'lgan ta'lim jarayoni tashkil etiladi.

Masofaviy ta'limda ma'lum maqsad asosida ta'lim subekti va obektining ta'lim vositalari yordamidagi o'zaro ta'siri amalga oshadi.

Ma'lumot jarayoni o'ziga xos pedagogik tizim elementlarini o'z ichiga oladi. Bular: ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limning tashkiliy shakllari, nazorat qilish, o'quv- moddiy, finans-iqtisodiy, normativ-huquqiy asoslar, marketing kabilar.

Masofaviy ta'lim tizimi insonparvarlik prinsipiga asoslanadi. Ya'ni hech kim kambag'allik, geografik muammolar ijtimoiy himoyalanganlik va boshqa sabablar tufayli bilim olish huquqidan mahrum bo'lmasligi lozim.

Masofaviy o‘qitishda o‘qituvchi talabaga o‘quv materialini “Internet” tizimi orqali yuboradi. Ushbu kurs bo‘yicha ta’lim olishni istagan o‘quvchilar veb saytga murojaat qilib, nazariy bilimlarni oladilar, amaliy topshiriqlarni bajaradilar va o‘qituvchiga javobni elektron pochta (e-mail) orqali jo‘natadilar. O‘qituvchi o‘quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqni tekshirib, javobni yana elektron pochta orqali o‘quvchiga yuboradi. Zarur bo‘lsa kerakli ko‘rsatmalar beradi.

O‘quv jarayonida o‘quvchi darslikdagi, elektron kutubxona va elektron darsliklardan, vidiokonferensiyalardan foydalanadi.

Masofadan o‘qitish bu mustaqil o‘qishdir. Mustaqil o‘qish davrida o‘quvchida mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarish qobiliyatlari rivojlanadi.

Masofadan o‘qitishda o‘quvchi berilgan dasturni qanchalik tez o‘zlashtirsa, shunchalik tez o‘qishini tugatadi va o‘qitishni tugatganligi to‘g‘risida sertifikat oladi.


Masofadan o‘qitishning uslubiy vositalari quyidagilar:

- A) darslik,
- B) audio va vidiolarsliklar,
- V) veb-saytlar,
- G) elektron kutubxonalar,
- D) matnlar,
- Y) elektron darsliklar.

Albatta foydalanuvchi ixtiyorida masofadan ta’lim olishda multimediyali kompyuter, modem va telefon kabi vositalar mavjud bo‘lishi kerak.

XXI asrda masofaviy ta’lim eng istiqbolli insonparvar ta’lim va ta’limning integral shakli sifatida ta’lim tizimiga kirib kelmoqda.

XXI asr ta’lim jarayoniga global texnologiyaning kirib kelishi bilan ham xarakterlanadi. Chunki bozor iqtisodiyoti talablari o‘z-o‘zidan ta’lim jarayonini dunyo standartlari darajasida takomillashtirishni taqozo etadi. **4-chizma**



O'zaro aloqadorligiga doir talablar: materiallar oqimi, faktlar oqimi, moliyaviy jarayonlar

Hozirgi kunda masofadan o'qitish dunyoning ko'pgina rivojlangan mamlakatlarida keng tarqalgan va qulay ta'lim shakli sifatida rivojlanmoqda. Masalan, Finlandiyaning Oulu universitetida, Buyuk Britaniyaning London Metropolitan universitetida, Gollandiyaning Fontis universitetida, Janubiy Koreya respublikasida va boshqa rivojlangan mamlakatlarda masofaviy o'qitish texnologiyasi keng yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda talabalarni o'qitish va boshqa soha mutahassislarining malakasini oshirish sohasida samarali qo'llanilib kelinmoqda.

O'z-o'zidan ma'lumki, dunyoga yuz tutayotgan O'zbekiston uchun ham bu ta'lim turi uzoq kelajak emas. Shuning uchun ham O'zbekiston o'quv yurtlarida ham ba'zi bir islohotlarni amalga oshirish davr talabi.

1. Ta'limdagi zamonaviy texnologiyalar va masofaviy ta'lim.

O'qitishdagi axborot texnologiyalari bu o'qitish faoliyatida qo'llaniladigan elektron vositalar va ularni ishlatish usullari majmuidir. Elektron vositalar tarkibiga apparatli, dasturli va axborotli komponentlar kiradi. Ularni qo'llash ko'rsatmalari o'qitishdagi axborot texnologiyalarini metodik ta'minotida kiradi.

Masofaviy ta'lim bu o'qitishning insonparvar shakli bo'lib, an'anaviy, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslanadi. Bunda texnik vositalar o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi muloqot uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra masofaviy o'qitish kommunikatsiya va axborotni qayta ishlashning yangi texnik vositalari va sirtqi ta'limning asosiy usullariga tayanishi kerak. Bu o'z navbatida masofaviy ta'lim tizimini tashkil etish to'g'risida gapirishga imkoniyat beradi. Masofaviy ta'lim tizimi apparatli, dasturli va uslubiy vositalarning murakkab kompleksi bo'lib, o'z ichiga server va ishchi stansiyalar, shaxsiy kompyuterlar, kommunikatsiya vositalari, umum tizimli va tarmoqli dasturlar ta'minotiga, lokal va markazlashgan bilim va axborot banklarini boshqaruv tizimlari, o'rgatuvchi dasturlari va shu dasturlarni yaratish uchun instrumental vositalariga ega bo'lgan audio va video texnikalarni oladi.

Masofaviy o'qitish tizimining metodologik asoslari.

O'quv jarayonini tashkil etishda **ochiqlik va individual yondoshuv.**

Yetakchi oliy o'quv yurtlari va uzoq masofadagi o'quv-konsultativ punkt bazasidagi markazdan tashkil topgan masofaviy o'qitish tizimining markazlashgan strukturasi.

Kontakt va nokontakt o'quv davrlari almashadigan masofaviy o'qitish jarayonini tashkil etish.

O'qituvchi, konsultant va menenjer sifatlariga ega bo'lgan **o'qituvchi-konsultant (tyutar) ni o'quvchiga bog'lash.**

O'quvchilarning bir-biri va o'qituvchi bilan o'zaro zamonaviy texnik vositalar, axborot texnologiyalari va an'anaviy pochta yordamida masofadan va yuzma-yuz muloqotini tashkil etish.

Masofaviy o'qitish tizimini tashkil etishning asosiy prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

Ta'limning insonparvarlik prinsipi. Bu prinsip uzluksiz intensiv o'qitish tizimida hal etuvchi ahamiyatga ega bo'lib, masofaviy o'qitish tizimida uning ahamiyati yanada oshadi. Uning mohiyati shundaki, bilim olish jarayoni o'quvchi uchun maksimal qulay qilib tashkil etiladi. Bunday o'qitish insonlarning ta'limga ehtiyojini qondirishga qaratilgan. Masofaning uzoqligi, insonlarning sog'ligi yoki boshqa sotsial sabablar ham ularning bilim olishga monelik qilmaydigan sharoit yaratadi.

Masofaviy o'qitish tizimida o'quv jarayonini tashkil etishda pedagogik yondashuvlarning ustuvorlik prinsipi. Masofaviy ta'limda an'anaviy ta'limdagi kabi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagogik yondashuv ustuvorligi ta'minlanadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, tizimning pedagogik tomoni ustuvor bo'lganda sistemaning samaradorligi oshadi.

Yangi axborot texnologiyalarini qo'llashning pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiqlik prinsipi. Bu prinsip masofaviy o'qitish tizimini tashkil etish va loyihalashdagi har bir qadamning samaradorligini pedagogik jihatdan baholashni talab etadi. Shuning uchun birinchi o'ringa texnikani kiritish emas, balki o'quv kurslarini tegishli ravishda mazmunan boyitish kerak, uni yangi axborot texnologiyalari orqali o'quvchiga yetkazish yo'llarini izlash lozim.

Ta'lim mazmunini tanlash prinsipi: Masofaviy ta'lim mazmuni davlat ta'lim standartlarining normativ talablariga javob berishi kerak. Shuningdek, ta'lim mazmunini tanlash imkoniyatini yaratadigan alternativ dasturlar yaratish lozim.

Axborot havfsizligini tanlash prinsipi:

Ta'limning boshlang'ich darajasi prinsipi: Ta'lim samaradorligini oshirish uchun ma'lim bir boshlang'ich bilim va ko'nikmalar zarur.

O'qitish texnologiyasining moslik prinsipi. O'qitish texnologiyasi masofaviy o'qitish modeliga adekvat bo'lishi lozim.

Masofaviy o'qitish tizimi an'anaviy ta'lim tizimiga zid xususiyatga ega bo'lmasligi kerak. Masofaviy o'qitishda ham an'anaviy ta'lim tizimidagi ta'lim mazmuni saqlanadi. Lekin uning farqi ta'lim oluvchilar uchun qulaylikning yaratilishida.

Masofaviy o'qitish jarayonining o'ziga xosliklari.

1. Eguluvchanlik. O'quvchi dars vaqti, hajmi va boshqalarga nisbatan erkindir.

2. Modullilik.

3. Parallellik. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda.

4. O'zaro ta'sir etish.

5. Masofaviy ta'limning didaktik tizimi.

Hozirgacha mavjud didaktik tizimda ta'lim jarayoni 7 ta elementni o'z ichiga olar edi: ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'qituvchilar, o'quvchilar, ta'limning shakli, vositasi va metodlari.

Masofaviy ta'limning didaktik tizim esa 12 elementni o'z ichiga oladi.

Masofaviy ta'limning didaktik tizimi

maqsad		O'quv-moddiy
mazmun	o'qituvchilar	Nazorat
Metodlar		Normativ-huquqiy
vositalar	o'quvchilar	iqtisodiy
shakllar		marketing

Qo'shimcha elementlar, ya'ni o'quv moddiy, nazorat, normativiy-huquqiy, iqtisodiy, marketing kabilar an'anaviy didaktik tizimda ham ko'zga tashlanmay ishtirok etadi, lekin pedagogik jarayon uchun u masofaviy ta'limdagi kabi prinsiplial ahamiyat kasb etmaydi.

Masofadan o'qitishning metod va vositalari.

Masofadan o'qitish texnologiyasi (MO'T) mahsus metod, vosita va o'qitishning tashkiliy shakllari tizimi bo'lib, ta'lim mazmunini ko'p tarmoqli ravishda amalga oshirishga qaratilgan.

Oliy o'quv yurtlarining ko'pgina o'qituvchilari (pedagogika va didaktika o'qituvchilaridan tashqari) "o'qitish metodi" tushunchasiga unchalik qiziqmaydilar. Chunki ko'pchilik o'qituvchilar o'qitish faoliyatini empirik tarzda o'rganib oladilar.

Ular asoson kafedra mudirilari yoki yetakchi professor – o'qituvchilariga taqlidan o'qitish usullarini qo'llaydilar. Lekin shu usullar qaysi ta'lim metodlari tizimiga kirishini bilmaydilar yoki qiziqmaydilar. Ta'lim metodini bilish ta'limni takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir. Ta'lim metodi har xil o'quv predmetlarini o'qitishni qanday amalga oshirish yo'larini belgilaydi.

Ta'lim metodi o'qituvchi va o'quvchi faoliyati to'g'risida nazariy tushuncha beruvchi didaktik kategoriyadir. Masofadan o'qitish har xil ta'lim metodlari orqali amalga oshiriladi va unda bir qancha usullardan foydalaniladi. Har bir usul muayyan harakatlardan iborat bo'lib, o'qitishning hal xil didaktik vositalari yordamida ma'lum bir maqsadga erishishga qaratiladi.

Masofadan o'qitish metodlaridan foydalanganda quyidagi usullarni qo'llash mumkin: namoyish qilish, illyustratsiya, tushintirish, hikoya, suhbat, mashq, masala yechish, materialni yodlash, yozma ish va takrorlash kabilar.

Pedagogik jihatdan qayta ishlangan o'quv mazmunini o'z ichiga olgan masofaviy o'qitish o'qituvchi va o'quvchi qo'lidagi o'quv vositalari o'quv mazmunini taqdim etish, o'quvchilarning o'rganish faoliyatini tekshirish va boshqarish vazifasini bajaradi. Ma'lum bir o'quv materiali bir qancha o'rgatish vositalari (bosma materiallar, audio-video va boshqalar) bilan berilishi mumkin.

Vositalarning har biri o'z didaktik imkoniyatlarga ega. O'qituvchi bu imkoniyatlarni bilishi va o'quv materialini har xil vositalarga ko'ra bo'lib chiqishi, didaktik vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan o'quv axborotlarini tashuvchi tizim sifatida o'quv materiallaridan o'quv vositalari kompleksini yarata olishi kerak. **Masofaviy o'qitish tizimi vositalari** quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1.Darsliklar (an'anaviy darsliklar, elektron darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlar va boshqalar).

2.Kompyuter tarmoqdagi o'quv-metodik qo'llanmalar;

3.Odatdagi va multimediya variantlaridagi kompyuterli o'qituv tizimlari;

4.Audio o'quv axborot materiallari;

5.Video o'quv-axborot materiallari;

6.Masofaviy laboratoriya praktikumlari;

7.Masofaviy trenajyorlar;

8.Masofaviy axborot va bilimlar bazasi;

9.Masofaviy elektron kutubxonalar;

10.O'rgatuvchi ekspert tizimlariga asoslangan o'qitish vositalari;

11.Geoaxborotli tizimlarga asoslangan o'qitish vositalari;

12.Virtual reallikka asoslangan o'qitish vositalari.

Masofadan o'qitish tizimida o'qitish vositalari yangi axborot texnologiyalari vositasida amalga oshiriladi. Keltirilgan vositalarning xarakteristikalarini keltiramiz.

DARSLIKLAR.

Didaktik bosma materiallarni tayyorlashda quyidagilarga asoslanishi kerak.

O'quv qo'llanmalar shunday tuzilishi kerakki, o'quvchi faqat zarur hollardagina qo'shimcha o'quv axborotga murojaat qilsin.

O'quv materialni strukturasi tashkil etishda modul prinsipidan foydalanish kerak.

Materialni mustaqil o'zlashtirish va mustaqil ish bo'yicha batafsil ko'rsatmalar berilishi lozim.

O'quv qo'llanmada nazorat vazifalari, bilimni tekshirish uchun savol va javoblar, mashqlar bo'lishi kerak.

Umuman olganda o'quv materiallari quydagi tarkibga (o'quv predmetiga ko'ra invariant) asoslangan bo'lishi kerak:

Kirish (dastur va mutaxassislikning tarixi predmeti, faolligi, boshqa predmetlar bilan bog'liqligi va o'rni);

Kurs bo'yicha o'quv dastur;

Kursning maqsadi va vazifalari;

Kursni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha metodik ko'rsatmalar;

Mundarija;

Bo'lim (modul)lar bo'yicha asosiy material tartibga solingan;

Bo'limlar bo'yicha o'rganish uchun javoblari mavjud bo'lgan testlar, savollar va masalalar;

Yakuniy test;
Mustaqil ish uchun amaliy topshiriqlar;
Kichik ilmiy tekshirish ishlari uchun mavzular;
Atamalar lug‘ati;
Qisqartirmalar ro‘yxati;
Yakuniy qism;
Adabiyotlar ro‘yxati (asosiy, qo‘shimcha, fakultativ);
Xrestomatiya (kurs mavzusi bo‘yicha darsliklar, ilmiy maqolalar, metodikalardan misollar);
Qo‘llanma muallifining qisqacha ijodiy tarjimai holi.
Adabiyotlarda keltirilgan ma‘lumotlar rangli qilib ishlangani ma‘qul;
Kirish – to‘q sariq, notanish so‘zlar lug‘ati – pushtirang, matn – oq-qora, mashqlarga kalitlar to‘q ko‘k, o‘z-o‘zini tekshirish mashqlari ochsariq, topshiriqlar (testlar) – yashil ranglarda.

O‘RGATUVCHI KOMPYUTER DASTURLAR

O‘qitishning bu vositasi 70-yillarda shaxsiy kompyuterlar ishlab chiqilishi bilan paydo bo‘ldi. O‘quv dasturi vositasi deb shunday vositaga aytiladiki, unda ma‘lum o‘quv predmeti o‘z aksini topib, uni o‘rganish texnologiyasi ko‘rsatiladi va har xil o‘quv amaliyotlarni amalga oshishi uchun sharoitlar ta‘minlanadi. Bunaqa dastur vositalari odatda an‘anaviy ta‘lim-tarbiya jarayonida, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash ular malakasini oshirishda o‘qitish samarasini oshirish va boshqalarda qo‘llashga mo‘ljallangan.

O‘quv dasturi vositalarining o‘quv jarayonida bajaradigan funksiyalari:
O‘quv jarayonini differensialash va individuallashtirish;
Teskari aloqa va xatolar diagnostikasi bilan bir vaqtda nazorat olib borish;
O‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z faoliyatini boshqarish;
Murakkab hisob-kitoblarni kompyuterda bajarish hisobiga vaqtni tejash;
O‘quv axborotini vizuallashtirish;
O‘rganilayotgan jarayon va hodisalarni modellashtirish yoki imitatsiya qilish;
Real tajribani kompyuterda imitatsiya qilish sharoitida laboratoriya mashg‘ulotlarini olib borish;
Har xil vaziyatlarda masalani optimal yechimini topish ko‘nikmalarini shakllantirish;

Muayyan fikrlash turini rivojlantirish (masalan, nazariy, obrazli....);

Motivlarni kuchaytirish (o‘yinlar...);

O‘quv faoliyati madaniyatini shakllantirish va boshqalar.

Hozirgi vaqtda o‘quv dasturi vositalari ro‘yxatiga quyidagilar kiritiladi:

- elektron darsliklar;
- elektron ma‘ruzalar;
- ma‘lumotnoma va axborot bazalari;
- masalalar to‘plami va masalalar generatorlari;
- predmetli muhitlar;
- kompyuterli illyustratsiyalar.

Hozirgi paytda o'quv dasturi vositalari yaratishning 4 ta xuli mavjud: bevosita dasturlash;

Eng qulay yo'l instrumental tizimlardan foydalanish.

Tayyor o'quv dasturlaridan foydalanish ;

Maxsus tashkilotlarga o'quv dasturi, vositalar tayyorlashga buyurtma berish.

1 ishlab chiqish;

2 dasturli metodik hujjatlarni tayyorlash;

3 sinash va korrektirovka;

4 kuzatish;

5 didaktik audio va video materiallar.

VIRTUAL REALLIK

Kontaktsiz axborot almashinish vositasi bo'lmish virtual reallik murakkab multimediali operatsion muhitlar yordamida amalga oshiriladi. Bu operatsion muhitlar "ekran dunyosida" real vaqtda mavjudlik illyuziyasini yaratadi. Virtual reallikning pedagogik va psixologik tahlili uning quyidagi qulayliklarini ko'rsatdi:

- Ekkranda aksini topgan ob'ekt yoki virtual reallik jarayonlari bilan kontaktsiz bog'lanish va ularni boshqarish.

- Ekkranda kechayotgan jarayonlarda ishtirok etish yo'li bilan reallikni immitatsiya qilish va u jarayonlar rivojlanishi va faoliyatiga ta'sir etish.

Virtual reallik imkoniyatlarini amalga oshirilishi dastur vositalarini ishlab chiqish darajasi, hamda shu muhitlarni yaratuvchi apparatura bilan belgilanadi.

Virtual reallikni o'quv jarayonida qo'llanilishi konstruktiv-grafik, badiiy vazifalarni yechishda, kompyuter grafika, mutaxassislar mashqida qo'llash tavsiya qilinadi.

GEOAXBOROT TIZIMLARI.

Bular o'qitish sub'ekti va ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Masofaviy o'qitish tizimida geoaxborot tizimlar kartografik tarzda vezuallashgan va fazoviy tahlil funksiyasiga ega axborot bazasi sifatida qo'llaniladi.

Masofaviy laboratoriya praktikumlarining aktualigi ayniqsa texnika mutaxassislarini tayyorlashda ko'zga tashlanadi, chunki bu mutaxassislarning malakasi faqatgina nazariy bilimlar bilan emas, balki amaliy laboratoriya tekshirishlar o'tkazish ko'nikmalari bilan ham belgilanadi. Bu muammo ikki yo'l bilan hal qilinadi:

1. Maxsus mobil kompleksini ishlab chiqish va uni o'quvchiga yetkazish.

2. Laboratoriya uskunalaridan masofadan foydalanish imkoniyatini yaratish.

MASOFAVIY O'QITISH SHAKLLARI.

Ma'ruza

Ma'ruzalar o'quv mashg'ulotlarining eng muhim shakllaridan bo'lib, o'quvchilarning nazariy tayyorgarlik asosini tashkil etadi. Ma'ruza predmet bo'yicha ilmiy bilimlarning tizimli asosini berish, muayyan fan-texnika sohasida muammo va taraqqiyot istiqbollari yoritish, eng muhim va murakkab masalalarga e'tiborni qaratish bilan xarakterli. Ma'ruza o'quvchining o'quv faoliyatini jadallashtirish va ijodiy fikrlashga undashi kerak.

Masofadan o'qitish tizimida asosan dastlabki ma'ruzalar qo'llaniladi.

Masofadan o'qitishda ham ma'ruzaga bo'lgan umumiy talablar saqlanib qoladi. Masofadan o'qitishda ma'ruza real va noreal vaqtda o'tkazilishi mumkin, ular frontal yoki individual tarzda berilishi mumkin. Frontal ma'ruza uchun televidenie qo'llaniladi. Individual varianti kompyuterli videokonferensiya yordamida o'tkaziladi. Kompyuterdan ekranga chiqaruvchi proektor qo'llanganda videokonferensiya frontal ma'ruza uchun ham qo'llaniladi.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalariga qaraganda masofadan ma'ruzalarning matnli (elektron ma'ruza) variantini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Elektron ma'ruza – elektron ko'rinishdagi o'quv materiallar to'plami. Unga ma'ruza matnidan tashqari matn fayllari ko'rinishidagi boshqa o'quv qo'llanma va ilmiy maqolalardan materiallar qo'shiladi.

Matn ko'rinishidagi ma'ruzaning afzalliklari:

-o'quvchi tushunarsiz joyga ko'p karra qaytish imkoniyati mavjudligi;

-bir vaqtning o'zida matnni o'qish, fikrlash va tahlil qilish mumkin;

-umumiy tarkibni ko'rish ancha oson;

-material batafsil ishlab chiqilganligi va tushunganligi sababli o'quvchida prinsipial, chuqur ma'noli savollar tug'iladi. Elektron ma'ruzaning kamchiligi – lektor bilan muloqotning ijobiy psixologik faktori yo'qligi.

Matn ko'rinishidagi ma'ruza o'tilganidan so'ng elektron pochta orqali konsultatsiya o'tilsa maksimal didaktik samara olinadi.

Seminar

Masofadan o'qitishda seminarlar videokonferensiya yordamida o'tkaziladi.

Pedagogik nuqtai nazardan videokonferentsiya yordamida o'tkazilgan seminar odatdagi seminardan farq qilmaydi, chunki ishtirokchilar bir-birlarini ekranda ko'radilar.

Telekonferensiya yordamida o'tkaziladigan seminar (yozma ravishda) virtual noreal vaqt masshtabida bo'lib, (off-line) ishtirok-chilar bir-birini ko'rmasdan o'z matnlari bilan almashinishadi.

Konsultatsiyalar

Masofaviy o'qitish tizimida konsulyatatsiyalar yangi axborot texnologiyalar yordamida olib boriladi: telefon elektron pochta, video va telekonferensiya, ko'p hollarda telefon va elektron pochtadan foydalaniladi.

Laboratoriya mashg'ulotlari

Laboratoriya mashg'ulotlari ikki xil o'tkazilishi mumkin:

1. Kompyuter tarmoqlari orqali (laboratoriya uskuna va tajribani modellashtiruvchi) markaziy kompyuter bilan bog'lanish.

2. "Uyga" portativ laboratoriya praktikumini yetkazib berish.

Nazorat tadbirlari

Masofadan o'qitishda pedagog va o'quvchi orasida bevosita kontakt bo'lmaganligi sababli ta'lim jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarni tekshirish va nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masofadan o'qitishda nazoratning o'ziga xosligi shundaki, unda shaxsni aniqlash funksiyasini amalga oshirish zarurati mavjud. O'quv materialini masofadan o'qitishda o'zlashtirish sifatini an'anaviy o'qitishdagidek quyidagilar bilan xarakterlash mumkin.


- tasavvur darajasi;
- Qaytarish darajasi;
- Ko‘nikma tajriba darajasi;
- Ijod darajasi.

Masofaviy o‘qitishda quyidagi nazorat ko‘rinishlari qo‘llaniladi: imtihon, nazorat ishi, sinov, kurs va diplom ishlari.

Testlar masofadan o‘qitishda o‘z-o‘zini tekshirish va yakuniy nazoratda keng qo‘llaniladi.

Nazoratni tashkil etilishini 6-chizmada ko‘rish mumkin.

6-chizma



Nazoratni quyidagi ikki tipini qo‘llash maqsadga muvofiqdir: reglamentli nazorat, o‘z-o‘zini tekshirish

Nazoratning reglamentli shakliga quyidagilar kiradi:

- kirish nazorati;
- joriy nazorat;
- yakuniy nazorat;

O‘z -o‘zini nazorat qilish maxsus dasturlar asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ish.

Masofadan o‘qitishning bu shakli asosiy hisoblanib, yuqorida keltirilgan barcha o‘quv vositalari qo‘llaniladi. O‘quvchilarning mustaqil ishi individual, juftlar va guruhlar asosida olib borilishi mumkin. O‘zaro yordam ko‘rsatish guruhlarini tashkil etish yuqori samaradorlikka ega ekanligi tajribada sinalgan.

O‘quvchilarning o‘quv joylarini 3 turga bo‘lish mumkin.

ish joyida yangi axborot texnologiyalar vositalari mavjud emas;

magnitofon va (yoki) videomagnitofon mavjud;

kompyuter tarmoqlariga ulangan kompyuter mavjud;

Masofadan o‘qitishda “faol o‘qitish metodlari” qo‘llaniladi. Bularga o‘quvchining o‘rganish faoliyatini faollashtirish yo‘llari va ba‘zi pedagogik usullar va dars o‘tishning maxsus shakllari kiradi. Bu metodlar o‘quvchida quyidagi ijobiy sifatlarini shakllanishiga olib keladi:

- Umumiy masalani hal qilish bilan shug'ullanayotgan guruhda tez adaptatsiyalanish qobiliyati;
- Shaxsiy aloqalarni yo'lga qo'yish, axborot bilan almashinish va zarur fikirlarni shakllantirish, ishni to'g'ri taqsimlash va tashkil etish qobiliyati;
- Atrofdagilar qarshiligini yengish, kelishmovchiliklarni oldini olish qobiliyati;
- O'z hatti-harakatlarni tahlil qilish va baholash.

Masofadan o'qitishda quyidagi an'anaviy o'qitish metodlari samaral qo'llanilishi mumkin: "Muayyan vaziyatni tahlil qilish", mavzuli mashg'ulotlar ("xizmat safari"), ("joylarda seminar o'tish"), ("davra stoli").

Faol o'qitish metodlari o'qitishning kontaktli va kontaktsiz davrlarida qo'llanilishi mumkin. Kontaktsiz davrda kopyuter tar-moqlari (internet) va audio – videokompyuter vositalari qo'llaniladi. Hozirgi vaqtda kooperativ o'qitish metodlari rivojlanmoqda (proektlar metodi, o'quv firmalar metodi).

Proektlar metodi deb, o'quvchilarning birgalikdagi o'rganish, ijod va o'yin faoliyatlari tushiniladi.

Bu faoliyat kompyuter telekommunikatsiyalari asosida tashkil etilib, umumiy natijaga qaratilgan umumiy maqsad va metodlarga ega bo'ladi.

Proektlar metodi bo'yicha o'qiyotgan o'quvchi rejalashtirish va amaliy vazifalarni bajarish jarayonida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi. Bu metod XIX asrning ikkinchi yarmida AQSHda vujudga kelib, "bajarish yo'li bilan o'qish" shiorini oldinga surgan pragmatik pedagogikaning nazariy konsepsiyasiga asoslangan. Hozirgi paytda kompyuter tarmoqlarining didaktik imkoniyatlari bu yo'nalishni qayta tiklashga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim-tarbiya muaamolari tizimli yondashuvni talab qiladigan masalalardan biridir.

Ta'lim va tarbiya – ijtimoiy tajribalarni o'qituvchi rahbarligida o'zlashtirishga qaratilgan maqsadli ta'sirdir. Ta'lim va tarbiya jarayonida pedagogik tizim faoliyati vositasida insonning rivojlanishi boshqariladi.

Pedagogik tizimning maqsadlari: insonlarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini (mustaqil bilim olish, o'z-o'zini tarbiyalash) shakllantirish asosida ularni boshqarish ob'ektidan boshqarish sub'ektiga aylantirish. O'qituvchi va o'quvchining faolligi uning boshqarish sub'ekti sifatida ozmi, ko'pmi o'z faoliyati va xulqini boshqarishida, shuningdek, boshqalar xulqiga ham ta'sir ko'rsatishida ko'rinadi. Hozirgi davr o'quv-tarbiyaviy jarayonini boshqarish vazifalaridan biri o'qish-o'qitish mehnati jarayonini qulay intensivatsiyalashdir. Uning tarkibiy qismiga quyidagilar kiradi: Ta'limning maqsadga qaratilganligini rivojlantirish, uning motivatsiyasini kuchaytirish, ta'lim mazmunining axborot hajmini, ta'limning ilg'or shakl va metodlarini qo'llash, ta'lim tempini faollashtirish, ta'lim mehnatining refleks ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Ta'limni qulaylashtirish usullariga quyidagilar kiradi: vazifalarni yaxlit rejalashtirish, o'quvchilar xususiyatlarini hisobga olib uni oydinlashtirish, o'quv materialiga o'quvchilar e'tiborini tortish yo'llarini izlash, dars etaplarini optimal ketma-ketligini tanlash, ta'limning metod, shakl va vositalarini asosli tanlash,

differential yondashuv, sinf va uy vazifalarining hajmi va murakkabligining qulayligi, o'quv-tarbiyaviy jarayon natijasining yaxlit tahlili.

Zamonaviy pedagogik yondoshuv ta'lim jarayonining diqqat markazida o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini qo'yish, ta'lim jarayonini taxminiy loyihalash, diagnostikligi, maqsadning aniqligi va natijaning ob'ektiv nazorati (o'z-o'zini nazorat), ta'lim jarayonining yaxlitligi kabilarga qaratilgandir. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi uni o'quv-biluv faoliyatini o'zi tashkil etishi, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmatiga aylanishidir. Bu maqsadni mustaqil qo'ya bilish, faoliyat usullarini tanlay bilish, o'z ta'sirlari va munosabatlari doirasida boshqalar bilan kelisha bilish va koordinatsiyalash, o'z-o'zini nazorat qila bilishlarda ko'rinadi. Bunday faoliyat ta'limning modulli texnologiyasi orqali samarali amalga oshirilishi mumkin.

Modul nima va uni qanday shakllantirish kerak?

Modul lotincha **“modulus”** so'zidan olingan bo'lib - me'yor, o'lchov degan ma'noni anglatadi. Modul ta'lim jarayonida o'rga-nilayotgan predmetni ma'lum qismlarga bo'lib, uni o'rganishning aniq tizimini yaratadi.

O'quvchilarning o'qishini tashkil etish vositasi sifatida modullar tayyorlashning har xil usullari mavjud.

Modul dasturi, mustaqil o'qishga o'rgatadigan o'quv qo'llanma sifatida o'quvchiga o'quv moduliga kiritilgan o'quv material blokini o'qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilsa ta'lim samaradorligi oshadi.

Modul qo'llanma tuzilmasida quyidagi konstruktiv talab va qoidalar aks etadi:

- modulli o'qish natijasida sifat tasniflariga (shaxsiy va bilish) kiritilgan yaxlit maqsad.

- ta'lim standartida berilgan predmet “o'quv elementlarida” maqsadning oydinlashishi.

- modulni o'rganish, texnologik usullar bo'yicha dastur va tavsiyalar.

- yakuniy nazorat topshiriqlarida o'zlashtirish darajalari etalon va mezonlari bo'yicha maqsadlar oydinlashishi.

- o'z - o'zini va o'zaro nazoratni tashkil etish bo'yicha etalonlar.

Darsda modulli texnologiyani amalga oshirish va loyihalash xususiyatlari.

Ta'lim jarayonida alohida modullar asosida o'quv faoliyatini tashkil etilishi o'quvchining ta'lim faoliyatining sub'ekti sifatida mustaqil, rejali bilim o'zlashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishida katta imkoniyatlar yaratadi. Modulli texnologiyani amaliyotga qo'llash o'qituvchidan modulli ta'lim prinsiplarini yaxshi bilishni talab etadi:

Modullilikning **1-prinsipi ta'limning konstruktivligi:**

a) o'quv materialini shunday konstruksiyalash lozimki, o'quvchi oldiga qo'yilgan har bir maqsadga erishish ta'minlangan bo'lsin;

b) o'quv materialini tugallangan bloklarda tasavvur qilish;

v) ta'limning har xil shakl va turlari integrallashsin;

2-prinsip: maqsadlarning aniqligi: ta'lim mazmunidan asosiy elementlarni ajratish ta'lim mazmuni tarkibini aniqlash asosida kursga, sinfga tegishli har xil darajali - yaxlit, integrallashgan, xususiy didaktik maqsadlarni ishlab chiqish.

3 prinsip: ta'limning qulayligi: axborotlarning tezligi, ochiqligi va ularni almashtiraolish imkoniyati, o'quv-biluv faoliyatining har bir o'quvchi uchun qulayligi va moslasha olishi nuqtai nazaridan darslarning har bir etapini tahlil qiliish imkoniyati bo'lgan shakli.

4 prinsip: ta'sirlarning tiizimliliigi: ta'limning har xil metod va usullari , mazmuni, o'quv faoliyatining o'zgaruvchanligi asosida bilim o'zlashtirishning qulayligi, maxsus ko'nikma va malakalarning shakllanishi.

5 prinsip: ta'limning ixchamligi; O'quv faoliyatining individual uslubini shakllantirish orqali o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan taa'limning ixcham yo'nalishi;

6 prinsip: ta'limni individuallashtirish: har bir o'quvchining o'zlashtirishini nazorat qilish, monitoring natijalari asosida faol rivojlantirish zonasi va yaqin rivojlantirish zonalarini aniqlab, baholash tizimida o'quvchilarning faolligini rag'batlantirishdan foydalanish asosida, ularning faolligini oshirish ta'limni individuallashtirish demakdir.

7 prinsip: metodik maslahatlarning turli xilligi: modul dasturi axborotlarni oson o'zlashtirish uchun o'qituvchi maslahatidan foydalanishni taqozo etadi (savollar tizimi, algoritmlar va h.)

Modul dasturini loyihalashga kirishishdan oldin o'qituvchi o'zining yangi funksiyasini aniq anglab olmog'i lozim.Uning yangiligi shundan iboratki, o'qituvchi:

- o'quvchilarning biluv faoliyatini boshqaradi, ya'ni, o'qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o'quvchilarning shaxsiy - biluv faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi;

- darsda o'quvchilarni biluv faoliyatiga qiziqtirib (motiv), ularning o'quv predmetiga ijobiy munosabatini tarbiyalaydi;

- darsda o'quvchilarni axborot materiallari bilan ishlashga o'rgatadi va mustaqil ishlarni tashkil etadi;

- ta'limning jamoa usulidan foydalanib, barcha o'quvchilarni ijodiy ishlashga jalb etadi, ular o'rtasida o'zaro yordamni tashkil etadi;

- muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratadi, ya'ni, har bir o'quvchining kuchi yetadigan topshiriqlar va ularning metodikasini ishlab chiqadi, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi;

- o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholashini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda modulli ta'limning mohiyati shundaki, o'quvchi modullar bilan ishlash jarayonida o'quv-biluv faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga mustaqil ravishda to'liq erishadi (ba'zida o'qituvchi yordamidan foydalanadi).

Modul – ta'lim mazmunining shunday bir yaxlit bo'lagiki, u ta'lim mazmuni va uning texnologiyasi birlashtirilgan yuqori darajadagi yaxlit tizimdir.

Modul tarkibi:

- ta'sirlarning maqsadli rejasi,

- axborot banki,

- didaktik maqsadga erishishga metodik rahbarlik.

Modulli ta'limning boshqa ta'lim tizimlaridan farqlari quyidagilar:

1. Ta'lim mazmuni alohida tugallangan mustaqil qismlar (blok)dan iborat bo'lishi va ularni o'zlashtirish ta'lim maqsadlaridan kelib chiqishi lozim. Didaktik maqsad o'quvchi uchun belgilanadi va u faqat o'quv materialini hajmini o'zlashtirishga oid ko'rsamalni emas, balki o'zlashtirish darajasini ham o'z ichiga oladi. Har bir o'quvchi modulni qanday o'rganish kerakligi, zaruriy o'quv materiallarini qanday topishi kerakligi haqida o'qituvchidan yozma tavsiyalar oladi.

2. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot individual tarzda yoki modullar asosida o'tadi. Faqat modulgina ta'limni sub'ekt-sub'ekt asosida o'tishiga yordam beradi.

3. Har bir o'quvchi o'z faoliyati davomida vaqtning ko'p qismini mustaqil ishlashga, maqsad asosida o'qishga, ishni rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat qilish va tekshirishga bag'ishlaydi. Shunday qilib har bir o'quvchi o'z bilim darajasi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi, bilim va ko'nikmalaridagi kamchiliklarni anglaydi.

4. O'qituvchi o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini modullar orqali yoki bevosita boshqaradi. Bevosita boshqarganda u aniq maqsad asosida va o'quvchi bilan yaxshi munosabatda bo'lib boshqaradi.

5. Chop etilgan modullarning mavjudligi o'qituvchiga o'quvchilarning har biriga individual maslahat bera olish va o'quvchiga qanday yordam qilishni belgilab olish imkoniyatini beradi.

Bilim o'zlashtirish etaplari logikasi – idrok etish, anglash, esda qoldirish, amaliyotga qo'llash, umumlashtirish, tizimlash kabilar asosida o'quvchi faoliyati tarkibini belgilash – modul qurilishida eng muhim asosdir.

O'z-o'zini tekshirish uchun savol va topshiriqlar:

1. Masofaviy ta'lim haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Masofaviy ta'limning tarkibiy qismlari nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Masofaviy ta'lim qanday prinsiplarga asoslanadi?
4. Masofadan o'qitishning uslubiy vositalari nimalar?
5. Masofaviy ta'lim qanday texnologik vositalarga tayanadi?
6. Masofaviy o'qitish tizimining metodologik asoslarini ayting.
7. Masofaviy o'qitish jarayonining o'ziga xosliklari nimalardan iborat?
8. Masofaviy ta'limning didaktik tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?
9. Masofadan o'qitishning metod va vositalarini tushuntiring..
10. Masofaviy o'qitish vositalariga nimalar kiradi?
11. Masofadan o'qitish shakllarini ayting.
12. Modulli ta'lim texnologiyasi haqida nimalar bilib oldingiz?
13. Modul nima?
14. Modulli ta'limning nazariy asoslarini tahlil qiling.
15. Modulli ta'lim boshqa ta'lim turlaridan nimasi bilan farq qiladi?
16. Boshlang'ich ta'lim jarayoni uchun namunalari asosida modullar ishlab chiqing.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. T-Ma`naviyat-2008 y.
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T-1999 y.
3. Azizxodjayeva N. “Pedagogik texnologiya va mahorat”. Toshkent., TDPU., 2006 y.
4. R. A.Mavlonova, M.Arabova, G` Saloxiddinova, M.Shirinov “Pedagogik texnologiya” ma`ruza matn 2009 y.
5. J.G` Yo`ldoshev “Pedagogik texnologiya asoslari” T., O`qituvchi, 2004.